

D. ISAMUXAMEDOVA, L. ADILOVA

**SHAHARSOZLIK  
ASOSLARI VA LANDSHAFT  
ARXITEKTURASI**





624.131.

T-94 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

D.U.ISAMUXAMEDOVA, L.A.ADILOVA

## SHAHARSOZLIK ASOSLARI VA LANDSHAFT ARXITEKTURASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif  
vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan

### II QISM



TOSHKENT – 2010



**38.58**

**I.94**

**D.U.Isamuxamedova, L.A.Adilova.** Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi (II qism). — T.: «Fan va texnologiya», 2010, 212 bet.

Ushbu darslik arxitektura ta'limi yo'nalishi talabalari uchun «Landshaft arxitekturasi» fan bo'yicha yozilgan. Bu fan ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda landshaft arxitekturasining evolutsion tarixi, ya'ni genezisi — qadimiy bog'dorchilikdan XX asr boshining bog'-park san'ati va landshaft arxitekturasigacha olib berilgan. Ikkinci qismda landshaft arxitekturasining zamonaviy rivojlanishi va talablari yoritilgan. Ushbu kitob arxitektura, shaharsozlik, landshaft arxitektura, dizayn, shahar va qishloq xo'jaligi qurilishi va boshqa kollej, litsey, bakalavriatura, magistratura talabari, arxitektorlar, qurilish injenerlari, yer shakllantirish mutaxassislari va barcha landshaft arxitekturasi bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan.

**BBK 38.58я73**

**UDK: 624.131**

**Taqrizchilar:** *A.S.O'rakov* — arxitektura fanlari doktori, professor;

*M.K.Ahmedov* — arxitektura fanlari doktori, professor, Sharq mamlakatlari xalqaro akademiyasining akademigi.

**ISBN 978-9943-10-370-2**

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2010.

---

## **II QISM**

**L.A.ADILOVA**

---

# **LANDSHAFT ARXITEKTURASI**

---

## KIRISH

«Landshaft arxitekturasi» atamasi ilk bor AQShda birinchi milliy bog'larning tashkil etilishi munosabati bilan yuz yildan ortiq vaqt ilgari paydo bo'ldi. Yevropaga bu tushuncha ancha kechroq kirib keldi. Ammo bu landshaft arxitekturasining tarixi qisqa ekanini anglatmaydi. Landshaft arxitekturasining rivojlanish yillarini tasavvur etish uchun landshaft arxitektorlari nima bilan shug'ullanishini va ularning bu kasbi arxitekturaning keng miqyosida qanday o'rinni egallashini tushunish zarur.

Hududlarni landshaftli tashkil etishning boshlanishi, o'simliklardan maishiy va davolash maqsadlarida foydalanish va sabzavotchilikning rivojlanishi bilan yaqin bog'liq bo'lib, u antik davrga kelib bog'dorchilik rivojlandi, o'rtalarda esa — bog'-park san'ati daramasiga yetdi. XIX va XX asr chegaralarida keng shahar va shahardan tashqaridagi maydonlarning obodonchilik va ko'kalamzorlashtirish vositalari bilan arxitektura rejalah va estetik tashkil etish faoliyati landshaft arxitektura deb atala boshladi.

Tabiiy muhit bilan taqqoslaganda bu faoliyat inson qo'li bilan yaratilgan muhit hisoblanadi. Biroq ta'kidlash joizki, arxitektorlar shakllantiradigan muhit sifat jihatidan har xil bo'lishi mumkin. Dastavval, bu sun'iy yaratilgan maydonlar muhiti bo'lib, ular atrof-muhitdan ko'p yoki oz darajada ajralgandir. Bu muhit eng xilma-xil binolar va inshootlardan, shu jumladan, yer osti, ko'chma va h.k. inshootlardan iborat bo'lishi mumkin. Binolar va inshootlar ichidagi devorlar va to'siqlar bilan bekitilgan bu barcha fazolar arxitekturaga tegishlidir.

Arxitektura vositalari bilan shakllanadigan muhitning boshqa birturi to'sib turuvchi konstruksiyalar ichiga olinmagan ochiq maydonlar hisoblanadi. Bularga parklar, bog' va skverlar, ko'chalar, xiyyabonlar (bulvarlar), umumfoydalanuvchi bog'lar, sohil bo'vlari, kvartal (guzar) ichi fazolari, tarixiy landshaftlar va boshqalar kiradi.

Ochiq fazolar diapazoni juda o'lkandir va ularning turlari ro'y-xatini cheksiz davom ettirish mumkin. Ochiq fazolar muhitini shakllantirish bilan landshaft arxitektura shug'ullanadi, ya'ni landshaft arxitektura, bu ochiq fazolar arxitekturasidir.

Landshaft arxitekturasining va uning eng muhim shoxobchasi bog'-park san'atining yorqin, o'ziga xosligi maxsus, tabiiy qurilish materialarining: o'simliklar, suv, yer, joy topografiyasini ham hisobga olgan holda foydalilaniganligi va hozir ham foydalilanishi hisoblanadi. Aynan ana shu materiallar ochiq fazolar muhitini shakllantirishda landshaft arxitekturasining asosiy ish qurollari hisoblanadi. Odatdagisi qurilish materiallari ham ahamiyatga ega bo'lsada, ular shakllantirilayotgan muhitga faqat qo'shimcha bo'ladi.

Xullas, landshaft arxitektorlari asosan tabiiy muhit bilan ishlaydi. Ayrim hollarda u tabiiy muhitga imkonli boricha kam aralashadi, boshqa hollarda, «sun'iy tabiatni» yaratadi, ya'ni arxitektura ijodi natijasi sifatida yuzaga keluvchi ochiq fazolarning to'liq yangi muhitini shakllantiradi. Bu ikki an'ana, ularning turlichay qo'shilishida landshaft arxitektura rivojlanishining butun tarixi davomida namoyon bo'ladi.

Landshaft arxitekturasini umumiy qabul qilingan arxitekturaviy amaliyat bilan taqqoslagandagi o'ziga xos xususiyati estetik va ekologo-insonparvarlik asosining boshchilik qiluvchi ahamiyatidir. Bunda yaratilayotgan muhitning funksional va texnik jihatlari ularning muhimligiga qaramay, bo'yusunuvchi o'rinni egallaydi. Bu sifat landshaft arxitekturasi san'atining bir turi, aynan bog'-park san'ati sifatida tushunilishiga asos bo'lди.

Shu bilan birga landshaft arxitektura sohasini hatto mutaxassislari tomonidan, ayniqsa, avvalgi davrlarga nisbatan qilinayotgan huqiqat bog'-park san'ati bilan cheklash noto'g'ri bo'lar edi. Yaqin vaqtlargacha bu ish bino va inshootlarning atrof-muhitni yaxshilash zaruriyatidan kelib chiqib, arxitektura ijodiyotiga qo'shimcha deb hisoblanar edi.

Uzoq vaqt davomida bu faoliyat hududlar obodonlashtirish deyilar edi. Odatda, bu ish bilan zarur kasbiy tayyorgarligi bo'lmagan yoki eng yaxshi holda ko'kalamzorlashtiruvchilar shug'ullanishgan va hozir ham shug'ullanib kelishmoqda. Biroq turli xil davrlarda shahar ochiq fazolar yaratish ishi bilan yirik arxitektorlar va shahar quruvchilari ham shug'ullanishgan. Masalan, landshaft arxitektura asoslariga: agoralar, forumlar va antik davrdagi piyodalar yuradigan ko'chalar, shuningdek, uyg'onish, barokko va klassisizm davrlaridagi haykallar hamda favvorular bo'lgan maydonlarni kiritish mumkin.

Avvalgi davrning landshaft arxitekturasining buyuk asarlari qatoriga Rimdagi Kapitoliy maydonini, uning zinapoyalari, tosh yotqizilgan ko'chalari, buyuk Mikelandjelo yaratgan haykallari bilan Peterburg sohillari va ko'priklarini, buyuk o'lkashunos Feltonning ijodini ya'bir qator boshqa arxitektorlarning asarlarini kiritish mumkin<sup>1</sup>.

Keyingi yuz yil ichida landshaft arxitekturasining faoliyat sohasi ancha kengaydi. Hozir unga yanada kengroq maydonlar kiradi. Masalan, shaharning alohida maydoniga nisbatan butun maydoni shahar qurilishi landshafti degan tushuncha bilan birlashtiriladi. Biroq shahar maydonini qamrab olish miqyosi bo'yicha uning landshaftini tushkil etilishi landshaft arxitektura doirasidan tashqariga chiqadi, bu faoliyatni endi landshaftli shahar qurilishi deb atash mumkin.

Shuningdek, shuni ta'kidlash kerakki, shahar, qishloq, texnik va rekreatsion landshaftlarning yanada katta yig'indisi *urbanizatsiya-*

<sup>1</sup> Vergunov A.P. va boshqular. Landshaft loyihalash.

*langan landshaftlar*<sup>2</sup> tushunchasiga kiradi. Bu holda urbanizatsiya-  
langan landshaftlar yer ustining umumiy landshaftiga kiradi. Ammo  
urbanizatsiyalangan landshaftlarning o'sishi natijasida tabiiy land-  
shaftlar qisman buziladi.

Bunda, agar tabiatdan tortib olingen landshaftlar o'rnida ko'ka-  
lamzorlashtirilgan hududlari balansi yetarlicha bo'lган yangi land-  
shaftlar (shahar yoki boshqa) yaratilmasa, u holda shahar va shahar  
tashqarisi maydonlarining ekologik balansi yoki ekologik aloqalari  
buziladi va shahar qancha katta bo'lsa, u shuncha ko'p atrof-muhit  
ekolgiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun ham landshaft arxitekturasining yanada global va-  
zifasi shahar va qishloq xo'jaligi hamda boshqa hududlarni o'z ichiga  
olgan keng hududlarning landshaft muhitini tartibga solish hisoblanadi.  
Bu yerda landshaft arxitekturasi arxitektura ijodiyotining uchinchi mu-  
him sohasi – *landshaftli rejalshtirish* bilan tuman rejalshtirishi<sup>3</sup>  
darajasida shahar qurilishini rejalshtirishi doirasida birikadi.

Landshaftli rejalashning farq qiluvchi jihatni katta hududlarning  
fazoviy muhitlarini tashkil etish hisoblanib, ularda vertikal o'lchan  
reja miqyoslariga nisbatan juda kichik bo'ladi. Bu darajada landshaft  
arxitektorining faoliyati iqtisodiy geografiya, tumanni rejalshtirish,  
ekologiya va bilimlarning bir qator boshqa muhim bo'limlari asos-  
larini bilishi samaralidir.

Zamonaviy globallashuv, tabiiy landshaftlarning qisqarishi va  
antropogen landshaftlarining muqarrar ortishi natijasida landshaft  
arxitekturasi arxitektorlarining odatdag'i faoliyati chegarasidan tash-  
qariga chiqdi. XX asrning o'talarida landshaft arxitekturasi mustaqil  
yo'nalish bo'lib ajralib chiqdi. Zamonaviy landshaft arxitekturasi  
faqat bog'lar va parklarni shakllantirish bilangina mashg'ul bo'lmay,  
balki shahar, qishloq va qishloqlararo maydonlarni ham hisobga ol-  
gan holdagi ochiq maydonlarning barcha turlari bilan ish ko'radi.

Shu munosabat bilan landshaft arxitektorlari inson bilan tabiat  
o'rta sidagi munosabatlarni tartibga solish uchun mas'ul bo'lib qol-  
moqda. «Ikkinch'i tabiat» – arxitektura landshaftlarining yaratilishi  
jamiyatning ehtiyojlari o'sishiga proporsional ravishda o'sib boradi.  
Zamonaviy tushunchada landshaft arxitektorlari inson va tabiat o'r-  
tasidagi munosabatlarni rostlarchi bo'ladi, deb aytish mumkin. Turli  
mamlakatlarda landshaft arxitekturasining rivojlanishi bir xil emasli-  
giga qaramay, uning kelajagi aniq – inson tabiatdan qanchalik ko'p  
foydalansa, landshaft arxitekturasi uchun faoliyat maydoni shuncha  
kattalashadi.

<sup>2</sup> Urbanizatsiyalangan (inglizcha: urban – shahar), ya'ni shaharniki yoki urbani-  
zatsiyalashgan landshaft – shahar landshaftining sinonimi.


<sup>3</sup> Tuman rejalshtirishi loyihibav shahar qurilishi faoliyatining yuqori sohasi, u  
shaharlarni loyjhalash va qurishdan farqli ravishda mamlakatning butun hududini yoki  
aloхida sohasini qamrab oladi.

## I QISM. BOG'-PARK SAN'ATI VA LANDSHAFT ARXITEKTURASI TARIXI

### 1.1. Qadimiy va antik dunyo bog'-parklari

Bog'-park san'ati tarixi minglab yillarni o'z ichiga oladi va ildizlari bilan qadim zamонlarga borib taqaladi. Birinchi bog'lar issiq mamlakatlarda, quyoshning intensiv yondiruvchi nurlaridan himoya qilish talab etilgan joylarda: Misr, Assuriya, Vavilon hamda Yaqin Osiyo-Eronda paydo bo'ldi. Ko'pincha bu bog'lar utilitar xarakterga ega edi.

**1.1.1. Misr bog'lari.** Qadimiy Misrda Nil daryosi suv tosh-qinlari yetib bormaydigan balandliklarda terrasali bog'lar tashkil qilinardi. Sug'orish va tuproqni oziqrantish sun'iy holda edi. Qazilmalar ko'rsatkichlari va qabr yodgorliklaridagi barelyeflar bir maydondag'i turli o'simliklarning joylashuvi va guruhlarga bo'linishi reja asosida amalga oshirilganini ko'rsatadi. Sug'orish manbalarining joylashishiga qarab, misrliklar o'z bog'lariga kvadrat yoki to'g'ri to'rburchak shakl bergenlar. Yirikroq va balandroq daraxtlarni to'siqqa yaqin, keyingi qatorda o'rtacha kottalikdag'i daraxtlar, eng past bo'yli o'simliklar esa bog'ning o'rtafiga atrofiga ekilgan (1-rasm va 1-rasmlar jadvali).



1-rasm. Qadimgi Misr bog'larining tarhi, er. av. 2160–2000-yillar:  
a – uy oldidagi bog', b – misrlik boyning bog'i.

Qadimdan misrliklar uchun daraxt muqaddas hisoblangan va har bir ibodatxona o'zining muqaddas daraxtiga ega bo'lgan.

Har bir bog'lar bilan yonma-yon uzumzorlar ekilgan. Uzum uchun ba'zi gumbazsimon shakldagi ayvonchalar pergolalar qurilgan. Yangi podshohlikda o'rmonlarning yetishmasligi ko'p sonli muqaddas daraxtzorlar orqali to'ldirilgan. Manbalarga ko'ra, katta ibodatxonalar juda yirik mulkka ega bo'lganlar. Eng taniqlilaridan Mentuxotep ibodatxonasi qoshidagi bog'lar (er. av. 2160–2000 y.) va malika Xatshepsut bog'idi (er.av. 1520–1500 y.). Yana malika Kleopatra to'kin-sochin bazmlar o'tkazadigan bog' (er.av. I asr) ma'lum. Kleopatra bog'lari Rim bog'-lariga namuna bo'lib xizmat qilgan.

Fir'avn Amenofis III ning lashkarboshlaridan birining Fivadagi qabr toshida tasvirlangan qadimgi Misr bog'lari to'g'risida tasavvur ma'lum. U bog'ning butun tarixini xuddi qush parvozidagidek tasvirlaydi. Bu baland devor bilan o'ralgan yerning kvadrat maydoni. Bog'ning bosh qismida simmetrik joylashgan uy turli xil daraxtlar xiyobonlari bilan soyalanadi: palma, anor, anjir, eben, limon (1-rasmning 2-tarxi va 1-rasmlar jadvalining 3-rasmi).

Misrlarining tasavvurlari bo'yicha palmalar xo'jayiniga shodlik, anjirlar – boylik va yashirin bilim, eben daraxti – boylik va baxt keltirgan. Bu daraxtlar misrlar uchun muqaddas hisoblangan. Bog' to'rt qismga bo'lingan. Bog'ning ochiq makonlari past bo'yli o'simliklar bilan o'ralgan hovuzga ega bo'ilgan. Bog'ning o'rta qismini uzumzor egallagan.

Chiroyli, simmetrik tarhni tahlil qilib, turli daraxtlarning diqqat bilan o'ylangan almashinishini, hovuzlarning nozik shakllarini ko'rib tan olish kerak-ki, o'sha davrda bog' san'ati tarixi ostonasida ratsional rejalahtirilgan bog'ning yuqori darajada rivojlanganini ko'rish mumkin.

Keyinchalik bog'-park san'atida qo'llanilgan simmetriya, go'zallikning va utilitarlikning uyg'unlashuvi kabi talablar Misr bog'larda o'sha davrlardayoq muvaffaqiyat bilan qo'llanilgan.

Misr bog'lari tekislik bog'lari bo'lib hisoblangan, ularda imoratlar arxitekturasi ikkinchi darajali rol o'ynagan. Lekin bog'larda tabiiy-iqlimiyl sharoitlardan kelib chiqib, hovuz va kanallarni ko'rish yetakchi o'rinn tutgan. Shahar muhiti landshafti yechimini eramizdan avval XV asrda namuna sifatida keltirish mumkin. Axetonning asosiy ko'chalarining ikki tomonida necha kilometrga cho'zilgan palma daraxtlari ekilgan. Bunday qadimiy xiyobonlar kompozitsion usuli namuna sifatida olindi va kela-jakda kengroq rivojlandi.

## QADIMGI MISR BOG'LARI


1-rasmlar jadvali



1-rasm. Misr shaharlari va saroylar kompleksining joylashuvi:  
a – Fir'avn Ramzes III saroyi, Medinet-Xabu, er.av. I asr; b – Karnakka kirish,  
sfinksler xiyoboni; d – Luksor, Ramzes III kolossi.



2-rasm. Xatshepsut malikasini saroyi. Er.av. 1520–1500 yil oldin:  
a – saroy rekonstruksiyasi; b – Xatshepsut haykali; d – saroyning hozirgi shakli;  
e – kolossalr; f – sfinksler xiyoboni; g – saroy ichida.



3-rasm. Misr bog'lari:  
a – misrlilikning boy uy bog'i; b – Fivadagi Amenonfis III lashkarboshining bog'i;  
d – bog' ko'rinishi.

**1.1.2. Assuriya-Bobil bog'lari.** Eng dastlabki bog'larning rasmlari shoh Saragon II ning hukmronlik davriga to'g'ri keladi (er. av. 1100 y.). U Ossuriyaning poytaxti Nineviya shahri ustida Dur-Sharrukin shahriga asos soldi, uni baland devor bilan o'radi, unda xett florasini hamda turli xil tog' o'tlarini ekdi. Dur-Sharrukindagi Saragon II saroyining bosh tarxi inshootning ulug'vorligi va bezaklarning boyligi bilan birga uyg'un holda yaxlit, yagona joylashtirilgan ichki hovlilarining ko'p xilligi bilan o'ziga diqqatni tortadi. Saroyning hovli bog'lari Misr bog'lariiga o'xshab hal qilingan (2-rasm. jad.1-rasmi).

Bobil Evfrat qирг'ог'ида, Tigr va Evfrat oralиг'ида joylashgan ulkan shahar bo'lgan. 1925-yil qazilmalari ko'rsatishicha Iroq-nинг poytaxti Bag'doddan 90 km uzoqlikda bo'lgan Vavilon tar-jimada «xudoning eshigi» ma'nosini anglatadi. U 490 km<sup>2</sup> may-donni egallagan bo'lib, hozirgi Londondan 3 marta katta edi. Evfrat qирг'ог'ида saroy joylashgan bo'lib, u ayniqsa, shoh Novu-xodonosor tomonidan bezatilgan, saroy yaqinida esa «osma bog'lar» joylashgan (2-rasm. jad.2-rasmi).

«Osma bog'lar» bir-birining ustiga chiqqan 20 ta terrasadan iborat bo'lgan. Quyi terrasa tomonlari 120 m li kvadrat poyde-vor bo'yicha joylashgan edi. Terrasalar qalinligi 1,5 m, eni 5 m li tosh xarsanglardan tashkil topgan bo'lib, ularni massiv ustun-lar ushlab turgan. Terrasalar yuqoriga piramidaga o'xshab qis-qargan. Eng yuqori terrasa 25 m balandlikka ko'tarilgan. Ham-ma qurilma ochiq' bo'lgan. Ustunlar tomonidan hosil qilingan galereyalar ichida rangli kafellar bilan bezatilgan va freskalar chizilgan grotlar joylashgan. Terrasalar osma zinalar bilan bog'-langan. Ustunlar ichida trubalar yashiringan bo'lib, ulardan osma bog'ni eng yuqori terrasasiga Evfrat daryosidan suv ko'-tarilgan. Terrasa plitalari qo'rg'oshin bilan quyilgan bo'lib, smola shimdirlig'an qamish yotqizilgan va ikki qator g'isht ohak bilan terilib, uning ustidan katta daraxtlar ham o'sishiga yetadi-gan darajadagi qalinlikda tuproq solingan. Bog'dagi o'simliklar xuddi tog'dagidek joylashgan.


Tekisliklardagi o'simliklar quyi terrasada, tog'niki yuqori terrasada. Yuqori terrasadan ariqlar kaskadi oqib tushgan. O'simliklar orasida havoni tozalaydigan favvoralar bo'lgan. O'simlik va gullardan iborat favvoralar bilan jonlantirilgan ulkan piramida xuddi havoda osilgandek tuyuladi.

## ASSURIYA-BOBIL VA ERON BOG'LARI

2-rasmlar jadvali



1-rasm. Dur-Sharrukin – Ossuriya (Xorsabod poytaxti), er. av. VII asr.  
*a* – Saragon saroyining rejasi; *b* – saroy; *d* – Saragon III saroyining kirishidagi qanotli ho'kiz haykali.



2-rasm. Semiramida «Osma bog'lar» rekonstruksiyasini shakllari:  
*a-d-e* – rekonstruksiya shakli; *b* – Ishtar darvozasi va Bobil rejasi;  
*g* – «Aleksandr» b/filmidan olingan rasm.



3-rasm. Sharq miniaturalaridagi «Paradiz» bog'lari:  
*a* – qulunlarga ov; *b* – qulunlar qurshovda.

**1.1.3. Qadimgi Fors (Eron) bog'lari.** Er. av. VI asrda Eron shohi Kir II butun ikki daryo oralig'ini Midiya, Lidiya, Falas-tin, Kichik Osiyo, Finikiya, Kavkaz ortini, er.av. 539-yilda esa Vavilonni bo'ysundirdi. O'sha davrlardayoq ov uchun hayvon-lar bilan bog'lar yaratila boshlandi. Kirning o'limidan so'ng uning ukasi Artakserks II «paradiz» nomli ajoyib bog' yaratdi (2-rasm. jad. 3-rasmi). Ov hayvonlari bilan to'la ulkan bog' tog' yonbag'rida joylashgan bo'lib, Kir unda o'zining 13 ming kishilik armiyasi ko'rigini o'tkazishi mumkin edi. Shohlar bog'-larda ko'riklardan tashqari katta xalq sayllarini ham o'tkazgan-lar.

Ksenofont hukmronligi davrida Kir II Sarda rezidensiyasida ilk paradiz bog'ini yaratgan. Tashrif buyuruvchilarda bog'ning bezatilishi, daraxtlarning simmetrik joylashuvi, to'g'ri xiyobonlar yuqori kayfiyat bag'ishlab ularni maftun qilgan.

Boshqa shohlar «paradizlarini» tasvirlay turib, Ksenofont ularning geometrik shaklini qayd etdi, u yerda dekorativ va mevali daraxtlar uyg'unlashgan, irrigatsiya tizimi mavjud bo'lgan. Bog'ning eng sodda yechimi ikki bir-biriga perpendikular yo'naliш bo'lib, ularning kesishgan joyida saroy, ayvon yoki fontanli hovuz joylashgan. Hovuzlar doimo ekinlardan balandda joylash-gan bo'lib, sug'orish imkoniyatini bergen. Eron bog'dorchilik san'ati butun Qadimgi Sharq bog'larini yaratishga ta'sir ko'rsatdi.


Dunyoning ko'p bog'lari – Turkiya, Ispaniyadagi Mavritan bog'lari, Qirimdag'i tatar xonlari bog'lari, O'zbekistondagi Temuriylar davri bog'lari va Hindistondagi Boburiylar bog'lari qadimgi sharq bog'dorchilik san'ati ta'sirida paydo bo'ldi.

**1.1.4. Qadimgi Hindiston bog'lari.** Hindiston sivilizatsiyasi buddizmni yaratdi, unda monastirlar huzurida bog'lar yaratish boshlandi. Daraxtlarga sig'inish hindlarning urf-odatlaridan biri bo'lgan. Har bir daraxt qandaydir Buddaga bag'ishlangan. Lekin hind yozuvlarida na bog'larning tarixi haqida, na ularning rangli bezatilishi to'g'risida gapiriladi, ammo qurbanliklarni va diniy bayramlarni tasvirlashda gullar eslatilgan.

Hindistonning qadimiy bog'lari ibodatxonalarining hovlilari-da yaratilgan hovuzlar bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, XI asrda Modxera shahrida ibodatxonaning hovuz-qudug'i atroflarida sayr qiladigan yo'lakchalar o'tqazilgan va hovuz atrofida kichik masshtabdagi ibodatxonachalar orasida dam olish joylari yaratilgan (2,3-rasmlar).



2-rasm. Madxera shahri ibodatxonasi: hovuz-qudug'i atrofsida landshaft tashkil etish.



3-rasm. Ahmadabod yaqinidagi Adalash mavzesining qudug'i: qirqim va tarh, XIV asr.


Hindiston ko'llarining suv ostida yuruvchi g'aroyib bog'lari ham shakllantirilgan edi. Buning uchun quruq qamishdan to'qilgan yengil «gilam» suv ustiga to'shalgan. Suv ostida o'suvchi turli o'simliklar tomirlari va loyi bilan ushbu gilam ustiga yozilgan.

Bu narsa qisqa vaqt ichida hosildor qatlamga aylangan. Unga tashlangan don tez orada o'sib chiqqan. Avloddan-avlodga o'tib kelgan bu suzuvchi bog' qatlami yangidan qo'shilgan cho'kindilar yordamida mustahkamlangan, asta-sekin pastga o'sib, suv tagida yotgan va yaxlit yer massasiga aylangan. Bu massaga tashqaridan tushgan turli cho'kindilar uning sathini suv yuzasidan ko'tara borgan va natijada inson qo'li bilan yaratilgan quruq sun'iy yer qatlami hosil bo'lgan. Bu qatlam ustida nafaqat bog'lar, balki uylar, imoratlar ham qurish imkonini bergen.

**1.1.5. Qadimgi Xitoy bog'lari.** Bu mamlakat bog'lari to'g'-risidagi turli xil yozma manbalar rasmlar va boshqa tasvirlarda bizgacha yetib kelgan birinchi ma'lumotlar er.av. XII asrga taalluqlidir. Gap qadimgi Xitoyning dastlabki bog'laridan birini yaratgan Xitoy hokimi Cheu to'g'risida ketmoqda. Cheudan keyin hokimiyat tepasiga kelgan Mu Uang turli xil inshootlari bilan hashamatli bog' yaratdi. Imperator Szin Xi Xoang o'zining 41 yillik hukmronligi davrida 1000 ga dan ortiq maydonli ulkan bog' yaratdi va unda o'zi bosib olgan saroylar sonicha saroy qurdirdi.

Xitoy eposi «Ashulalar kitobi» da imperator Ven Vang tomonidan er.av. 1150-yilda 375 ga maydonda yaratilgan «Bilimlar bog'i» to'g'risida gapiriladi. O'sha yerda imperator Shi Xang Ti bog'i ham eslatiladi. Bog'ning chegaralari 120–130 km ni tashkil etgan.

Eramizdan avvalgi 197-yildan boshqa hukumdor U Ti 3000 ga maydonda boshqa ulkan bog' yaratdi. Ammo, qadimgi Xitoy bog'lari tarixi to'g'risida hech qanday haqqoniy ma'lumot bizgacha yetib kelmagan, shuning uchun Xitoy bog'dorchilik san'atlarining bu tomoni haqida tarixan ancha keyingi namuna-larga asoslanib gapirishga to'g'ri keladi (4-rasm).




4-rasm. Xitoydagagi Su Chjou shahrining «Lyu» bog'i.

**1.1.6. Antik Yunon bog'lari.** Yunonistonning tarixiy arxaik va antik madaniyati besh asosiy davrga ajratiladi: Krito-mikenlar davri (Er. av. XX–XIII aa.), Gomerlar davri (Er. av. XII–VIII aa.), Arxaik davri (Er. av. VIII–VI aa.), Klassik davri (Er. av. V–IV aa.) va Ellistik davri (Er. av. III–I aa.).

Tarixda Krito-miken madaniyati davridan asosiy me'morlari bo'lgan afsonaviy Labirint saroyining tashkil etilishi yozmalari qolgan. Ularga qaraganda Labirintning ichki hovlilarida Misr bog'lariga o'xshagan saroy bog'lar yaratilgan edi (3-rasmlar jadvalining 1-rasmi).

## ANTIK YUNON BOG'LARI

3-rasmlar jadvali



1-rasm. Krito-Miken davrinig Labirint saroyi, er. av. XX–XIII asrlar:  
*a – Labirint va uning bog'lari rekonstruksiyasi; b – Labirint uylarining shakli va rejasi;*  
*d – Labirint rekonstruksiyadan so'ng.*



2-rasm. Afinadagi Akropol rejasi va yuqoridan ko'rinishi.



3-rasm. Antik Yunon villalari bog'lari:  
*a – villa bog'ining shakli; b – uy bog'idan qolgan holati; d – Gerkulanum,*  
*Telesoforus villasining bog'i.*

Arxaik davri qurilishlari shahar-mamlakatlar — «polis»lar bilan yakunlandi, ularidan eng kattasi Afina shahri edi (5-rasm). Afinadagi antik davrdan qolgan me'morliklaridan asosiysi Akropol kompleksini joylashishi 3-rasm jadvalining 2-rasmida ko'r-satilgan.

Greklar Sharq hukmdorlarining ajoyib bog'larini birinchi marta ko'rganda hayratga tushdilar. Antik davrga kelib greklar madaniyati Sharq bog'lari bilan tenglasha oladigan biror bir narsa yaratmagan edi. Er. av. VIII asrda Alkinoy davrida bog'lar kam uchrardi.

Er. av. V–VI asrlardagi klassik davrda yoshlarni tarbiyalashga katta ahamiyat berilgan. Asta-sekin gimnastik mashqlar uchun mo'ljallangan bog' turi rivojlana bordi, unda o'smirlar jismoniy mashqlar bajarishi mumkin edi.



5-rasm. Afina shahrining tarixiy markazi.

Namunali yoshlar maktabi Akademiya bo'lib, uning qoshida Akademiya bog'i yaratilgan edi. U suv bilan ta'minlangan, otli va piyoda sayrlarga mo'ljallangan xiyobon soyali daraxtlar bilan o'ralgan edi. Chinor daraxtlar soyasida o'z o'quvchilarini o'qitar edi.

Elladaning jamoat bog'lari to'g'ri chiziqli yo'lak va xiyobonlarga ega edi. Palma, chinor, pista va zaytun daraxtlari to'g'ri guruhlar yasab, simmetrik tarzda joylashar edi. Daraxtlar orasida xiyobonlarda, yo'laklar oxirida haykalchalar, vazalar joylashgan edi, favorolar otilib turardi. Hovuzlar, ustunlar, marmar zinalar, ayvonlar «litsey bog'ini» bezab, daraxtlar turli


qurilmalarni o'rab turardi. Shularning hammasi — daraxtlar guruhi, yashil maydonchalar, zina va ustunli tepaliklar, gulli guldonlar va hovuzlar yaxlit uyg'unlashgan suratni tashkil etardi (3-ms. jadvali).

Eng birinchi jamoat bog'laridan bo'lib qahramonlar, shahar-larning asoschilarini va boshqa buyuk kishilarga atab ekilgan muqaddas daraxatzorlar edi. Bu joylar geroonlar deb atalgan. Bundan boshqa muqaddas joy — nimfeyalar edi. Italiya daraxtzoridagi nimfeyada kompozitsiya markazi badiiy ishlangan hovuz bo'lib, unga baland qoyadan buloq suvi otilib tushgan. Hovuzning atrofida doira bo'ylab qora olxa o'sgan. Qoyaning tepasida mehrob joylashgan bo'lib, unda nimfalarga qurbanliklar keltirishgan.

Keyinchalik Rimda va undan ham keyinroq Uyg'onish davrida nimfeyalar kompozitsiyasi sevimli bog'dorchilik motivi sifatida keng tarqaldi: suv qurilmalari, o'simliklar bilan o'ralgan soyali grot (6-rasm).



6-rasm. Mark Lukretsiy bog'i.  
Pompeya. Er.av. I asr.



7- rasm. Asos shahrining agorasi  
Nimfeya. Er. av I asr.

Landshaft arxitekturasining eng qadimgi obyektlari odeonlar — ochiq teatrlar edi. Ular ulkan o'lchamlarga ega bo'lib, polislarning hamma aholisini joylashtirgan.

Gretsiyadagi eng katta teatr Migalopl bo'lib, 44 ming tomoshabinni sig'dirgan. Eng chiroqli teatrlar — Eti davridagi (er.av. IV asr) va Akropolning janubiy qiyaligida joylashgan Afinadagi Dionis teatri (3-rasmlar jadvalidagi 2-rasm). Teatrlardan tashqari qoyalarga o'yib tomoshabinlar uchun tribunalari bo'lgan stadionlar qurishgan.

Ko'kalamzorlashtirish ishlarining boshlanishi Kimon davriga – greklar eronliklar bosqinidan keyin o'z shaharlarini tiklash vaqt-lariga to'g'ri keladi. Agoralar – kichik o'lchamli shahar jamoat maydonlarida chinorlar ekilgan bo'lib, ular atrofi kolonnadalar bilan bezatilgan kichik jamoat bog'lari tashkil etilgan (7-rasm).

Qishloq hayotidan uzoqlashib ketilgani ko'pchilik boy odamlarni qishloq tabiatini shaharga ko'chirishga va shundan kelib chiqqan holda bog'larning o'lchamlarini va sonini ko'paytirishga majbur etdi. Aleksandriyada jamoat va shoh bog'lari shahar hududining to'rtdan bir qismini egallagan edi. Shahar ichidagi va tashqarisidagi bog'lar o'zaro bog'liq edi (3-rasmlar jadvalining 3-rasm).

Antioxiya Aleksandriyadan ham ko'proq o'zining bog'lari bilan mashhur edi. Shahar quyidagicha rejalashtirilgan edi: bosh ko'cha uzlusiz tortiqni tashkil etardi, uning bir tomonida uylar, ikkinchi tomonidan esa tog'ning etagigacha bog'lar yondoshgan bo'lib, ular ayvon va favvoralar bilan bezatigan edi. Gretsiya bog'larida Misrdagiga nisbatan yangilik ularning terrasa, bos-qichli yechimi, ancha erkinroq kompozitsiya, dekorativ, yashil massalarning, bezaklarning ko'pligidir. Keyinchalik bu kompozitsion prinsiplar antik Gretsiya shaharlarini ko'kalamzorlashtirishga ta'siri juda katta bo'ldi.

**1.1.7. Rim imperiyasining bog'lari.** Dunyoning yangi xo'jayini Rim Gretsiyani bosib olgandan so'ng, uning yuqori madaniyatidan hayratga tushdi. Rimliklar Gretsiya fani va san'atiga taqlid qila boshladilar. Ular Elladada asos solingen arxitektura klassik uslubini tasdiqladilar va bog'dorchilik san'atini o'zlashtirdilar.

Triumviratlar davrida (er.av. II asr) uzoq yurishlardan qaytgan legionerlar ortidan, Rimga hamma bosib olingen mammakatlardan har xil boyliklar oqib kela boshladi. Italiya shaharlari er.av. II—I asrlarda aholiga to'lib ketgan edi. Shuning uchun, urush vaqtida boyib ketgan sarkardalar va patritsiylar, shahar tashqarisida yashashga intilib, Rim shahar tashqarasida bog'lar bilan o'ralgan villalar qurishgan (8-rasm).

Rim villalarini ikki asosiy turga bo'lish mumkin: qishloq yoki xo'jalik villalari – **rustika** va shahar yoki ko'ngil ochar **urban** villalar. Yana **fruktuariy** villalari ham keng tarqalgan edi, ularning asosiy elementi bo'lib mevali bog' xizmati qolgan. Imorat va bog' arxitektura qurilmalari, terrasalar, katta zinalar, lavr va chinorlar tarkib topgan to'g'ri xiyobonlar orqali bir-


lashtirilgan. Rim imperiyasi davri bog'-park san'ati ichida eng mashhuri Tiburdagi imperator Adrian villasi (er.av. 114–138 yillar) hisoblanadi (4-rasmlar jadvali, 2-rasm). Shu davr villa-larini Kichik Pliniy villasiga qarab ko'z oldiga keltirish mumkin (9-rasm). Villa bog'lari 3 qismidan iborat edilar: sayrgoh, o'tish va paradiz bog'i. «Paradiz» Rimda xuddi eronliklarda gidek ov qilish uchun emas, balki hayvon va qushlar orasida sayr etish uchun mo'ljallangan edi.



8-rasm. Antik Rim atrofida joylashgan villa bog'lari:  
1-13-shahar atroflarida villa bog'larining joylashuvi.



9-rasm. Kichik Pliniy villasining shakli va bog'i.



10-rasm. Antik Rim Tuskum villasining ippodrom va paradiz bog'i.


«Paradiz» rimliklarda «ajoyib bog'» ma'nosini anglatgan. Bog' sayr qismidan — terrasa va zinadan boshlangan. To'g'ri simmetrik yo'lka va xiyobonlar plitalar bilan qoplangan bo'lib, ularning atrofiga kichik daraxtlar va buta guruhlari ekilgan (10-rasm). O'rta ochiq qismini gullar egallagan. Bog'ning o'tish qismi ippodrom deb atalgan, butalar bilan o'ralgan xiyobonlarda zambil yoki otlarda sayr qilishgan. Sayrgoh va bog'ning o'tish qismi paradiz parki orqali birlashgan, u baland to'siqli xiyobonlari bor o'rmon ko'rinishida bo'lgan.

## ANTIK RIM VILLA BOG'LARI

4-rasmlar jadvali



1-rasm. Antik Rim davridan qolgan arxitektura komplekslari:  
a — Rimdagi imperatorlar forumi, er. av. II asr.; b — Kapitoliy bo'risi — Rimning  
timsoli, d — Kolizey.




2-rasm. Imperator Adrianning Tiburdagi villa bog'ining hozirgi  
shakli, er. av. 114—138 y.


Rimda imperiya davri boshlanishida keng jamoat bog'lari ham tashkil etilgan. Bunda shaharliklarning ko'ngil ochishlari uchun qurilgan komplekslardan biri Agrippa tomonidan qurilgan **Mars maydonidir**. Mars maydonida sirk, teatr, portik, termalar dan tashqari hovuz, favvoralar, cho'milish va boshqa ko'ngil ocharliklar uchun katta ko'l bo'lgan. Saylghoh sifatidagi kichik jamoat bog'iga misol bo'lib Liviya porti xizmat qilishi mumkin.

Bu bog' 115 ga 75 m maydonli, o'rtafiga chuqurlashgan parterga ega bo'lgan. Parterga eni 20 m li zinapoya olib borgan, uni yarim dumaloq va to'g'ri burchakli botiqqliklari bo'lgan bog' o'rabi turgan. Parter kolonnada bilan o'ralgan. Parterning markazida hovuz bo'lgan. Bog' to'g'ri burchakli maydonlardan tashkil topgan, xiyobonlar pergolalar bilan bezatilgan (11-rasm).

Shahar uylarida odatda 2 ta bog' bo'lgan: bittasi kichik hovili — **kavediy**, u berk galereyalar bilan o'ralgan va unda platanlar ekilgan; boshqasi katta uy bog'i — **peristil** (12-rasm).



11-rasm. Antik Rimni jamoat bog'i.



12-rasm. Kavediy va perestil bog'i.

Peristilni ustunlar, haykallar va vazalar o'rabi turgan. Yetarli yer maydonlariga ega bo'lmagan ko'p rimliklar tomlarda bog' tashkil etishgan. Bu tomdagi bog'larda ba'zan hatto kichik favvoralar ham bo'lgan.

Shunday qilib, qadimgi Rimning bog' san'ati 3 ta yo'nalish bo'yicha: turar joylar qoshidagi atrium peristil ko'rinishidagi bog'lardan, shahar tashqarisidagi villalar va shahar jamoat bog'-laridan tashkil topgan va rivojlangan. Bog'ning yaratuvchilari markaziy inshootning asosiy o'qini turli ko'rinishlari ochilishini hisobga olgan holda bo'rtiradigan kompozitsiyani ishlab chiqdi-

lar. Qadimgi Rimda bog'-park san'atining o'ziga xos uslublari Italiya relyefi, tabiatni va iqlimining xususiyatlaridan kelib chiqib, melioratsiya va gidrotexnik inshootlarning qo'llanishi, parkni paydo bo'lishi uchun tepaliklarni terrasalash, gulli parter va haykallarni qo'llash paydo bo'ldi.

## 1.2. Ilk o'rta asrlar bog'-park san'ati

### 1.2.1. Yevropailk feodalizm davrining bog'-park san'ati

Vestgotlar tomonidan talangan Rim qulaganidan so'ng V—XV asrdan Yevropada o'rta asrlar davri boshlandi. Hamma uchun majburiy xristian dini hukmronlik qilgan Cherkov dogmasi bo'lajak qabr orti hayotiga ishonch inson fikridan ustun edi. O'zaro urushlar ham bog' san'ati rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. Feodallar mudosaa maqsadida mustahkam devorlar bilan o'ralgan qo'rg'onlar qurbanlar (13-rasm va 5-rasmlar jadvali).




13-rasm. O'rta asr shaharlari:  
a — Praga o'rta asrlarda; b — Totma shahri; d — Belgorod shahri.

Din ahillari monastirlar qurganda va shaharlar qurilganda ham shunday qilishgan. Qo'rg'onlar monastirlar va shaharlarda aholi zichligi juda yuqori bo'lgan, bog'lar uchun ochiq maydonlar qolmagan hisob. Lekin shu holda ham bog'lar yaratilgan. O'rta asr bog'i kichik o'lchamli, regular, maydoni kvadrat va to'rtburchaklarga bo'lingan bo'lgan.


Cherkov badiiy ijod yo'nalishi landshaft san'atida dekorativ elementlarga kam ahamiyat bergen holda belgilab bergen. Shuning uchun monastir va boshqa bog'lar asosan utilitar xarakterda bo'lgan (5-rasmlar jadvali). Bog'larda dorivor o'simliklar va meva-chevalar yetishtirilgan. Ularni ma'lum darajada botanika bog'chasi, deb hisoblash mumkin.

## MONASTIR VA QO'RG'ON BOG'LARI

5-rasmlar jadvali



1-rasm. O'rta asr bog'lari va labirintni bog'larga ko'chirishi:  
a - monastirning labirint bog'i; b - cherkovlar ichida chizilgan labirint;  
d - qirol hovlisidagi labirint.



2-rasm. Olmoniyaning o'rta asr bog'lari:  
a - monastirning ko'kalamzorlashtirish ishlari; b - monastir hovlisidagi kluator bog'i;  
d - qo'rg'on bog'lari, Gans Bol, 1586-y.

O'rta asrlar monastirlarida dekorativ o'simliklar asosan yopiq hovlida – **kluatrlarda** yetishtirilgan (5-ras. jad. 2-rasm). Kluatrlarni Rim peristil hovlisiga o'xshab o'raganlar va bezaganlar. Markazda to'g'ri yoki diagonal kesishuvchi yo'laklar hovli maydonini oddiy geometrik shakkarga bo'lganlar. Ibodatxonalarida tizzalab yurish natijasida **labirint** paydo bo'lgan (5-ras. jad. 1-rasm).

Labirint shunday maydonki, qirqilgan butalar bilan ajratilgan, ataylab chalkashtirilgan yo'laklardan iborat. Odatda, uni kvadrat yoki ko'pburchakka to'g'rilashgan.


O'rta asrlar Yevropa bog'-park san'atining o'ziga xos xususiyatlari: ichki bog'lar tarxining geometrikligi, oddiy daraxtlar va daraxtlarga shakl berish, labirint, san'atlar sintezining feodal tipi, ya'ni har bir san'atga xos bo'lgan xususiyatlarini bostirib, umumiy g'oyaga, simvolikaga bo'ysundirish.

### 1.2.2. Ispaniyaning arab bog'lari


Jahon bog'-park san'atining rivojlanishida VII asrda Arab Xalifaligining tashkil topishi muhim rol o'ynaydi. VIII asrda yanada rivojlangan, bizning kunlargacha yetib kelgan arab bog'-park san'atining namoyondalaridan bo'lib, XI–XII asrlarda arablar tomonidan yaratilgan «Ispaniya bog'lari» mashhurdir. Bu bog'larni Yevropada «Mavritaniya bog'lari» deb atashgan. Arab bog'-park san'atining eng mashhur asarlari Kordova, Toledo, Sevilya va Granadada joylashgan. Granada amirlari boy saroyini Alhambr (Qizil uy)ni – 1252-yilda qurishni boshlaganlar va qurilish 100 yil davom etgan (14-rasm). Shu davrda uning yonida Heneralif bog'i tashkil etilgan (6-rasmlar jadvali va 15-rasm).

Alhambra ansambliga kirish portal va daraxtlar qatori bilan bezatilgan. Portalning orqasida ansamblning asosiy hovlisi (47x33 m) joylashgan Mirt hovlisidagi hovuz ikkita oddiy favvara bilan bezatilgan, jonli butalar yuqorida chiroyli ko'rinih turadi. Hovli alebastrdan qilingan kolonnalar bilan bezatilgan, hovuz suvida sokinlik namoyon etadi. Hovli orqasida Sherlar hovlisi, tosh plitalar yotqizilgan. Bu hovli tor kanallar va markazda favvara bilan bezatilgan. Hovli yengil arklar va kolonnalar bilan o'rangan. Bog'da oltita apelsin daraxti o'sib yotibdi. Favvoraning pastki qismini o'n ikkita marmar sher o'ragan.

Uchinchi hovli bog'i Daraqs yoki Panjara bog'i deb atalgan. Bu bog'da atirgullar, jasmin, olendar va apelsin daraxtlar o'sadi (6-rasm, jad. 1,2-rasmi).



14-rasm. Alhambra saroyi bog'larining tarhi va qirqimlari.



15-rasm. Heneralif bog'larini tarhi.


Heneralif bog'i (tarjimada Me'moriy bog') Mavritan amir-larining yozgi rezidensiyasi bo'lgan. U tepalikda Alhambradan 150 m tepaga ko'tariluvchi terrasalar shaklida joylashgan (15-rasm va 6-ras. jad. 1,3-rasmlari).

Oq marmarli suv to'ldirilgan uzunligi 40 m bo'lgan kanallli hovli bor. Kanalning ikki tarafidan suv favvoralari otilib turilgan. Kanalning har bir tomonida nuqta-nuqta shaklida o'tkazilgan gullar o'sgan, bu gullar yil fasllariga qarab yoki bog' egasining ko'ngliga qarab o'zgartirib turilgan. Kanal atrofidagi ikkinchi qator butalar (magnoliya, jasmin va boshqalar) joylashgan. Kanal uchinchi qatorida esa ochiq muhitdan iborat baland devorlar bo'lgan.

Arablar Preiney yarim orolidan ketganidan so'ng arab arxi-tekturasi an'analari saqlanib qolib, muderax stili nomini olgan. Arab bog'-park san'atida quyidagi xarakterli xususiyatlarni ko'rsatish mumkin: yopiq muhitda turli to'siqlarni umumiy kompozitsiyunga faol holda geometrik rejalashtirish; bo'ysundi-rligan salqlarning bog'-park san'atini assimilatsiyasi; dekorativ qurilmalar (haykal, balustradalar)ning cheklangan qo'llanishi; omumbuning asosiy elementlari sifatida relyef (terrassalar), o'simliklar (ketish) va suv (suv qurilmalarining nozik yechimi); o'simliklarning individual xususiyatlarini hisobga olish.

## ALHAMBRA VA HENERALIF BOG'LARI

6-rasmlar jadvali



Ispaniyaning Granada shahridagi Alhambra va Heneralif bog'lari:

Alhambra: 1 — saroyning ko'rinishi; 2 — saroyning arxitekturasi va bog'lar rejasи;  
3 — uzun kanal hovlisi; 4 — Mirtalar hovlisi; 5 — Sherlar hovlisi; 6 — Dorado hovlisi;  
7-8 — Xeneralif saroynining bog'lari.


### **1.3. Yevropaning Uyg'onish, Barokko va Klassisizm davrlaridagi bog'-park san'ati**

#### **1.3.1. Italiyaning terrasali bog'lari**

O'rta asrlar o'rniga «uyg'onish davri» keldi. Italiyada burjuziyaning tez o'sishi XVI asr boshlarida uning Toskaniya yirik shaharlarida ko'pchilikni tashkil etishiga olib keldi. Ayniqsa, Florensiyada Italiyaning yirik sanoat markazida uning o'mi kuchli edi. Bir vaqtda san'atning barcha turlari, shu bilan birga landshaft arxitekturasi ham rivojlandi.

Florensiya villa bog'lari Italiya bog'-park san'ati rivojlanishida muhim rol o'ynadi. O'rta asrlarda yopiq va sxematik hovli kompozitsiyasi o'rniga hayotsevar, tabiat bilan bog'langan bog' shakli yuzaga keldi. Dastlab villa bog'lari yagona kompozitsion ma'noga ega bo'lmagan. Bunday xulosaga Boboli villasining tarxiy yechimiga qarab kelish mumkin. Villada yagona tarxiy yechim yo'q bo'lib, parkning har bir hududi alohida tarxiy yechimga ega. Bu park hududining har xil vaqtda qisman o'zlashtirilganidan darak beradi (16-rasm).

Kechroq davrda shahar tashqarasidagi villa Florensiya badiiy an'anularini davom ettirgan Rimda yanada rivojlandi. Villaning so'zlik ahamiyati ikkinchi darajaga ko'chdi yoki umuman yo'qoldi.




16-rasm. Boboli villasi bog'larining tarhi.

Yaxlitlik to'g'risida taassurot tug'diruvchi yangi uslublar paydo bo'ldi. Imorat landshaft bilan aniq bir kompozitsion bog'liqlikda qo'yilib, arxitektura bog'lari yanada keng tarqalgan.

Endi bog' makoni alohida ajralgan bo'laklarga, xuddi Boboli bog'iga o'xshab bo'linmaydi. Rim bog'larida bo'lingan qism-larning kompozitsion bog'liqligi seziladi, ular yagona o'qqa birlashadi va bo'ysunadi.

Uyg'onish davridagi Lante, Karparolla va boshqa villalarda, terrasalarga bo'lingan qismlarda alohida bog'lar qurishgan va bir-biri bilan amfilada prinsipi bilan kompozitsion bog'lanadi (17-rasm va 7-ras. jad. 1-rasmi va 8-ras. jad. 7-rasmi).




17-rasm. Villa Lante terrasalarida joylashgan bog'lar.


Italiya bog'i va parklari qurilishiga arxitektor va rassomlar Bramante, Rafael, Palladiolarning ijodi katta ta'sir ko'rsatdi va villa bog'larida yanada sifatli kompozitsiyalar paydo bo'ldi.

Bunday villa bog'iga misol bo'lib Tivolidagi eng go'zal villalardan biri D' Este villa bog'i kompozitsiyasi xizmat qilishi mumkin.

Bog' muallifi Pirro Ligorio Adrianning mashhur villasi o'rnda hashamat va tantanavorlikni (Qadimgi Rim inshootlariga xos bo'lgan) tiklashga urinib ko'rgan (18-rasm; 7-ras. jad. 4,5-rasmlari va 8-ras. jad. 6-rasmi).




18-rasm. Villa D'Estening tarhi.



19-rasm. Aldobarandi villasi va terrasalari bog'ları:  
bosh tark va bog'lar o'qidan o'rgan  
qirqini.

## ITALIYANING VILLA BOG'LARI

7-rasmlar jadvali




Italiya Uyg'onish davrining villalari:

- 1 — Lante villasi rejası;
- 2 — Lante villasi kaskadi;
- 3 — Karparolla villasi rejası;
- 4 — D'Este villasining dengiz tomonidan ko'rinishi;
- 5 — D'Este villasidagi «Rim tantanasi» fontani.

## ITALIYANING VILLA BOG'LARI

8-rasmlar jadvali



Italiya villa bog'larining bugungi kundagi ko'rinishi:

1 — suv ostida bog'cha; 2 — atriy hovlisi; 3 — Borgeze villasining bog'i; 4 — Lante suv osti xiyoboni; 5,7 — Garsoni villasi; 6 — D'Este bog'idagi qirol kaskadi; 8 — villa bog'i; 9 — topiar usulda qaychilangan samshit daraxtlari; 10 — Boboli bog'i.

1530-yildan boshlab xuddi arxitekturadagidek Barokko stili tog'ildi. Italiyadagi barokkoning eng taniqli villalaridan Borgoze yu Aldobarandini (1598–1603-yillar) villalarini ko'rsatish mumkin. Aldobarandi villasining arxitektori Djakomo Della Porta, bog' muallifi Djovani Fontana edi (19-rasm).

Barokko bog'ining kompozitsiyasi quyidagi tamoyillar asosida qurilgan: fazoviy yechimlarning atayin murakkablashtirilgani, kutilmagan effektlar, nozik estetizm va uslub hamda shakllarning dekorativ stilizatsiyalashgan deformatsiyasi, makonni shakllantirishdagi erkinlik. Barokko stili o'zgaruvchan perspektivalar dinamikasini, yorug' va soya kontrastidan foydalanishni, qirqilgan ko'kalamzorlar va kiparislarning qalin o'tkazilgan qatorini, tuykallarni joylashtirish, parterni murakkab rasmi shakllar va arbosklar bilan bezatishni talab qilgan. Bu davr bog' yaratuvchilar fontanlar va kaskadlardan rangtasvirli bezatish usulidan ustalik bilan foydalanib, san'atlarning o'ziga xos xususiyatiga erishganlar.

### 1.3.2. Fransiyaning muntazam parklari


Fransiyada uyg'onish davri XV asning 2 yarmidan XVIII asrning boshigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Fransiya qirollari o'rta va mayda dvoryanliklarga va shahar burjuazlariga tayanib, mamlakatning siyosiy qo'shilishiga barham berdilar. Italiyaga harbiy yurishlar davrida fransuzlar Italiya Uyg'onish davri madaniyati u'sinda bo'lganlar. Bu ta'sir Fransuz bog'-park qurilishida aks etdi.

Fransiya landshafti asosan tekisliklardan va bargli daraxt-jordan iborat bo'lgani uchun Fransuz park quruvchilari joyning kichik past balandliklaridan foydalanganlar, shundan **boulingrin** va **vertiyugaden** kabi xarakterli uslublar kelib chiqqan. Boulingrin, ya ni gazonning pastki qismi tuproqning bir xil ko'rinishini buzg'an. Fransuz parklaridagi vertiyugaden esa Italiyadagi amfiteatr rolini o'yagan. Unda kompozitsion o'jni yarim doira yashil butalar tugallaydi, unga kichik terrasalar olib keladi, eng yuqoriisi ma tuvakkardagi o'simliklar bilan bezatilgan.

Fransuz parklarida saroy yoki uy oldidagi asosiy joy parterga aycilgan, u yuxlit yoki qirqilgan gazondan iborat bo'lgan (9–10 oyndar jadvallari). Ba'zan parterga gullar o'tkazilgan yoki qo'shilgan daraxtlar ekilgan yashiklar qo'yilgan. Parkning eng katta qismini bosketlar, ya ni yashil teatrlardan labirint sifatida tuydalanishi mumkin bo'lgan. Yopiq bosketlardan tashqari ochiq skinalar – kunkos ham tashkil etilgan.

## VO LE VIKONT PARKI

9-rasmlar jadvali




Vo Le Vikont saroyi parki:

1 – suv ustidagi saroy; 2 – Satir fontani; 3-5 – yashil va gulli parterlar; 6 – baliq haykali; 7 – nimfa; 8 – Vo Le Vikont saroyi va atrof landshaftining ko'rinishi.

## VERSAL PARKI

10-rasmlar jadvali



Versal saroyining parki:

1-3 – Versal saroyining ichkari va tashqari ko'rinishi; 4-6 – gulli parter va xiyobon qaychilangan sausibi va haykallar bilan bezatish; 7,10 – «Apollon» favvoralar; 8 – Apollon groti «Apollon parilar atrofsida» haykal kompozitsiyasi; 9,11,13 – «Latona» parilar; 12,14 – gulli va yashil parterlar; 15-17 – «Yoz», «Kuz» va «Flora» favvoralar.

XVII asrning o'rtasida bog'-park san'ati park qurilishi ustasi Andre Lenotr (1613–1700-yillar) ijodi bilan bog'liq. O'zining uzoq umri davomida Lenotr klassisizm, «arkitekturaviy» stilida quyidagi parklarini tuzdi va qayta tikladi: Vo le Vikont (9-rasmlar jadvali), So va Medon, Shantili va Shuazi, Ninon, Versal, Marli, Sen-Klu, Parijdagi Emkat dalalari va Tyuilri.

Lenotr ijodining eng yorqin namunasi esa Ludovik XIVning Versal rezidensiyasi parki bo'lgan (10-rasmlar jadvali). Bu park nafaqat bog'-park san'atiga, balki shaharsozlikka ham katta ta'sir ko'rsatdi. Bu park me'morchilik, haykaltaroshlik va bog'-park san'atlarining ajoyib sintezidir. Lenotr park kompozitsiyasini «uch» asosiy nurda rejalashtirdi (20-rasm). Shahar tomonidan ham uch nur yo'nalgan yo'llar Versal saroyi yuzasida joylashgan maydonning Lyudovik XIVning haykaliga olib keladi.

Uch nur kompozitsiyasi katta kanal tepasida uchrashadi va parkni uch qismga bo'ladi: saroy yuzasidagi parterga, asosiy nurni ikki tomonlariga joylashgan bosketlarga va ko'kalamzorlarga. Asosiy nuring atrosida juda katta yashil gilam (25x330) loyihalangan.




20-rasm. Versal parkining rejasi, parter va bosketlari.

U gilam Apollon basseyningacha davom etadi. Apollon basseynidan so'ng Katta kanal boshlanadi va uning uzunligi 1600

m, eni esa 120 m. Lenotr Katta kanal o'qini shunday rejalash-tilganki, kanal suviga quyosh nurlari kun bo'ylab tushadi.

Parkda juda ko'p ajoyib va katta suv parterlar, favvoralar, bosketlar va haykallar loyihalangan (21-rasm). Ulardan eng kat-talari saroy oldida joylashgan «Neptun» suv-oynali parter, Katta kanal o'qida joylashgan «Appollon» va «Latona» favvoralar, parkni har xil qismlarida joylashgan «Yoz», «Kuz», «Flora» va boshqa fontanlar, oranjereya oldidagi yashil parterlar, «Suvli organ», «Qirol» bosketlar va haykallar (20–21-rasmlar va 10-rasmlar jadvali).



21-rasm. Versal bosketi - «Suvli organ».

### 1.3.3. Angliya va Germaniya muntazam parklari


Fransuz parklarining regular kompozitsiyasi quyidagi principlar asosida qurilgan: proporsionallik, kompozitsiya aniqligi, mosiy va ikkinchi darajali elementlar iyerarxiysi, makonning maksimal ochilishi Markaziy Yevropa parklariga ham tarqaldi.

Angliyadagi barokko davridan bizning vaqtimizgacha saqlanib kelingan Chatsvort (1680-y.), Loglit (1965-y.), Durmon, Xempton kort (1699-y.) va boshqa bog' va parklari yaratiladi. Angliyaning eng chiroqli regular parklaridan Durmon (11-rasmli jadvalining 1–5-rasmlari) va Xempton kort parklari hisoblanadi (11-rasmlar jadvalining 6–7-rasmlari).

Durmon kompozitsiyaning xarakteri ochiq simmetrik parterlar va o'simliklarning yaxlit massivlarining qo'llanilishi. Park rejası «Krest Sv.Andre» ordeni asosida yaratiladi. Ichki detallari ham orden Sv.Andrening kopiyasini katta mashtabda shaklantirgan.

## ANGLIYANING BAROKKO DAVRIDAGI REGULAR PARKLARI

11-rasmlar jadvali



1,5-rasmlar. Durmon parki:

1 – park panoramasi, 2 – topiar qaychilangan landscape dizayn kompozitsiyasi,  
3 – «Krest Sv. Andre» landscape kompozitsiyasi, 4–5 – salsaflar bog'i; 6,7-rasmlar.

Xempton Kort parki:

6 – katta parterni rejalashtirish, 7 – parter dizayni.

Xempton kort saroyi va parki Temza daryosi bilan chegaralangan qator kichrayib boruvchi uchburchak shaklli gulli parterlar Xempton kortning muhim qismini tashkil etadi. Xempton kort rejasini A. Lenotr va G. Mollenning shogirdlari ishlab chiqishgan va loyihani G. Vayz amalga oshiradi. Xempton kort tabiiy muhitni butunlay o'zgacha, sof inglizcha munosabat bilan shakllantirgan. Bu yerda barokko kompozitsiyasi Versaldagidek jonli tabiatga qarshi tarzda qo'yilgan emas, balki park huddining murakkab shakliga mos ravishda amalga oshirilgan.

So'nggi davrda barokko uslubidagi parklar Angliyada keng taraqqiy topmadi. Biroq markaziy Yevropadagi holat Angliyada-gidan boshqacharoq edi. Masalan, Germaniya va Avstriya XVII asrdan XVIII asrgacha «feodal absolutizmga» ega bo'lib, regulart parklar ko'plab yaratilgan edi.

Germaniya kurfyurstlarining<sup>1</sup> cheklanmagan hokimiyati ularga o'z hukmronligi chegaralarida keng mavqeda bog'-saroy qurilishiga imkon yaratgan. Gannoverdagi mashhur Xerrenxauz parki ikkita teng kvadratdan iborat to'rtburchak shaklga ega bo'lgan. Parkni 1666-yilda gertsog Yogann Fridrixning yozgi rezidensiyasi Xerrenxauz qoshida «italyancha» bog' bunyod etdi. 1673-yilda Fransuz bog'bon A. Perron ushbu bog'ni kengaytirdi.

XVII asrning oxirida Ye. Avgust bu yerda absolutizmning barokko davri didiga mos keluvchi ulkan bog' yaratilishi uchun loyihani iqtidorli bog'bon Martin Sharbonega topshirdi. Sharbone parkning butun qurilishiga ham rahbarlik qilgan.

Germaniyaning boshqa parklaridan Drezdendagi Grossedlis saroyi (XVIII asrning boshi) va Myunxendagi Nimfenburg, Potsdamdagi San Susi parklaridir. Bu parklar o'ziga xos yorqin yechimlarga regular park kompozitsiyasiga ega bo'lib XVIII asr oxirida peyzajli bog'lar bilan to'ldirilgan. Lekin ko'pincha regular stiliga mos yaratgan park qismlarda klassik haykallari va fontanlari eng yuqori san'at darajasiga yetishgan (20,21-rasm. jadv.).

#### **1.3.4. Rossiyada barokko va klassitsizm davrlarining regular parklari**

XVIII asr Pyotr I davrida Rossiyada bog'-park san'atining eng buyuk asarlari sifatida Yozgi bog' va Petrovioresni ko'rsa-

<sup>1</sup> Kurfyurst — tanlovchi, tanlovchilar kollegiyasining biri (masalan, AQSh prezidentini tutlashda).

tish mumkin. Pyotr I Fransiya, Gollandiya va Germaniyada bo'lib, bog' va park qurish bilan qiziqib qoldi. XVIII asrning boshida Pyotr I Yevropadan chaqirgan arxitektorlar va bog'bonlar Rossiya me'morchiligi, bog'bonchilik va landshaft arxitekturasiga muntazamlik va Yevropaga xos yangi barokko landshafini taklif etishgan. Ulardan birinchisi — yozgi bog'ni Grezini, A.Shlyutter va M.Zemtsov arxitektorlar yaratgan (12-rasmlar jadvali).

Petrovored parklari Fin qo'llitig'i bo'yida joylashgan qurilish 1714-yili boshlangan. Uni qurishda ko'pchilik taniqli arxitektorlar: J.B.Leblon (Lenotr shogirdi), ota va o'g'il Rastrelli, N.Miketti, A.N.Voronixinlar qatnashganlar (13-rasmlar jadvali). Parkda tinmay suv harakatlanadi. Kecha-yu kunduz (2040 dan ko'p suv qurilmalari) kanallar, kaskadlar, basseynlar, fontanlar ishlaydi. Yuqori parkda bir necha katta suv parterlari joylashgan. Ularning atrofida haykallar bilan bezatilgan katta parterlar joylashtirilgan, ko'klam galereyalar ulkan gazon-parterlar bilan o'rالgan. Bunday shovqinli fontanlar va katta kaskad pastki bog'dagi sokin kompozitsiyadan so'ng ajoyib kontrastdir.

Eng ulkan fontan qurilmasidagi barcha suvlari tilla haykallar bilan bezatilgan «Samson» fontani «Kovsh Samsona»ga tushgan. «Menajerni», «Rim», «Adam», «Eva» va boshqa fontanlar parkning asosiy kelajagini bog'lagan. Katta kaskaddan tashqari parkda yana ikki: tilla kaskad va shaxmat tog'i kaskadi joylashgan. Shaxmat tog'i ustida xitoy stilida yaratilgan rangli maxluqlar haykallari bilan bezatilgan.

Biroq Rossiyada eng avval, qurilgan bog'-saroy ansamblari ham o'zlarining fransuzcha, italyancha, nemischa timsollaridan ancha farq qiladi. Bu farq avvalo, tabiat atrof-muhiti, dengizning yaqinligi, qurilish materiallarining o'ziga xosligi va kompozitsiya qismlarida ishlangan rus an'anaviy naqshlarida tasvirlangan.

XVIII asr birinchi yarmiga kelib, shahar atrofi bog'-saroy ansamblarining qurilishini rus me'morlari va bu yerga kelgan chet elliq arxitektorlar avlodlari davom ettirdilar. XVIII asrda Peterburg atrofida «Oranienbaum», «Sarskoe selo», «Arxangelskoe» va boshqalarda ulkan regular gazonli parklar tashkil etilgan (22,23-rasmlar).

«Arxangelskoe» da italyan ustalarining haykallari bilan bezatilgan. Bu yerda 200 dan ortiq original asarlari park haykal taroshligida to'plangan.

## «ЛЕТНИЙ САД» – YOZGI BOG‘

12-rasmlar jadvali



1, 3, 7, 9 – bog‘dagl antik mifologiya xudolarining haykallari; 2 – yozgi bog‘ darvoza va panjaralarini; 8 – park xiyoboni.

## PETRODVORES PARKI

13-rasmlar jadvali



Petrodvorets parki (Sankt-Peterburg atrofi):

1 — Petrodvorets saroyi va katta terrasadagi kaskadlar, 2-4 — kaskaddagi fontanlar va oltin haykallar; 5 — Petrodvoretsning yugoridan ko'rinishi.

Ulardan tashqari Moskvada ko‘pincha saroy bog‘-park ansamblari yaratilgan. Masalan, Kolomenskoe, Ostankino va boshqalar. Rossianing muntazam xarakterga ega bo‘lgan bog‘-parklari gazon va gulli parterlar, fontanlar, kaskadlar, haykallar va boshqa elementlar bilan bezatilgan.



22, 23-rasmalar. Arxangelskoe saroy-bog‘ining terrasalari va atrof landshaftlari.

## 1.4. Yaqin va O‘rta Sharq bog‘-park san’ati


### 1.4.1. Musulmon sharq bog‘larining falsafasi

Bog‘-park san’ati tarixiga bag‘ishlangan Yevropa olimlari ning osarlariida Qadimgi Sharq san’ati davri landshaft san’atiga turli ochib berilmaganini ta’kidlab o‘tish lozim. Shunga qaramay, bunday ta’sir bo‘lgani haqiqatga juda yaqindir. Sharq mamlakatlarining issiq iqlimi sharoitida azaldan park va saroylarga katta ahamiyat berilgan. Bog‘larning qurilishida гармония va geometrik tartibning ma’lum bir tamoyillariga amal qilingan.

Musulmon mamlakatlaridagi bog‘lardagi barcha narsalar rohat olish uchun mo‘ljallangan: sekin shildirayotgan favvoralar, ottob oqimlari, xushbo‘y hid taratib turgan gullar, oltin qafasburdu bayrab turgan qushlar, dunyoning turli chekkalaridan olib kelganan go‘zal kanizaklar va h.k. Bunday bog‘ga tushib qolgan odum, o‘zini jannatdagidek his etadi. Bunday bog‘larning xilmasilligiga qaramay, ularning tuzilishi Islom qonunlari asosida tafqibga solinlar edi.

Musulmonlar bog‘ining asosini, odatda qat’iy geometrik rejalash tashkil etadi. Bog‘ geometriyasi to‘g‘ri chiziq bo‘yicha chizilgan yo‘lakchalar, suv oqadigan ariqlarni chiziqli joylash-

tirish bilan ta'kidlab ko'rsatiladi. Reja bitta yoki bir nechta kvadratlardan shakllanadi, kvadratning o'zi esa to'rtta kichikroq qismga bo'linadi. To'trburchaklarning markazida ko'pincha marmar turli xil rangdagi keramik plitalar va shisha bilan ishlangan uncha katta bo'limgan favvoralar yoki hovuz joylashtirilgan bo'lib, ular butun bog'ning bosh bezagi hisoblanadi. Islom bog'ining geometrik shakli to'rt yo'nalishda to'rtta daryo oqib chiqadigan jannat bog'i to'g'risidagi afsonaning aks ettirilishi bo'lsa kerak. Masalan, Sharqona milliy gilamda Chorbog'g'oyasi ifodalangan bo'lib, o'rtasidagi «jannat bulog'i» va arig'ida dunyoning to'rt tarafiga hayotbaxsh suv taralmoqda. Chorbog'dagi to'rtta bog'da saylgohlar, mevali daraxtlar, chamanzorlar, chamanzorlarda esa mo'jaz gulzorlar ko'rsatilgan (24-rasm).



24-rasm. Sharqona milliy gilam. Eron, XVII asr.

Shunday qilib, bog' to'rt qismga bo'linganday bo'ladi. Ehtimol, musulmonlar bog'larining bunday rejallahning namunasi Makkaning rejasi bo'lgandir, u yerda Ka'ba toshi o'matilgan inshoot kompozitsiyasining markazidan to'rtta perpendikular yo'l chiqqan. Bu inshoot «ollohning uyi» deb hisoblangan va unda islom dini paydo bo'lgunga qadar Ollohga sig'inishgan. Shunday qilib, musulmon bog'idagi kvadratlar Ollohning ishtirokini va uning rahmdilligini anglatishi kerak edi.

Islam davlatlarining ko'pchiligi quruq ob-havo sharoitida ishlayotgani uchun bu yerda suvgaga alohida tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishadi. Suv — muqaddas, chunki u hayot manbayi, u faqat hayotni oziqlantiribgina qolmay, balki uni tozalaydi ham. Suvsiz birorta ham bog' ma'nosizdir va islam bog'larida suv doim bosh kompozitsion va rejalashtiruvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

#### 1.4.2. Eron bog'ları


O'rta asrlarda Eronning bog'dorchiligi muqaddas san'at darajasiga ko'tarilgan. Eron bog'larining sayopar daraxtlari, gulzorlari, hovuzlari va zilol oqar suvlarini go'yo jannat ramzini ifodalaydi. Bog'larda qat'iy muntazam tartibot, simmetriya va uyg'unlik mavjud. To'g'ri to'rtburchaklar asosida qurilgan bog'-tarning markaziy o'qida bosh va yonbosh xiyobonlar kesishgan, murkaazda bog' saroyi va hovuz joylashgan, aksariyat bog'larda saroy sun'iy tepalik ustida qurilgan, to'rt tomoni esa zilol suvga to'la keng kanallar bilan chegaralangan. Kanallarga bosh xiyobon bo'ylab o'tqazilgan o'qariq kelib qo'shilgan: undagi favvorular va hovuzlardan suv tizgini otilib turgan. Hovuzlar shakli turlicha kvadrat va to'rtburchakdan xoch shakligacha, olti va oddiq qirradan murakkab gulchanoqqacha ko'rinishlarda bo'ladi.

Bunday munosabatda ajoyib misol tariqasida XII asrdagi (bog'i) I'moni keltirish mumkin (14-rasmlar jadvali). Bu bog' (bog'i) kungacha saqlanib qolgan Sharq mamlakatlarining bog'-park san'atining noyob namunalaridan biridir.

Bog'i Fin Eronda Isfaxon viloyati atroflarida Kashan vohalida joylashgan. Tashkil etilishining nozikligiga ko'ra Bog'i (bog'i) dunyoda teng keladigan bog' yo'q. Saroy hovlisida to'rtta dengiz va suv to'ldirilgan hovuzi bo'lgan kichkina bog' joylashgan. Saroy atrosidagi uncha chuqur bo'limgan (20—30-rasm), tor arqlari tarqalgan bo'lib, ularda doim suv sharillab oqib turgan. Arqlarning tubiga glazur bilan ishlov berilgan keramik plita yotqizilgan bo'lib, u kompozitsion urg'u beradi (14-rasmlar jadvali).

## ISFAXONDAGI «BOG'I FIN» SAROYI


14-rasmlar jadvali



1–3 — Bog'i Fin saroyi; 4–8 — saroyning hov'ilari va bog'ariqlari; 9 — saroy atrofidagi ibodatxona.

Keylnroq, XVI—XVII asrlarda Eron shohi Shoh Abbas Isfanini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish maqsadida yangi jumoa markazida Maydon-shoh xiyobonini tashkil etadi. Du xiyobon park tarzida qurilib shimoldan janubga qarab 110 m, eni 165 m ulkan ochiq qo'kalamzor maydonni tashkil qiladi. Maydon-shohdan yarim kilometrlar g'arb tomonda shaharning yangi bosh xiyoboni va Shahar-bog' istirohat bog'i bunyod etilib, u o'zining g'aroyib bog' saroylari va muntazam sayilpohlari bilan Maydon-shohga Ali-Kapu baland darvozalar urqali tutashtiriladi.

Shahar-bog' Chexel-Sutun, Xasht-Bexisht va Talar Ashraf go'zal saroylar o'rjasida yaratilgan (25-rasm).



25-rasm. Isfaxondagi «Shahar-bog'» bog'-park kompleksi. XII asr.

Bog' yonlarida sakkiz qator chinor va tol ekilgan, uchta keng saroygohlar, favvoralar va hovuzlar tashkil etilgan. Bosh xiyobon janub tomonga 1650 metrga cho'zilib, keyin shaharni yana uch kilometr tashqaridan Xazori Jerib bog'lariga qo'shilgan. Isfaxon bog', maydon va xiyobonlari bunyod etish tajribasi o'tta ish Sharq me'morlari va shaharsozlariga quruq va issiq sharoitda an'anaviy Chorbog' uslubidan foydalanish zarurligini va shuhurlarning landshaft rivojlanishiga ta'sirini ko'rsatadi.

Keylnchalik, Gretsiya va Rimning ko'pincha antik bog'lari, o'rta asrlarda esa Turkiyadagi, Ispaniya Mavritan bog'lari,

Qrimdagi tatar xonlarining bog'lari, Temur va temuriylarning bog'lari, shuningdek, Boburiylarning Hindistondagi fors bog'-park san'ati ta'sirida yuzaga keldi.

### 1.4.3. O'rta Sharqning Temuriylar bog'lari

Ko'pchilik yevropalik olimlarning ilmiy ishlarida Qadimgi Sharq san'atining Italiya Uyg'onish davri landshaft san'atiga ta'sir etmaganligini ta'kidlab o'tishadi. Ammo bu ta'sirning mavjudligi juda aniq. Qadimdan, sharq mamlakatlari issiq iqlimi sharoitida bog'lar va parklarga katta ahamiyat berilgan.

'Markaziy Osiyoda ham bog'lar uzoq davrlardan boshlab shakllanib kelgan. Bu yerming «o'ziga xos iqlimi, serquyoshligi, uzoq issiq yozning o'tkir ta'siridan saqlanishga qaratilgan harakat ham sabab bo'lgan. Odamlar dastlab mo'jaz oromgohlar bunyod etib, jazirama yoz kunlarida soya-salqin bog'lari, hovuzlar qoshidagi supali shiyponlarda, shabada joylarda dam olish-gan»<sup>1</sup>.

Kichik bog'lar ko'pincha shaharlar ichidagi uy hovlilarda yaratilgan bo'lsa, kattaroq bog'lar esa shaharning atrofida, ochiq dalalarda va qo'rg'onlarda tashkil etilgan. Lekin shaharlarning suvli ariqlar atrofida, ayniqsa, jarlik va soyali joylarda, issiq kunlarda chiqib dam olish joylari bezatilgan.

Dam olish uchun bog'lar ko'pincha yoz havosining issiqligi sababli shahar atroflarida, tog'lik yerlarda tashkil qilingan. Tog'li yerlarda bog'larning bezatilishi shahar bog'laridan farqlanib turar edi. Masalan, tog' yonbag'irlaridagi qiyaliklarda, buloq bo'ylarida bunyod etilgan yoz bog'larining ko'rinishi 26-rasmda ko'rsatilgan.

Hamma issiq mamlakatlardagi bog'larning yaratilishi suv kamligi bilan bog'liq edi. Shuning uchun ko'pincha bog'lar rejsasi suvni oddiy tashkillangan ariqlar yo'li bilan bog'langan. O'simliklar suv o'tkazilgan yerlarda joylashgan edi.

Amir Temur bunyod etgan bog'-saroylar o'zlarining keng ko'lami, xush havosi, go'zal manzaralari, saroy va kushklar, g'a-royib hovuz va favvoralari, beozor jonzotlari bilan mo'jaz qo'r-g'oncha chorborg'laridan ajralib turgan. Ammo istirohat bog'lari ham qurg'oncha-chorbog'lar kabi atroflari baland devorlar bilan

<sup>1</sup> Ojegov S.S., O'rlov A.S., Rahimov K.J. Landshaft arxitekturasi va dizayn. Samarqand, «Selbis», 2003, 27-b.

aylantirilib, darvozalar orqali kirib chiqilgan. Temur buniyod etgan ayrim istirohat bog'larining maydoni juda katta bo'lib, ular ichida sersoya daraxtzorlar, turli mevali bog'lar, hovuzlar, gulzorlardan tashqari maysazorlar, hatto o't-yalanlar bo'lgan.




26-rasm. Qiyalikda joylashgan yozgi bog'.  
ark. Nazilov D.A. rekonstruksiysi.

Temurning shahar Arki ichida Bo'ston saroy qoshida mu'jaz shurbog' ham tashkil etilganligi haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, manbalarda shaxzoda Muhammad Sulton qurdig'an madmisa (hozirgi Go'ri Amir) atrofida «Bir nechta uyni bezib jannat misol bir bog'cha» yaratilganligi ham eslatib o'tildi. Ammo, bog'larning asosiy qismi shahar atroflarida salsordan tashqarida mahobatli istirohat bog-saroylari tarzida buniyod etilgan. Temurning o'zi o'ndan ziyod shunday bog'larga mos kelgan edi.

Jumani ta'kidlash kerakki, bu go'shalarning eshlari sohib-quronning o'zidan tortib oddiy shaharlikkacha — barcha uchun o'ling bo'lgan. «Agar Temur biror tomonga otlanib Samarqand tonting) qo'shimlari-yu, yordamchilaridan xoli bo'lib, usha bo'stonlar bo'sh qolsa, shahar ahlidan badavlati-u, miskinlar u (husron)larga qarab yo'l oladilar. Chunki bu bog'lardan ko'ra yodisti va ajoyib dam oladigan, bulardan ko'ra rohatlanishga muvofiqroq va osoyishtaroq joy yo'q edi. Bog'lardagi shirin, mevali mevalar esa barchaga bab-baravar (tekin) edi». Bog'-burdan chiqqan tarovat va xushhavo jazirama kunlarda Samarqand iqlimini mo'tadil saqlab turardi. Amir Temur va temuriylar tundmuronligi davrida (XIV—XV aa.) tashqi dunyo bilan aloqalar buehaydi.

Bosib olingan davlatlardan nafaqt boylik va madaniyat elementlari, balki bog'dorchilik san'ati ustalarini ham olib kelishgan. Bu davrda bog' va parklar tugallangan rejaviy yechimga ega bo'lgan (27-rasm).



27-rasm. Chorbog' variantlari rekonstruksiysi:  
a) — arx. Pugachenkova G.A. rekonstruksiysi: 1 — darvoza; 2 — bosh xiyobon; 3 — hovuz; 4 — gulzor; 5 — ko'shk-saroy; 6 — shiypon; 7 — sayrgoh yo'l;  
b) — arx. D.A. Nazilov rekonstruksiysi.

XIV asrdayoq Temuriylar davlati poytaxt Samarqandda o'n to'rtta bog' yaratgan edi. Ulardan ikkitasi shahar ichida qurilgan bo'lib, o'n ikkitasi shaharni har tomondan o'rab olgan edi. (28-rasm va 15-rasmlar jadvalidagi 1 a-d-rasmlar). Bog'lar to'g'risida «Zafarnoma»da, «Boburnoma»da va Alisher Navoiy asarlari-da ma'lumotnomalar bor. Temurning o'zi o'ndan ziyod shunday bog'larga asos solgan edi:<sup>1</sup>

**Bog'i Naqshi Jahon** – bu bog' XIV asrning 70-yillarida bунyod etilgan deb taxmin qilinadi. U Cho'pon Ota qirligining janubiy etagidagi Obirahmat arig'ining atroflaridagi yerlarda joylashgan. Bog'da zeb-u ziynatga boy hashamatli saroy ham qurilgan.

**Bog'i Behisht.** Temurning yosh xotinlaridan biri Tuman oqo uchun 1378-yili shaharning janubiy-g'arbiy tarafida bунyod etildi. Bog'da zeb-u ziynatga boy hashamatli saroy ham qurilgan.

**Bog'i Baland** – ushbu bog' Cho'pon Ota tepaligining g'arbida joylashgan edi. Bog'da alohida anjirzor, uzumzor, olma-zorlar bo'lib, ular bog' manzarasiga o'ziga xos husn qo'shgan. Bog'ning o'rtasida yuksak mahorat bilan barpo qilingan ko'shk qad rostlab turgan, bog'ning atrofi devor bilan o'rab olingan, faqat shimoliy tomoni Zarafshon daryosining qирг'oqlari bilan chegaralanib turgan.

<sup>1</sup> Ojegov S.S., O'rulov A.S., Rahimov K.J. Landshaft arxitekturasi va ... Samarqand, «Selbis», 2003, 29–31-b.


## TEMURIYLAR VA BOBURIYLAR BOG'LARI

15-rasmlar jadvali



1-rasm. Amir Temur bog'lari:

a – Samarkand shahri atrofidagi bog'lar; b – chet el mehmonlari Amir Temur huzurida  
Ilog'i Navdan kiriyaptilar; d – Amir Temur ovdan so'ng Bogi Shamolda.



2-rasm. Boburnoma miniaturalaridagi bog'larning ko'rinishiga qaraganda  
temuriylarning bog'larini tavsija etish mumkin.



3-rasm. Hindistondagi Chorbog' stilida yaratilgan bog'lar:  
a – Toj Mahal; b – Agra.



28-rasm. Samarqand shahri atrofida Amir Temur buniyod etgan bog'-saroylarning shakliy joylashuvi (XIV–XV asrlar):

a – Bog'i-Baland; b - Bog'i Maydon; d – Bog'i Naxshi Jahon; e – Bog'i Amirzoda Shoxruh; f – Bog'i Bo'ldi; g – Bog'i Zagon; h – Bog'i Dilkusho; i – Bog'i Jahon Namo; j – Bog'i Davlatobod; k – Bog'i Chinor; l – Bog'i Nav; m – Bog'i Shamol; m – Bog'i Bixisht; o – Bog'i cha (Ulug'bek buniyod etgan).

**Bog'i Amirzoda Shohrux** – bu bog'ni 1394-yili Temurning kenja o'g'li Shohrux Mirzoning Kavkazorti yurtlarida qilgan yurishidan qaytishi sharofatiga qurilgan deb taxmin qilinadi. Sharafiddin Ali Yazdiy ushbu bog'ni Samarqand g'arb tomonida – Chorraxa davrozasiga yaqin yerda joylashganligini yozadi.


**Bog'i Dilkusho** – Ali Yazdiyning xabar berishicha, bog' qurilishi 1396-yilning kuzida boshlangan. Bog' Temurning ki-chik xotini To'kalxo nomiga atab buniyod etiladi va nihoyatda dilkusho va ko'rqli bo'lganligidan «Bog'i Dilkusho» deb nomlanadi. Bu bog' Movarounnahrning eng yaxshi bog'laridan biri bo'lgan. U bog'ga sadafdagি marvarid kabi ertaknamo chiroy berib turgan. Ushbu bog' Ishratxona obidasining atrofida qurilgan. Ko'shk devorlarida Amir Temurning Hindiston yurishidagi jang manzaralari tasvirlangan.

**Bog'i Shamol** – Temurning nabirasi, Mironshohning qizi Beka Sulton nomiga atab Samarqanddan g'arb tomonda barpo etiladi. Bog'da 1397-yili «dilni rom etuvchi go'zal va baland qasr» ham quriladi. Qasrning tarhi – lavhasini Temurning o'zi ko'rib ma'qullaydi.

**Bog'i Bo'ldu** – shahardan sharq tomonda Bog'i Dilkushoga yaqin joyda hozirgi Ulug'bek nomli jamoa xo'jaligi yerida bo'lgan. Bog' saroy xarobalaridan yaproqlariga oltin suvi yuritilgan guldasta naqshlar topilgan. Ushbu bog'da Amir Temur saroy

ummlari, ulamolar va she'riyat namoyandalarini bilan yig'ilishib, turli xil ilmiy bahslar, she'riyat kechalari va suhbatlar o'tkazib turgan (15-rasmlar jadvali 1-b-rasm).

**Bog'i Davlatobod** — Samarcand Shahrisabz yo'li ustida Bog'i Dilkusho bilan Bog'i Jahonnamo oralig'ida joylashgan (29-rasm). Amir Temur o'z yurishlaridan kelib, shu bog'da hordiq chiqarar ekan. Bog'da oltita turli hovuz bo'lib, ular ariglar bilan tutashtirilgan. Hovuzlarni turli parrandalar, bog'ni nafis hayvonlar, tovuslar bezagan. Bog' saroyi sun'iy baland tepalik ustiga qurilgan bo'lib, undan atrofdagi go'zal xushmuzara joylar ko'rinish turgan.



29-rasm. Samarcand,  
A.Temurning Davlatobod  
bog'idagi saroy tepaligi:  
*Saroy sun'iy tepalik ustiga  
qurilgan bo'lib, to'rt atrofidagi  
zovurlar suv bilan to'lib turgan.  
Saroya ko'priq orqali o'tilgan*  
(U.Alimov rekonstruksiyasi).

**Bog'i Chinor** — bu bog'da dov-daraxt, chinorazorlar ko'p lu'lganligidan shunday deb nom olgan. Hozirgi Xo'ja qishlog'i yonida joylashgan. Ushbu bog'da saroy ham sun'iy tepalik ustiga qurilgan.

**Bog'i Jahonnamo** — bu bog'da dunyo iqlimiga xos mevvutorlar bo'lib, uni Bog'i-oyna ham deyishgan. Bu bog' Samarcanddan ancha janubda, Urgut tog'lari etaklarida joylashgan.

**Bog'i Zag'on** — Samarcanddan sharqda qadimiy Panjikent kavon yo'lining ustida Ko'chai xiyobon mavzesidagi bog'. Hozir ushbu bog' o'mnida shu nom bilan ataluvchi qishloq mavjud.

**Bog'i Maydon** — Samarcanddan shimolda Afrosiyob tepaligi bilan Cho'pon Ota qirlarining o'rtasida, hozirgi Bog'i Maydon qishlog'i o'mniga barpo etilgan. Bog'ning asosiy rivojlanishi

Ulug‘bek davriga to‘g‘ri keladi. Ulug‘bek ushbu bog‘da Chilsun nomli ikki qavatli hashamatli saroy ham barpo etadi.

**Bog‘i Nav** — Amir Temurning Samarqandda qurgan bog‘lari ichida eng so‘nggisi bo‘lib, 1404-yili bunyod etilgan. Samarqand shahar devoriga yaqin, undan janubiy g‘arbda, taxminan hozirgi Dorilfunun xiyoboni va shahar markaziy madaniyat va istirohat bog‘i hududlari o‘rnida joylashgan.

**Taxti Qoracha bog‘i** — bu bog‘ Shahrisabz yo‘lidagi Zarafshon tog‘i dovoni etagidagi anhor atrofida bunyod etilgan. «Imorat qurishga yaroqli har bir joyning zoye ketishini ravo ko‘rmaydigan» Temur bu mavzeda ham bog‘ solmoqqa farmon beradi. Bog‘ o‘rtasiga bir ko‘shk qurilib, unga «Taxti Qoracha» deb nom beradi. Taxti Qorachaning suvi qahrabodek tiniq, billur kabi toza bo‘lgan.

Temur va temuriylar davrida Xuroson poytaxti Hirotda ham Samarqand bog‘lariga o‘xshagan bog‘-rog‘lar bunyod etiladi. Hirot shahri atroflarida Temur davriga qadar ham mahalliy zodagonlar qurgan bir necha bog‘lar bo‘lib, ular Bog‘i Baland, Bog‘i Zag‘on, Bog‘i Safed deb nomlangan. Shohrux davrida sal-tanatning yozgi qarorgohi va xalq sayillari o‘tkazib turish uchun yaratilgan edi.

Sulton H. Bayqaro davrida Hirot atrofida bir necha bog‘-saroylar va xiyobonlar mavjud edi. Masalan, Bog‘i Jahonaro Fors paradiz bog‘lariga o‘xshab 100 ming gektar joyga ega bo‘lib, bog‘ning o‘rtasida mahobatli baland saroy qurilgan. Uning oldida gulzor, mevali va manzarali daraxtlar bilan bezatilgan chorborg‘ va chorcharman hamda xiyobon uslublarida tashkil etilgan to‘rtta bog‘ bo‘lgan. Bog‘ning shimoliy tarafida keng hovuzning to‘rt tomonida to‘rtta ziynatli shiypon va kamondan nishonga yoy otib, mashq va musoboqlar o‘tqazishga mo‘jalangan maxsus bino — sadafxona ham bo‘lgan!

Ispaniyalik elchi Klavixo «Temurning Shahrisabzdagi Oqsaroysi qoshida bunyod etgan bog‘ida tillidan ishlangan daraxtni ko‘rib, uning mevalari billur toshlar bilan bezatilgan edi», deb yozadi. Bunday g‘aroyib mo‘jizani yaratgan o‘rtta asr ustalari mahalliy xalq vakillaridan yoki o‘zga yurtlardan edimi, bundan qat‘i nazar, bu hol sun‘iy bog‘lar yaratish va uslubiy Sharq xalqlariga azaldan xos ekanligini ko‘rsatadi.

Bu bog'larni yaratgan me'mor va bog'bonlar ularda o'sha davri bog'-istirohatchilik san'atining eng yaxshi namunalarini aks etirishiga intilganlar. Temuriylarning bog'lari uchun ko'proq ilgaridandan mavjud manzilgohlar, suvi yetarli kichik bog'lar, ushmanzara daraxtzorlar, o't-o'lanlar qo'shib olinib, qaytadan rejalangan, maxsus loyihalangan. Faqat ayrim bog'lar yangidan ishlangan, har ikki holda ham ular uchun mavjud manzaraga boy joylar tanlangan. Ayni paytda, Mavarounnahrda tabiiy noqulay, masalan, botqoqlik joylarda sun'iy ishlangan bog'lar ham uchraydi.

A. Navoiy ham Hirot shahri atrofida bir necha bog' va manzilgohlar buniyod etgan: Bog'i Murgoni, Bog'i Saripuli-Sangkashon (tosh tashuvchilar ko'prigi yonidagi bog'), Bog'i Shavqiya (Dilkusho bog'i), Bog'chai Guzargoh va taxti Bobo Buxta.

Temuriylar bog'lari, hamma sharq bog'lariga o'xshagan, ikki turda bo'lgan, «chor-bog'»lar va katta «paradiz» bog'lar. Bu bog'lar «maydonining kattaligi, go'zal mahobati-yu, munaqqash zib-u ziynatlari, ertaknamo ko'shk-saroylari, mevali manzaralari bilan ajralib turgan».

Bog'larning kattaligini Sharafiddin Ali Yazdiyning Temurni •Bog'i Jahonnamo»si to'g'risida: «unda to'satdan me'morning oti yo'qolib qolgandi va uni qidirishga bir oy sarf bo'lgan» ligi latifasidan bilish mumkin.

Bog'i Dilkusho va bog'i Nav tashqi o'lchamlari 1500x1500 gaz (1000x1000 m chamsasi) atrofida bo'lgan. Davlatobod bog'i tarxi esa to'g'ri ko'rinishida (900x1350 m) bo'lib, bog'ning o'zi ikki qismdan: bog'-saroy joylashgan istirohat bog'i (900x900 m) va uzumzoridan (900x450 m) iborat bo'lgan.<sup>1</sup>

Temuriylar o'zlarining bog'larini dil ochuvchan va ertaknamo bo'lishligi uchun ularni chiroqli hayvonlar bilan bezaganlar. Bog'da sayr qilib yurgan ohu va tovuslar, hovuzlarda suzib yurgan o'rdak va g'ozlar shular jumlasidandir.<sup>2</sup>

Hirotli Niyoziyning «Ironshodush ziyorat fi ilmil-xirosat» da (Ekin ekish yo'riqligi va dehqonchilik ilmi) asarida chorborg'ning tarxi, o'simliklar ekilishi va bog' qurilishi tartibi haqida ma'lumotlar keltirilgan.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> II – II...35-b.

<sup>2</sup> Ojegov S.S., O'rolov A.S., Rahimov K.J. 32-b.

<sup>3</sup> II – II...33–34-b.

#### 1.4.4. Chorbog'ni rejalashtirish prinsiplari<sup>1</sup>

Chorbog'lar sharq mamlakatlari uchun xos bo'lgan bog'-park san'ati qonunlariga ko'ra yaratilgan, unda bog'ni rejalash-tirish, yuqorida aytib o'tilgandek, qat'iy ortogonal qurilishga ega edi.

Bog'lar tarxida kompozitsiyaning asosiy o'qini regular tash-kil etish uslublari qo'llanilgan. Bog'lar qurilishi ma'lum bir uyg'unlik va geometrik tartib tamoyillariga bo'ysungan.

Fors tilida «chor» so'zi to'rtini, «bog'-bog'ni» anglatadi, shuning uchun «chorbog» nomiga mos ravishda bog' asosida reja tuzilmasining to'rt qismli bo'lishi yotadi. Bog' to'rtta kesishuvchi o'tish yo'llari bilan teng to'rt qismga bo'linadi. Ko'pincha, har bir yo'lakning markazi bo'ylab, suv to'ldirilgan tor, uncha chuqur bo'lмаган ariq o'tadi. Ariqlar kesishgan joyda uncha katta bo'lмаган favvorasiz kichik hovuzcha quriladi. Sharq an'analariga ko'ra, to'rtta yo'l dunyoning to'rt tomoniga mos keladi, induslarning an'analariga ko'ra, ariqlar insoniyat hayotining to'rt bosqichini ifodalaydi: bolalik, o'smirlik, yoshlik va qarilik. Suvlar kesishganda, ya'ni inson o'tgan umrini anglaganda, u xudo bilan uchrashadi.

Fors bog'laridan farqli o'laroq, O'rta Osiyoda (ayniqsa, O'zbekistonda) Chorbog' issiq-quruq, keskin kontinental iqlim munosabati bilan o'ziga xos rivojiga ega.


Odatda, Chorbog' paxsa devor bilan o'ralar edi, u uylarni va bog'ni faqat begona ko'zlardan emas, balki chang-to'zonlardan ham himoya qilar edi. Devor qatorida, perimetr bo'yicha bog' tomondan, daraxtlarning zinch qatori, asosan, terak o'tqazilar edi. Teraklarning poyasi, odatda, devor sathida yoki undan pastroq bo'lar edi, piramidasimon shoxlari esa yuqoriga qarab 20–30 metrga ko'tarilar edi.

Bunday ikki qavatli to'siq ham issiq changli shamollardan ishonchli himoya sifatida xizmat qiladi, ham hududning mikro-iqlimining shakllanishga imkon beradi. Bu yerda bog'ni to'rt qismli rejalash faqat teosofik xarakterga ega bo'lmay, suv resurslarining yetishmasligi bilan bog'liq bo'lgan ko'proq amaliy, utilitar ma'noga ega bo'ladi. Suv hudud bo'ylab eng qisqa

<sup>1</sup> Адилова (Камилова) Л.А. Принципы функционально-планировочной организации ландшафта городов расположенных в условиях сухого жаркого климата. Дисс. на соис.уч. степ. канд. арх. Л., 1984.

maida bo'yicha, ya'ni to'g'ri chiziq bo'yicha zovur- ariqlardan taqsimlanadi. Keyin, suv chorhamanga qarab ketadi. Chaman deb bog'ning markaziy o'qlari bo'yicha to'rt tomonga joylashgan gulzor tushuniladi.

Bog'ning to'rtta o'qlariga parallel ravishda o'tuvchi ariqlardan yoki piyodalar o'qlari va chorhamanlar bo'ylab suv bog'ning ancha uzoqdagi joylariga taqsimlanar edi. Shunday qilib, bog'ni ratsional sug'orish amalga oshirilar edi. O'simliklarning fazoviy joylashtirish o'z navbatida hududda suvni taqsimlaishi usullariga bog'liq edi. Yuqorida aytib o'tilganidek, eng baland o'simliklar bog' perimetri bo'yicha joylashtirilar edi, chamanlarning o'rta qismida ochiq gulzorlar, dekorativ va mevali datostlar esa chamanlarning perimetri bo'yicha joylashtirilar edi. Yirik daraxtlar namlikni akkumlatsiyalash va dam olish joylari totda soya hosil qilish uchun suvli basseynlar ustida ham joylashtirilishi mumkin. 30-rasmda Chorbog'ning prinsipial modeli berilgan.



30-rasm. Chorbog'ning prinsipial rivojlanishi modeli,  
ark. L.A. Adilova.

Bog'larning suv va o'simliklari o'zaro yaqin bog'langan markaz rejalari va fazoviy tuzilishi hududda mikromuhitning

kuchayishiga va barqaror bo'lishiga imkon beradi. Ba'zan bas-seyn ustida daraxtlar o'rniga dam olish uchun chiroyli ayvoncha joylashtirilgan, bu esa dam oladigan joyga xayolparastlik, maho-batlik yoki tantanavorlik ruhini beradi.

O'rta Osiyoning «paradiz» bog'lari, odatda, ov uchun mo'l-jallangan edi. Park hududi - paradiz, yovvoyi hayvonlar ov qili-nadigan ko'k yoki to'qayzor massivlari bo'lgan tabiiy landshaft hududidan iborat bo'lar edi.

Paradizlar perimetri bo'ylab devor bilan o'ralgan edi. Ularning o'lchamlari juda katta va erkin rejalaشتirilar edi. Pa-radiz devorlarining burchaklariga minoralar qurilib, u yerda qo'riqchi-kuzatuvchilar joylashib, hayvonlarning harakat yo'nali-shini kuzatishar va ularning qayerdaligi haqida xabar berishardi va yovvoyi hayvonlarga ov boshlaganda ularning Saroy bog'iga kirib qolmasliklarini kuzatishar edi.

#### 1.4.5 Hindiston bog' va parklari

Sharq xalqlarining o'rta asrlardagi landshaft arxitekturasi asosan bu davrda yaratilgan bog'lar orqali ifodalangan. Sharq mamlakatlari bog'larini shartli tarzda ikki katta guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh bog'ları musulmon sharqi mamlakatlariga xos bo'lib, ikkinchi guruhdagi bog'lar esa Buddizm tarqalgan Uzoq Sharq mamlakatlariga mansunbir. Bog'lar san'atning boshqa turlariga nisbatan insonning ichki dunyoqarashini, uning tafakkur doirasini, birinchi navbatga, tabiatga, atrof-muhitga bo'lgan munosabat falsafasini ravshanroq ifoda-laydi, desak xato qilmaymiz.

Ma'lumki, Sharq xalqlarining eng qadimgi dunyoqarash-laridan biri «Chor usuli» falsafasidir. Bu falsafa olamning va undagi barcha mayjudotlarning to'rt unsur: tuproq, suv nur va havodan tashkil topganligini e'tirof etadi. Ayni paytda olamni to'rt tomondan hamda zamin (yer) va osmondan tuzilgan deb biladi. Islom ma'naviyati ham Ushbu falsafadan xoli emas. Ya'ni Islomdagi «jannat» bu bog'lar ramzi hisoblanib, u falak-ning to'rt tarafidan devor bilan ajratilgan xolisona bog'dir.

Islomdagi ideal bog' to'rt tarafidan devor bilan chegara-langan, markazida ko'shk va «jannat bulog'i» joylashgan, meva-li-manzarali daraxtlarga, gul-maysalarga g'arq sayrgoh bog'dir. «Chorbog'» uslubidagi bog' rejasи bir yoki bir necha kvadrat-

lardan tuzilgan. Katta to'rtburchak to'rtta kichik to'rtburchak-larga «chorchamanlarga» bo'linib, ular ham o'z navbatida yana maydon «chamanlarga» bo'lingan. Bu bo'linmalar nafaqat yo'laklar va o'simliklar orqali, balki kichiqroq va torroq ariqlar yordamida ham hosil qilingan. Chorbog' yoki chormamanlarning markazida favvoralar yoki mo'jazgina favvorachalar bo'l-gan Bog' muhitini namlik bilan ta'minlovchi hovuzlar joylashgan. Nozik tizillab otilgan favvoralar, yarqiroq marmar ariqlardan sekin shildirab oqqan suvlar, o'ziga xos xolis bog' muhitini yaratgan. Manzarali va mevali daraxtlar, xushbo'y hidli chaman gullar, hovuzlardagi o'rdak-g'ozlar, bog'dagi tovuslar, yo'nalohular bog'ni yanada mastunkor etgan.

O'rta asr mamlakatlari bog'lariga xos an'analar Shimoliy Hindistonda Bobur va boburiylar hukmronligi davrida (XVI–XVII asrlarda) taraqqiy topdi. Boburiylar yaratgan bog'lar nafaqat hozirgi Hindistonda, balki Pokistonda ham sakllanib qolgan. Dehli, Agra, Fatexpur-Sekri, Shoxjahonobod (eski Dehli) shaharlaridagi boburiylar qurgan bog'lar nafaqat Hindistonning, balki butun Islom dunyosi o'rta asr bog'-parkchilik san'atining ham javohirlari qatoriga kiritilgan.

Boburiylarning bobolari Amir Temur va Temuriylar chorbog'larni shahar atrofidagi tasbiatan nafis joylarda buniyod etgan bo'lular, Boburiylar chorbog' uslubini nafaqat nafis tabiat qu-chog'iga, balki me'moriy obidalar ichiga: saroylar, qasrlar, ko'shiklar, maqbaralar muhitiga olib kirib, bu san'atning yangi yo'nalishini yaratdi.


«Chorbog'» ko'rinishidagi bog' g'oyasi tugallangan holda va to'liq Boburning avlodlari — Akbar, Jahongirshoh, Shohjahon tomonidan Hindistonda qurilgan Boburiylar bog'larida mujassamlanadi. Masalan, butun jahonga mashhur bo'lgan Toj-Mahal (XVII asr) maqbarasining bosh kirishi oldida maqbara bog'i harpo etilgan (15-rasmlar jadvalining 3-a-rasmi). Bu davrning eng buyuk tarixiy obidalari Toj-Mahal maqbarasi Shohjahonning sevimli rafiqasi Orzumandbonu (Mumtoz Mahalning) so'nmas xotirasi uchun quriladi. Toj-Mahal ham va boshqa maqbara bog'lar Chorbog' uslubida rivojlangan.

Toj-Mahal inshooti 2 km uzoqlikda Jamna daryosining qin'og'ida Agra saroyi joylashgan (15-rasmlar jadvalining 3-b rasmi). Uni 20000 ishchi 1632-yildan 1650-yilgacha qurishgan. U 5617 m<sup>2</sup> maydonni egallaydi. U ko'rinishidan burchaklari

kesilgan kvadratga o'xshaydi. Balandligi 75 m, eni ham shuncha. Supaning ustida joylashgan uning tomonlariga machit va ibodatxonalar qurilgan usti berk ayvon joylashgan. Uning ikkisi ham qizil peschanik, oq marmar va mozaikalardan foydalanib qurilgan.

Bosh xiyobon bo'y lab o'tqazilgan keng ariqlar va hovuzlarga tushgan maqbara-saroy aksi bog' muhitiga yanada maftunkor fayz baxshida etgan. Tarixiy obidaga kiparis daraxtli xiyobonlar, bog' favvoralar va nozik to'g'ri to'rtburchak marmar ariqlar o'tgan. Bog' to'rtburchak shaklda bo'lib 16 ta qismlarga bo'lingan va to'rt tomonga o'qariqlar o'tkazilgan. Kompleksning umumiy maydoni 567–305 m ni tashkil qiladi. Inshootning materiali sifatiga Rajputandan keltirilgan oq marmar ishlataligan.

Toj-Mahalga o'xshagan Bibi-Kamakbar maqbara saroyi bilan bog' Hindistonning Auranobod shahrida joylashgan. Shohjahoning Loxurdagi Shalimar bog'i 1637-yilda yaratilgan (31-rasm).



31-rasm. Shohjahoning Loxurdagi Shalimar bogi, N. Sagatov va Sh. Bobojonov rekonstruksiyasi.

Bog' maydoni 16 gektarga yaqin. Xiyobonlar va yo'laklar kesishgan joylarda turli shaklli favvoralar va shalolalar bunyod etilgan. Quyi va yuqori pog'onalarining tarxi bir-biriga o'xshash chorborg' ko'rinishida.

U qiyalikda joylashgan bo'lib, maydoni pog'onali uch tekis sahnga bo'lingan. Cho'zinchoq to'g'ri to'rtburchak muntazam rejadaga bog' atrofi baland devor va darvozalar bilan o'ralgan. Meridional yo'nalishdagi bog' o'qi bo'y lab markaziy xiyobon va

o'ttida o'qariq, ikki yondan esa unga parallel yonbosh xiyo-bombat o'tkazilgan. Xiyobonlarni ko'ndalang kesgan parallel yo'laklar va ariqlar bog'da kvadrat shaklidagi «chorchaman»larni himil qilgan. Bog' maydoni 16 gektarga yaqin. Xiyobonlar va yo'laklar kesishgan joylarga turli shakldagi favoralar va shalolabir buniyod etilgan. Quyi va yuqori pog'onalarining tarxi bir-biriga o'xshash chorborg' ko'rinishida.

Chorborg'larda mevali daraxtlar, gulli bo'talar va gulzorlar mayjud. O'rtadagi sahnning maydoni nisbatan kichik, unda uning kvadrat hovuz, hovuz markazida esa marmar supa joy-bilgan. Bog'ning sharqiy va g'arbiy devorlar bo'ylab bir-biriga o'shish bir oshyonli saroylar qurilgan.

Hovuzning qolgan uch tomonida marmar shiyponlar qad bu'farib turibdi, hovuzdag'i marmar supa esa sahn bilan tosh bu'priklar orqali bog'langan. Hovuzdag'i qator favoralar atrofga mohabbatxsh suv purkaydi. Bog'ning sharqiy qismidagi ravoqlar bilan bezalgan xonalarda dastlab shohning harami joylashgan bo'lib, unda xonalardan tashqari hammom va fusunkor hovuzlar bor ham. Tevarak-atrofni to'ldirib turgan atirgullarning muattar hodi qafasdag'i rango-rang to'ti qushlar dilga surur bag'ishlagan. Qatlimgan bog'i endilikda Loxur shahri bilan qo'shilib ketib, o'qliy salq va sayyoohlар dam oladigan go'zal go'shaga aylangan.

Bobur va uning avlodlari yaratgan bog'larning ayrimlari, Itoliddagi Bog'i Bobur, Itolifdag'i Bog'i Istolif, Agradagi Bog'i Xumabxon (Rombog') va bog' saroylari bizning davrimizgacha umidimiz kelmoqda. Dehlidagi Xumoyun va Sekridagi Bog'i Abdu, Srinadagi Shalmar bog'lari shular jumlasidandir. Bobur umidiga rifflagan «Bog'i Istolif» hali ham bor.

Bog' balanlikda keng supada joylashgan, bir tarafi chuqur bo'lib, Bobur aytgan Rud saroyining suvi muzdek sovuq, billur-deb timiq. Bog'ning bir tarafida Bobur qazdirgan ariqlar hali ham shovullab zilol suv oqib turibdi. Bu bog'dan Istolif shahning go'zal manzarasi ko'rinish turadi.

Hindukush tog'larining janubidagi keng, yam-yashil, meva-yodli - Kuidoman vodiysi ham uzoq-uzoqlardan ko'rinishdi. Bog' hozir ham eng sevimli istirohat joylaridan biri hisoblanadi - deb yozadi o'zbek olimi Hamidulla Hasanov.<sup>1</sup>

lashtirish hududda suvning taqsimlanishi bilan qat'iy bog'langan edi. Bog'larning «Chorbog» tarzidagi tamoyili foydalaniłgan mamlakatning ob-havo sharoitlariga bog'liq holda baland o'simliklarning fazoviy joylashtirilishi kunduzi bo'ladigan joylarini quruq iqlimga ega bo'lgan mamlakatlarda keng shakllangan daraxtlar soyasida himoya qilar yoki issiq nam iqlimda ochiq holda qolar edi.

### **1.5. Uzoq Sharq mamlakatlarining bog'-park san'ati**

Uzoq Sharq mamlakatlari bog'-park san'ati buddizm falsafasining tabiat chiroyiga bo'ysunishidan kelib chiqqan.

Fasslarning o'zgarishi, o'simliklar dunyosining ranglari almashinishiga, tog'larning ulug'verligiga, suvning shovqin va tinchligiga qarab sharq xalqlari o'z bog' va parklarida tabiat go'zalligini yaratishga harakat qilganlar. Shuning uchun Xitoy bog'-parklari boshqa davlatlardan farqli ravishda peyzaj stilida yaratilgan.


#### **1.5.1. Xitoy bog'-parklari**

Uzoq Sharqda «Buyuk devor» ortida ovropaliklar uchun sirli bo'lgan mamlakat — Xitoy joylashgan edi (16-rasmlar jadvalining 6-9-rasmlari). Uzoq vaqt bu mamlakat haqida hech kim hech nima bilmagan. Birinchi marta XIII asrda Xitoyga venetsiyalik Marko Polo borib keldi va u haqida shunday narsalar aytib berdiki, unga kamdan-kam odam ishonardi. Xitoy xalqi ilgaridan tabiatni sevgan, uning go'zalligini tushungan. Xitoy — bog'-park san'ati ildizlari eramizdan avvalgi XII asrga, ya'ni Ossuriya shaharlari gullab-yashnagan davrga borib taqaladi. Bu mamlakat bog'lari to'g'risida turli xil yozma manbalar, rasmlar va boshqa tasvirlarda bizgacha yetib kelgan birinchi ma'lumotlar er.avv. XII asrga taalluqlidir. Gap qadimgi Xitoyning birinchi bog'larini yaratgan xitoy xoqoni Cheu to'g'risida ketaapti (16-ras. jad. 1-5-rasmlari).

Cheudan keyin hokimiyat tepasiga kelgan Mu Uan turli xil inshootlari bilan hashamatli bog' yaratdi. Imperator Szin Xi Xoang o'zining 41 yillik hukmronligi davrida 1000 ga dan oshiq maydonli ulkan bog' yaratdi va unda o'zi bosib olgan saroylar sonicha saroy qurdirdi.

## XITOY BOG'LARI

16-rasmlar jadvali



1-5 - Xitoy imperatorlari bog'larida; 6-19 - Xitoy devori; 10-13 - Beyxay bog'ining devori, Pagoda ko'li va kirish darvozasi.

Xitoy eposi «Ashulalar kitobi»da imperator Ven Vang tomonidan er.avv. 1150-yilda 375 ga maydonda yaratilgan «Bilimlar bog'i» to'g'risida gapiriladi. O'sha yerda imperator Shi Xang Ti bog'i ham eslatiladi. Bog'ning chegaralari 120–130 km ni tashkil etgan. Er. av. 197-yilda boshqa hukmdor U Ti 3000 ga maydonda boshqa ulkan bog' yaratdi. Ammo qadimgi Xitoy bog'lari tarixi to'g'risida hech qanday haqqoniy ma'lumot bizgacha yetib kelmagan, shuning uchun Xitoy bog'dorchilik san'a-tining bu tomoni haqida tarixan ancha keyingi namunalarga asoslanib gapirishga to'g'ri keladi.

Xitoy bog'-park san'ati uchun diniy oqimlar in'ikosi bo'lgan chuqur simvolizm xarakterli bo'lgan. Bog'larga keluv-chilarga turli kayfiyat berishga harakat qilganlar: xursandchilik, qo'rquv, xotirjamlik va boshqalar.

An'anaviy xitoy bog'ida, avvalambor rangli toshlardan terilgan rasmli yo'laklar ko'zga tashlanadi. Mo'jizakor naqshlar, gullar, baliqlar, tovuslar, mingoyoqlar, ajdarlar tasviri bilan almashinadi.

Yo'laklar yuqoriga ko'tariluvchi va asta-sekin ko'rinnmay ketadigan egri-bugri xiyobonlarga ulanib ketadi. Atrofda g'alati shakkardagi turli xil rangdagi toshlar sochilib yotibdi. Qoyalar tepe da osilib turibdi. Ular mox va lishayniklar bilan qoplangan. Yer osti daryosining shovqini eshitilib turibdi. Bir tomonidan xunuk qarag'ay egilib turibdi, boshqa tomonidan chaqmoq kuydirgan va bo'laklarga bo'lingan daraxt tanalari.

Tezkor va sharqiragan sharshara yo'lni to'sadi, hamda ildizi bilan sug'urib olingen daraxt jo'shqin oqimga ko'ndalang holda yotibdi. Qora archa va boshqa daraxtlar quyoshni to'sib osmonga intilmoqda. Qoramtil suvda boyqush va ko'rshapalaklarning aksi ko'rinish turibdi. Qichqiriqlar shitirlashlar aks-sadosi eshitilmoxda. Qoyalar orasidan xushtaklarning ingragan, hoholagan tovushlari kelmoqda.

Yo'lovchini qo'rqinch qoplaydi, bejiz xitoy bog'bonlari uni sahma yoki **qo'rqinch peyzaji** deb atamaydilar. Ammo, mana burilish, kutilmagan qorong'i g'orga kirish va .... siz kulyapsiz. Toshdag'i teshik yoki g'ordan qarama-qarshi chiqish shunday jozibali ko'rinishni ochadiki, sizni sevinch qamraydi. Daraxtlarning quyosh bilan yoritilgan quvnoq, yorqin yashil barglari va shunday uzoqlik tomoshabin oldida — **xursandchilik peyzaji**.

*Shinioliy tepalik yashilga burkangan,  
o'sha yerda, ko 'ldan shimolda  
Kulglli orxideya orasida, uning chiroyi yashnaydi yorqin.  
Igilib bukilib, suvni janubdan daryoga olib keladi,  
Yo yo'qolar, yo yorug'roq, ko 'k o'rmonlar orasida.*


*Van Vey*

Qo'rinchli va kuluvchi peyzajlardan tashqari yana **maftun-**  
**kor peyzaj** yoki **romantik peyzaj** — uzoq qoyada romantik ob-  
havo, yo'lbars orqasi kabi egilgan ko'pri va suvga egilib turgan  
majmuntol shohlari yengil ma'yuslik soladilar (17-rasmlar  
judvalining 4-rasmi).

*\*Suvlar jarangida kuz oymomasi  
Ko 'ning janub tomonida osoyishtalik va jimlik  
Lotos menga qandaydir g'amginlik to 'g'risida gapirmoqchi  
G'umg'inlik bilan mening qalbimni to 'ldirsin.*

*Li Bo*

Xitoy bog' va parklarida issiq iqlimda faqat go'zallik emas,  
bulki salqinlik beradigan suvga katta o'rinn ajratadilar. Suv bilan  
katta ochiqlik bekiladi, ularning orasida orollar, orolchalar, tor  
yu'lchachalar yoyilgan. Pekin yaqinida 330 ga hududga yoyilgan  
dunyoning mashhur parklaridan biri **Ikeyuan** — Yozgi saroy  
parki joylashgan (35-rasm).




35-rasm. Ikeyuan parkining rejasi.

Parkning faqat beshdan bir qismi tog'ga, uzun yerga va  
urollarga to'g'ri keladi, beshdan to'rt qismini suv egallaydi.

Ikeyuan parkining murakkab tarhi o'zida Xitoyning barcha  
landshaftlari tipik xususiyatlarini mujassamlashtirgan. Bu yerda  
Xitoyning diqqatga sazovor joylari va eng chiroyli yerlarining  
nusxulari keltirilgan. XVIII asrda Sin-iyuan — «Toza suv oquv-  
chi park» deb nomlandi.

## XITOY BOG'LARI

17-rasmlar jadvali



Xitoy bog'larining landshafti va bog'lar kompozitsiya elementlari:

- 1-2 – suvli bog'lari peyzajlari; 3 – qo'rqtadigan peyzajlar kompozitsiyasining qismi;  
4 – bukri ko'prikcha va uning suvda ko'rinishi; 5 – suv bog'i atrofidagi galereya;  
6 – uyning dumaloq eshigi; 6-10 xitoy uylarining yengil panjaralari; 11 – suv bog'ining  
yashil gilami.

**Beyxay parki** Pekinning markazida joylashgan. Maydonining 104 ga dan 54 hektarini ko'lllar ishg'ol etgan (36-rasm va 16-tasmlar jadvalining 10–13-rasmlari).



36-rasm. Beyxay parkining rejası.

Bu park xitoy bog' arxitekturasining eski an'analarida yaratilgan. Unda markaziy o'rinni orol ko'rinishidagi, bir tomondan oq toshli perilali galereyalar bilan o'ralgan baland tog' egallaydi. Boshqa tomondan suv ustida «Besh ajdar» pavilyoni osilib tushgan. Tog'ning o'rta qismida grotlar o'rnatilgan, eng yuqorisida esa terrasalar, ibodatxonalar, pavilyonlar joylashgan. Prakda oval «Shivirlash devori» bor, bu devorga yaqin turib sekin-sekin shivirlansa, boshqa tomondan sekin xo'rsinish aniq eshitiladi.

### 1.5.2. Yaponiya bog'-parklari

Yapon bog'i va Yevropa bog'i nafaqat bir-birgiga o'xshamaydi yoki turlicha, qandaydir darajada qarama-qarshidir. Yevropa parki – inson tomonidan o'zgartirilgan tabiatdir. Bu har doim dekorativ «yaxshilangan» tabiat, aqlan qurilgan, erkinlik va uyushmagan olam ustidan g'alabadir. Shunga qaramidan, Yevropa bog'lari XVII asr oxiri va XVIII asrda xitoy bog'lariiga ta'sirini o'tkazgan. Yapon bog'iga bu ta'sir bir necha prototip sifatida xizmat qiladi.

Badiiy hodisa sifatida yapon bog'i X–XII asrlarda shakllandidi XIV–XVI asrlarda gullab yashnadi. O'tmishda tug'ilgan va

o'rta asr davrida yapon bog'lari san'atining gullab yashnashida ko'p tomonlama va bu davr inson madaniyatining rivojida bir-biriga bog'liqdir. Yapon san'ati tilining alohidaligi yevropa xalqlari san'ati tilidan sezilarli darajada tabiat yo'nalishi asoslangan, moslashgan holda shakllandi.

Bog'larning ko'p xilligi va shu bilan birga ularning yagona ildizi va tamoyillarini Yaponiyaning qadimiy poytaxti Kiotoda hammadan yaxshi his etish mumkin. ularning ko'pchiligi monastir komplekslarida joylashgan, chunki bog' san'ati ko'p jihad dan buddizm ideallari bilan bog'liqdir. Masalan: Doytokuden, Daysen-in, Dzerruridzm, Mureku-tn, Bedoni va Ryoandzi monastir bog'laridir (37-rasm va 18-rasmlar jadvali).



37-rasm. Ryoandzi monastir bog'i:  
bog'ning falsafasi shundan iboratki, odam qaysi tomondan qaramasa, bog'ning  
15 toshidan faqat 14-tasini ko'radi.

Tosh va bambukning bir nechta shoxi – bu endi kompozitsiya, bu – «Bog'». Bir necha kvadrat metr, oq dengiz toshi to'kilgan maydonchada turli shaklli toshlar guruhi qo'yilgan – bu **quruq bog'** yoki **quruq peyzaj**. Bu yerda tosh haykal sifatida qabul qilinadi va ularning faqat plastik aniqligi, hajmning proporsiya bilan mos tushishi, ularni ochiq muhitda joylash-tirishni shakllantirish bog'ning estetik sifatidan dalolat beradi. Tosh o'mniga qum bo'lishi mumkin, haykal hajm esa shakli va bargining rangi bo'yicha alohida tanlangan buta orqali ham yaratilishi mumkin. Qumli bog' bilan bir qatorda alohida tur **mox bog'i** mavjud bo'lgan, masalan, XIV asrdagi **Saydyoxou bog'i**, unda o'simliklar yuzasi fakturasi va ranglar farqiga urg'u berilgan (18-rasmlar jadvali).

## YAPON BOG'LARI

18-rasmlar jadvali



Yapon bog'larining landshaft kompozitsiyasi va peyzaj elementlari:

1 - bog'larining arkitektura, o'simlik va sintezi; 2 - suv bog'i; 4 - Chayxona bog'ining hiziq'i va toshli yo'lakchasi; 5 - bog'ning kuzgi peyzaji; 6 - tosh va qumli bog'; 7 - allya gullariidan kompozitsiyalar; 8 - «Mox» bog'i; 9-11 - uy bog'lari; 12 - Kioto bog'ning ko'prikchasi va «toro» darvozasi; 13 - «Bonsay» kompozitsiyasi; 14 - Kioto bog'ining ochiq pavilyoni.

Boshqa bog'larda «asosiy qahramon» — suv edi, shuning uchun bu bog'lar suv bog'i deb atalardi. Nihoyat, **peyzaj bog'lari** tarqalgan va ular suv havzasi orollari bilan ko'priklar, turli shakldagi daraxt guruhlari, tosh pagodalari va fonarlarni o'z ichiga olgan (Katsura, Syugakuin bog'lari).

Yapon bog'lari o'z funksiyalari bo'yicha ham ajralib turgan. Kichik bog'lar atigi bir necha kvadrat metr maydonga ega bo'lib, faqat tomosha qilishga mo'ljallangan (ibodatxonalar, uylar, choy uylar qoshida) va interyerning davomi bo'lib xizmat qilganlar.

Bog' san'atining uzoq vaqt gullab yashnashi ibodatxona bog'larining ko'plab variantlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Ammo ularning ichida tuproqning xarakteriga ko'ra bog'ning ikkita bosh tipini ajratish mumkin: peyzajli bog' tepaliklari bilan — **sukiyama** va tekis bog' — **xiraniva**.

Bularning har birida uchta shakl mavjud: to'la yoyilgan shakl — «**sin**», yarim qisqartirilgan shakl — «**ge**» va qisqartirilgan shakl «**so**». O'lchamlari bo'yicha ancha katta — **landshaft bog'lari** (shartli atyganda parklar) sayr qilish uchun ham xizmat qilgan.

An'anaviy yapon bog'ining ko'p jihatlari bizning davrimizda ham hayotiy bo'lib chiqdi, ularning ta'sirchanligi beton va oyna bilan qo'shni bo'lganda yanada ortdi. Masalan, Parijda YUNESKO binosi oldida xuddi shu yapon bog'i tashkil etilgan.

## 1.6. Yevropaning XVIII—XIX asrlar peyzaj va romantik parklari

XVIII asrni g'arb tarixshunoslari — yangilik, o'rganish, o'qish davri deb atadilar. Agar regular barokko bog'lari birinchi navbatda Fransiya bilan bog'liq bo'lsa va «Fransuzlarniki» deb atalsa, klassitsizmning peyzaj bog'lari so'zsiz Angliyaga tegishlidir va «inglizlarniki» deb nom oldi.

XVIII—XIX asrlarda peyzaj parklari Angliya, Fransiya, Rossiyada keng tarqaldi, bog'-park san'ati bo'yicha nazariy asarlari va amaliy qo'llanmalar paydo bo'ldi.

### 1.6.1. Angliyani romantik peyzaj parklari

Yangi g'oyalari Angliyada jadal ravishda rivojlana boshladи, u yerda ham tabiat, ham romantizmning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi, XVIII asrning boshlarida uning rivojlanishiga qulay sharoitlar yaratildi. 1738-yili arxitektor va rassom **Vilyam Kent** Londondan 100 km uzoqlikdagi **Stou** parkini qayta rejalashtirdi (38,39-rasmlar va 19-rasmlar jadvali).

## STOU PARKI

### 19-rasmlar jadvali



Stou parkining landshaft qismlarining ko'rinishi:

- 1 — *Timpetto pavilyoni*; 2 — *Oktagon pavilyoni*; 3 — bronlangan ko'pri;  
4 — «Saksoniya» xudolaridan birining haykali; 5 — daryo; 6 — *Malikaning machiti*;  
7 — gotik machit; 8 — *Grinvill minorasi*; 9 — «Oktagon» ko'li.




Stou parkining haykallari:

- 1 — Sokrat; 2 — Likurg; 3 — Ipmionondus; 4 — Gomer; 5—8 — me'mor devorida  
Brianiyaning eng ko'rinishli odamlarining yarim haykallari (9-16): Ingo Djouns, Djon  
Mition, Shekspir, Djon Lok, Isaak Nyuton, Fransis Bekon, Qirol Alfred va boshqalar.

Bu park inson qo'li bilan yaratilgan, unda tasodifiy elementlar yo'q. O'yangan yo'llar tizimi mavjud bo'lgan, ularidan yurib jozibali peyzajlar, xiyobonlar, perspektivalarning birin-ketin almashuvini ko'rish mumkin edi, bunda saroy va park pavilyonlari muhim rol o'ynagan.

1803-yili ingliz arxitektori **Repton** park qurilishi bo'yicha ko'pchilikka ma'lum traktat yozdi. U katta amaliy ish tajribasiga ega edi. O'z parklarida u peyzaj kompozitsiyasini regular elementlari bilan muvofiqlashtirgan.



38-rasm. Stou: Alder daryosi, «Храм дружбы» va Triumfal arkaning ko'rinishi.



39-rasm. Stou parkining rejasি. V. Kent, Repton va boshqalar. 1738–1803-yy.

Reptonning XIX asr boshlarida arxitektor **Nesh** bilan bajargan eng mashhur ishi Londondagi «Ridjent parki» edi. To'g'ri chiziqli o'qlarning va doiraning suv va ko'kalamzorning erkin peyzaj rejasи bilan keskin uyg'unligi bu parkni yanada ifodali qildi. Peyzaj parklari qurish, ayniqsa, XIX asrda keng rivojlandi.

### 1.6.2. Germaniya peyzaj parklari

Aur boshida nemis maktabi birinchi o'ringa chiqdi. Uning takillari **Lenne** va **Pyukler** bizning kungacha yaxshi saqlangan ajoyib kompozitsiya yaratdilar. Lenne ijodida Podstamdag'i muzihut park «San Susi» markaziy o'rinni egallaydi (20,21-tummlar jadvali).

Ungi XVIII asrda barokko saroyi va uning qoshidagi kichik regular bog'lar qurilishi paytida asos solingan edi. XIX asr boshida Lenne ansamblni tugatdi, u saroylarni birlashtiruvchi markaziy xiyobonlar atrofida maydonchalar va daraxtzorlar tizimini yaratdi, ularni so'qmoqlar va yo'laklar kesib o'tadi. Bu uning Sharlottenxof saroyi, «Rim termalari», xitoy pavilyoni, park buykallari uyg'unlashgan holda kiritilgan.

Lennening davomchisi knyaz Pyukler-Muskau bo'ldi, u butun umri (va boyligini) landshaft parklarini qurishga bag'ishladi. Pyukler Neyse daryosi vodiysida Muskau shahri atrofida «Muskau» parkini yaratdi (40-rasm).




40-rasm. Muskau parki:  
1, 2 – park landshaftlari; 3 – Muskau saroi.

Jozibali maydonchalar kompozitsiyasi, o'rmonchalar guruhi va alohida o'tkazilgan daraxtlar, tepaliklar, daryo qirg'og'i va vodiysi bo'ylab sayr yo'laklari trassasini qurish uchun 30 yilga yaqin vaqt ketdi. Pyukler sentimental romantizmi Barntis shahri yaqinida joylashgan katta bo'limgan parkda o'zining yorqinligi bilan namoyon edi. U sehrli rangtavir parkiga ikkita yer piramidasini joylashti, birini ko'lda, boshqasini sohil bo'yida. Piramidalar Pyukler va uning mahbubasi uchun qabr ushti edi.

## SAN SUSI

20-rasmlar jadvali



Germaniyadagi Potsdam shahrida joylashgan San Susi saroyning parki:  
1 – park rejası; 2-5 – San Susi parkining peyzaj qismi.

## SAN SUSI

21-rasmlar jadvali



San Susi parkining regular qismi:

1-3 - Aypoloni, Venera va Diana haykallari; 4 - San Susi obeliski va katta saroyga baxadigan avosly xiyoboni va katta basseyin haykallari; 5 - San Susi saroyining yashil terrasalari.

### 1.6.3. Rossiyaning peyzaj parklari

XVIII asr oxiri XIX asrning boshlarida rus parklarining markaziy o'rinni peyzajli park qurilishiga beriladi. Bu parklarda barokko va klassisizm regular kompozitsiyalardan butunlikdan ajralmasdan landshaftli peyzaj kompozitsiyalar bilan mo'jizaviy bog'lanib, garmoniyani tashkil etadi. Peterburgga yaqin Pushkin shahridagi Sarskoe selo (Shoh qishlog'i) bog'-saroy park ansamblini tamoman o'zgacha xususiyatlarga ega. Bu yerdagi asosiy — Yekaterina va Aleksandrov parklari yaxlit umumiyligini kompozitsiyalarga ega. Kompozitsiyaning markazini Yekaterina saroyi tashkil etgan.

Ansamblning bosh o'qi muntazam barokko uslubida ishlangan Yekaterina parkining saroy markazi orqali o'tib, Aleksandrov parkining muntazam qismi va serhasham saroy hovlisini kesib o'tadi va hayvonlar joylashgan yashil massiv bilan tugaydi. Bu yerda saroy va parklarning asosiy muallifi arx. Rastrelliga tegishlidir (Yekaterinsk saroyi va muntazam park), arxitektor Kameron esa peyzajli park va arxitektor Kvarengi Aleksandr saroyi va parkni yaratganlar. Shu munosabatda, Sarskoe selodagi saroy va parklarning yechimi yaxlit bir uslubga, ansamblning umumiyligini kompozitsiyasiga uyg'unlashib, yagona uzviy tizimni tashkil etgan (41-rasm).



41-rasm. Sarskoe selo (Shoh qishlog'i) bog'-saroyning Yekaterina va Aleksandrov parklari.

Rossiyaning peyzajli parklarining yana bir o'ziga xos ajoyib asari Pavlovsk saroyining peyzaj parkidir. Pavlovskni 1780-yil-

du arx. Charlz Kameron loyihalagan va 1780–1786-yillarda amalga oshirgan. Pavlovsk parkining kompozitsiyasi kichik Slavyanka daryosi sohillari va ularning irmoqlari bo'ylab shakllantirilgan. Bu yerda o'simliklar guruhi, yo'lkalar, qurish maydonchalar, kichik me'moriy inshootlar yordamida ustalik bilan biruk romantik xarakterga ega peyzajlar zanjiri shakllantirilgan (42-rasm va 22-rasmlar jadvali).



42-rasm. Pavlovsk parkining tarhi:  
I – katta va kichik yo'lduz zonalari, III – Slavyanka vodiysi.


Parkning rejaviy yechimida Slavyanka daryosining ikki tomonidan katta va kichik yo'lduzlar zonalarga bo'linadi, lekin parkning asosan landshafti erkin tabiat ko'rinishida lirik-romantik sususiyatdagi peyzaj uslubiga asoslangan. Daryo bo'ylab qayinaytaytqoh qismiga Katta Yulduz va Yangi Sevilya, Oq qayinaytaytqoh kompozitsiyalari qo'shilib, bilinmas holda park tabiiy muhitiga o'tib ketadi.

Har bir ko'rib chiqilgan bog'lar individual emotsiyonal baryonna ega. Shu bilan bir qatorda bu ansambllarning katta o'shi manzilqiy kompozitsiyasi, yagona gumanistik o'lchamlari, har birining umuman va alohida fragmentlari estetik qabul qilinadi.

Pojetburndagi Gatchina bog'-park ansamblini ham vujudga belgan (21-rasmlar jadvali). Har ikkala, Pavlovsk va Gatchina parklari, ham kompozitsiya markazini, park saroyi va ular qo'shibligi sohillari va tabiiy ko'l tashkil qiladi.

## PAVLOVSK PARKI

22-rasmlar jadvali



Pavlovsk parkining peyzajlari:

- 1 — «Xram Drubi» pavilyoni; 2 — «Viskont» ko'prigi; 3,4 — «Pil» minorasi atrofidagi landshaft (eski gravyurada) «Pil» minorasi va «Viskont» ko'prigining hozirgi holi;  
5 — Slavyanka daryosi; 6 — «Belyaya bereza» atrofidagi peyzaj; 7,8 — Slavyanka daryosining atrofidagi peyzajlar.

Illi parklardagi barcha elementlar, yo'lak va mo'jaz me'moriy shakllar, bino va inshootlar, daraxtlar guruhi va gulzorlar, moyazorlar va o't-o'lanlar parkda betakror romantik mo'jizakor tabiat ko'rinishlari tizimini vujudga keltirgan. Faqat park saroy-bari qoshidagi maydonlargina qisman muntazam rejaviy yechim-ligiga ega.

Ayni paytda, har ikkala park ham bir-biridan o'zining emotsional estetik ko'lami bilan ajralib turadi. Agar Gatchina o'zining ma'yus va vazmin saroyi, tekis va baland dov-daraxt-bati mahobatli imoratlari bilan qandaydir sirli va vazmin muhit bo'lib qilsa, Pavlovsk muhiti aksincha, yorug', quvnoq va ochiq rohil kompozitsiyaga, dilkash park imoratlariga ega. Shuning uchun ham Pavlovsk ansambli nafaqat Rossianing, balki Yevropaning ham eng yaxshi parklar asarlari sirasiga kiradi. Pavlovskda har bir park elementi o'zining me'moriy va landscape yechimi bilan takomiliga yetkazilib parkning umumiy romantik g'oyasiga bo'ysundiradi.<sup>13</sup>

XVIII asr oxiriga kelib, rus chorborg'i tipi to'liq shakllanib bo'ldi. Rus chorborg'lari o'zlarining lirikligi bilan alohida ajralib turgan. Ularda har doim o'rab turgan atrof peyzaji, chorborg' bo'lgan shakli bilan fazoviy tabiiy bog'liqlik bo'lgan.

Bog'ning yetakchi tipi – usadba. Shahar uylari – usadba-bati shahar yo'lidan kurdonyer<sup>14</sup> bilan ajratildi, shahar atrofdagi usadbalar esa yo'lidan ko'pincha cho'zinchoq xiyobon orqali hujjat keltingan bo'lardi. Bog'lar esa usadba uyi orqasida joylashtiladi, ko'pincha daryo sohili yoki suv havzasini bilan tugatiladi.


Moskva shahri usadbalarining eng yaxshilari Pashkov uyi (ars. Bajenov) va Golitsin kasalxonasi (ars. M. Kazakov)ni ko'rsatish mumkin. Pashkov uyi qoshidagi bog' Kremlga, Neglinka daryosiga chiqqan. Golitsin kasalxonasi bog'i esa terrasalar bilan pastki havzalarga tushgan va so'ngra Moskva daryosiga kelib qo'shiladi. Lekin Pashkov va Golitsin usadbalarining bog'lari boshqa usababardan farqlanadi – ular jamoa va kasalxona bog'lar.

XVIII asr oxiriga kelib, rus usadba bog'larining shakllanishi olib choyinga yetkaziladi. Uning markazini usadba uyi, uyning atrofini esa xo'jalik imoratlari, polizlar va xo'jalik bog'lari egallaydi.

13 Григорьев С.С. История ландшафтной архитектуры. – М., 1994, 90 с.  
14 kurdonyer – serhuslum va tantanavor hovli.

## GATCHINA PARKI

23-rasmlar jadvali



Peterburg atrofidagi Gatchina saroyining peyzaj parki:  
1, 2 — «Белое озеро» peyzajlari; 3, 4 — «Карповый пруд» peyzajlari; 5 — «Apsida»  
pavilyoni; 6 — eski me'moriy saqlangan peyzaji; 7,8 — Gatchina ko'prikhaları.

Usadbada uy yonida muntazam «Fransuzcha» — parter, atrof cheti esa peyzaj parkka aylanib ketadi. Usadbalarning o'zbeklari va rejaviy tuzilishi cheksiz tarzda o'zgarib turadi.

Soddaroq usadbalarning «Fransuzcha» qismi klumba bilan chegaralansa, «inglizcha» qismi uy oldida daraxtlarga ko'rinish beruvchi maysazor bilan chegaralanadi. Boy zodagonlarga qarabli shahardagi katta usadbalar o'zlarining ko'lami va serhamatligidan Peterburg atroflari saroy bog'lariga tenglashadi.

Ular qatorida Moskva atrofida Kuskovo (43-rasm), Ostanino, Suritsino, Arxangelskoe va boshqa usadba bog'ları ellikidan oshiq edi.

Peterburg va Moskva atroflarida Rossiya uchun yangi bog-park san'ati g'oyalari, XIX asr birinchi yarmida nafisat Rossiyaga, balki Ukrainaga ham tarqaladi. Ukrainadagi Uman shahridagi Sofiyevka, Alenksandriya va boshqalarni keltingish mumkin (44-rasm).



43-rasm. Moskvadagi Kuskovo parki.



44-rasm. Ukrainadagi Sofievka parki.

#### 1.6.4. Shaharlarning XVIII—XIX asrlar landshaft kompozitsiyalari

XVIII asr shahar landshaft kompozitsiyalarining anchagini o'zgartirish bilan belgilanadi. Yangi ijtimoiy formatsiya — kapitalizm shaharlari o'zlarining qal'a funksiyasini yo'qotib, qayta qurish va rekonstruksiyaga duchor bo'ldilar.

Yevropadagi shahar maydonlari barokko davridagi an'analarini davom ettirdilar va rivojlantirdilar, bu yerda kichik shakllar va haykallardan foydalanilgan. XVIII asr Yevropa maydonlarining eng yaxshi namunalariga **Vandom maydoni** va **Rozilik maydoni** kiradi. Angliya **Bat shahri** maydoni yangi tipdagisi shahar makoni — **skverning** yoki boshqacha qilib aytganda **ko'k-lamzorlashgan shahar fazolar** shakllanishiga asos bo'lib xizmat qildi. Ba'zi yirik shaharlarda, shahar devorlarini buza boshladilar. Paydo bo'lган keng maydonlarda xuddi Lenotr Parijdag'i Yelisey dalalaridagi kabi bulvarlar qurildi. Birinchi **Parij bulvarlari** XVIII asr boshida buzilgan shahar devorlarini almashtidilar. Londondagi **Ridjent** va **Gayd parklari** ketidan peyzaj tarhlarga boshqa mamlakatlarning shahar parklari ham ega bo'la boshladilar. Birinchilardan shunday parklarga Parijdag'i **Bulon o'rmonini** keltirish mumkin.

XVIII—XIX asrlarda Rossiya shaharlarining ochiq fazoviy arxitekturasi ham yuqori darajada rivojlangan edi. Uning bog'park san'ati bilan aloqasi tafsinga sazovordir. Peterburg tarhi kompozitsion asoslarda ishlanib, XVIII asrda 400 dan ortiq rus shaharlari tarhini qayta ishlashda rivojlanib bordi. Fransuz bog'park san'ati estetikasi Peterburgni loyihalashga jiddiy ta'sir ko'rsatib, keyinchalik butun Rossiya hududiga tarqaldi.

Moskvada Oq shahar devorlarini 1770-yili buzib, uning o'rnidagi **Bulvar halqasini** qurdilar. Shahar maydonidagi skverlar, bulvarlar doimiy geometrik tarhni oldi. Daraxtlar ekilgan keng ko'chalar va qirg'oq bo'yulari XIX asr poyoniga kelib doimiy amaliyotga aylandi. Shaharlar obodonlashgan markazlarga ega bo'ldi.

Shaharliklarning sayr qilishlari uchun qurilgan shahar bog'larini ham rivojlanildi. Ulardan biri Angliyadan chiqib kelgan «**voksal**» (keyinchalik «vokzal» deb atalangan) bog'lari. Keyingi vaqtida, XX asrda, «**vokzal**» bog'larining qiziqarli dam olish va madaniyatni oshirish funksiyalari sovet davrining madaniyat va istirohat bog'larini loyihalashga ta'siri katta bo'lgan edi.

Shu paytgacha o'zining ilgarigi funksiyasini bajarayotgan Moskva bulvarlari, Peterburg, Yaroslavl, Tver qirg'oq bo'yulari, Vladimir, Penza, Voronej shahar bog'lari Rossiyada shahar landshaftlari madaniyati keng tarqalganligiga guvohlik beradi.

Peyzaj kompozitsiyalari bog'-park san'ating klassisizm davri uchun eng qadriligi bilan tavsiflanadi. Birinchi parklar ichida umumiy shahar parklari erkin tarhlarga ega edi.

## **II QISM. LANDSHAFT ARXITEKTURASINING ZAMONAVIY RIVOJLANISHI**

### **2.1. Landshaftlar va zamonaviy landshaft arxitekturasi to‘g‘risida tushunchalar**

#### **2.1.1. Landshaftlar to‘g‘risida tushunchalar**

Geografik tushunchada landshaft bu tabiiy chegaralar bilan o‘ralgan bir jinsli quruqlik maydonni bo‘lib, bu chegaralarda landshaftning tabiiy elementlari<sup>15</sup> o‘zaro bog‘liq va o‘zaro aloqnda bo‘lgan yagonalikni tashkil etadi. Bir jinsli hududlar – tayga, tropik, o‘rmonlar, tundra landshaftlarida mayda tabiiy birliklar – geografik landshaftning tarkibiy qismlari mavjud. Zamnaviy landshaft arxitekturasida tabiiy va antropogen landshaft tushunchasi ajratiladi (1-jadval).

#### **Tabiiy landshaftlarning asosiy turlari va ko‘rinishlari**

**1-jadval**

<b>Ilu jinsi landshaftlar</b>	<b>Bir jinsi landshaftlar turlari va xillari</b>	<b>Landshaftlarning aralash turlari</b>
Tog'	Baland tog' O‘rtacha tog' Adir	Tog‘-suqli Tog‘-o‘rmonli Tog‘-dashti
O‘rmon	Tropik o‘rmonlar Tayga o‘rmonlari Jungli va boshqalar	O‘rmon-dasht O‘rmon-tundra O‘rmon-tog‘
Suvli	Okean Dengiz Ko‘l Daryo	Tog‘-okean Tog‘-dengiz O‘rmon-ko‘li O‘rmon-daryo
Qumli	Qumli Chakalakzorlar va boshqalar	Tog‘ qazilmalari yerlari
Dasht	Tundra Cho‘l va boshqalar	O‘rmon-dasht

<sup>15</sup> Landshaftning tabiiy elementlari: ob-havo, relyev, suv, tuproq, o‘simlik va tuncagiz, turning vakili hisoblangan odamni ham hisobga olgandagi barcha jonli shaxsdot kirdi.

Ammo yer yuzida inson tegmagan tabiiy landshaftlar juda kam. Xo'jalik faoliyati jarayonida ayrim tabiiy komponentlarni birinchi navbatda o'simliklarni, tuproqni, suvni, hayvonat duynosini o'zgartiradi. Bunday o'zgartirishlar landshaftda qaror topgan aloqalar va tabiiy komponentlar o'zaro ta'sirlarni buzadi.

Hududlarni o'zlashtirish zarurligi va insonning tabiat ichiga singib borishi landshaftning o'zgarishiga sabab bo'ladi, yo'llar tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, zavodlar, posyolkalar vujudga keladi. Ya'ni insonning aralashuvi bilan landshaft antropogen – inson o'zgartirgan landshaftga aylanadi (24-rasmlar jadval).

Antropogen landshaftlar insonning xo'jalik faoliyati mavjud bo'lgan davrlardan biri bor (24-rasmlar jadvalning 2-rasmi). Dastlab ular yer landshaftlarini shakllanishining aralashuvi bilan o'zgarib ketdi.

Bu hodisalar jadallashmoqda va o'zgarish jarayoni hamda biogen landshaftlardagi o'zgarishlar obyektiv muqarrardir. 2-jadvalda antropogen landshaftlarning tasnifi berilgan bo'lib, u inson faoliyatining har xil turlari ta'sirida tabiiy muhitning o'zgarishini ko'rsatadi.

### Antropogen landshaftlar tasnifi

2-jadval

Sinflar	Turlar	Yerlardan foydalanish turlari
Qishloq xo'jaligi landshaftlari	Dala O'tloq-yaylov Bog' Aralash	Haydalgan yer, Dala Pichon o'rish va yaylov Bog'lar va uzumzorlar Ko'p yarusli tropik mamlakatlar
O'rmon landshaftlari	Shartli- tabiiy Ikkilamchi (hosilaviy) Madaniy o'rmon	Sun'iy ekilgan O'rmon yerkari
Suv landshaftlari	Sun'iy dengizlar Suv omborlari	Sun'iy yaratilgan suv havzalari
Texnogen landshaftlari	Texnik buzilgan landshaftlar	Avtomobil yo'llari, gidrostansiyalar, gazilmalar, olingan yerlar
Aholi yashaydigan landshaftlar	Urbanizatsiyalashgan	Shaharlar va qishloqlar, qishloq-xo'jaligi mahsulotlari ekilgan yerkari va boshqalar
Rekreatsion landshaftlar	Rekreatsion	Kurortlar, turistik markazlar va bazalar, piyajlar va boshq.

## TABIYY VA ANTROPOGEN LANDSHAFTLAR

24-rasmlar jadvali



1-rasm. Tabiiy landshaftlar:

- a - Chimyon tog'lari, O'zbekiston; b - Boltiq dengizi, Olmoniya; d - Misr cho'llari;  
e - Rossiya o'rmonlari; f - Tinch okeani qirg'og'i, Kaliforniya; g - Alp tog'lari,  
Shveysariya.



2-rasm. Antropogen landshaftlari:

- 1 - qishloq xo'jaligi landshafti, Angliya; 2 - shahar landshafti, Melburn;  
3 - qishloq xo'jaligi landshafti, Indoneziya; 4 - shahar landshafti, Venetsiya;  
5 - qishloq landshafti, Olmoniya; 6 - texnogen landshafti, Avstriya.

Shuningdek, yerning biogen landshaflarning miqdoriy qisqarishi insoniyatning bundan keyingi yashashini ta'minlashdagi ularning rolining jiddiy darajada qisqarishga olib keladi. Biroq tabiiy muhitlarni saqlab qolishda va antropogen ta'sirlarni boshidan kechiruvchi landshaftlarni o'zgarishida saqlanib qolgan tabiat «namunalari»ni o'rganibgina qolmay, balki o'zgartiruvchi landshaflarda ekologik muvozanat qonunlarini o'zlashtirib olish kerak. Bu yashash qobiliyatiga ega va barqaror landshaftlarni insonning kelajakda yashash uchun zaxira imkoniyatini shakllantirishning yagona yo'li bo'lib hisoblanadi.

### **2.1.2. Landshaft arxitektura yo'nalishning paydo bo'lishi**

XIX asr o'rtalarida landshaft arxitekturasi rivojlanishida keskin burilish yasadi. Birinchi marta insonning atrof-muhit bilan munosabatlarini tartibga solish masalasi qo'yildi. Landshaft arxitekturasi rivojlanishi, avvalo Frederik Olmsted nomi bilan bog'liq.

Maxsus bilimga ega bo'lmay turib, u 1858-yili Nyu-York Markaziy parki konkurs loyihasini yutib chiqdi, u o'zini «landshaft arxitektori» deb atadi. Markaziy park loyihasi urbanizatsiyalashgan tuman markazida tegilmagan tabiat bo'lagini saqlab qolish g'oyasini amalga oshirdi (24-rasmlar jadvali). Uning peyzaj tarhi «ingliz» bog'idan tamomila farq qiladigan xarakterda edi. Ingliz bog'inining tamoyili romantik peyzajni sun'iy shakllantirish bo'lsa, Olmsted g'oyasi tabiiy peyzajni saqlab qolish va uni qulay ko'rinish nuqtalaridan tomosha qilishni tashkil etishdan iboratdir.

Bu g'oya AQShning Kaliforniya shtatidagi Yosemit vodiysida birinchi tabiiy qo'riqxona tashkil etishga asos bo'ldi (45-rasm). Uning hududida eng jozibali, qulay ko'rinish nuqtalarini ko'rsatishni ta'minlash va tashrif buyuruvchilarining dam olishini tashkil etish bo'yicha qator tadbirlar o'tkazildi.

G'oya 1864-yilda tug'ildi, ammo oradan 50-yil o'tdi. 1916-yilda AQSh milliy parklar xizmati tuzilmaguncha. Ularni loyihalash landshaft arxitektorlari faoliyatining yangi sohasiga aylaniadi.

XIX asrning ikkinchi yarmi nafaqat tabiiy landshaftlar qimmatini tushunish bilan, balki shaharlarda bog' va parklar qurilishining anchagini kengayganligi bilan xarakterlanadi. Yangi

parklar o'zining ko'rinishi, stilistikasi, vazifasi bo'yicha har xil edi. Bog'larni «fransuz», «ingliz», «italyan» bog'lariga bo'lish yo'qoldi. Geometrik shakl va to'g'ri chiziqlar suv havzalari va yo'kkalar egri chiziqlari bilan uyg'unlashgan rejalar parklar qurilishida yetakchilik qildi.



45-rasm. Yosemit vodiysi qo'riqxonasining landshafti:  
a – Yosemit vodiysi; b – Mirror ko'li; d – Lambert daraxti.

### 2.1.3. Landshaft arxitektorlari maktabini tashkil etilishi

1898-yildayoq E.Xovard o'zining mashhur «Shaharning kelajak bog'i» kitobini nashr ettirdi, unda tabiatning shahar muhitiga keng doirada kirib borishi g'oyasini ilgari surdi. Xovard nazariyasi bo'yicha yirik shaharlar qishloq xo'jaligi yerlari yashil belbog'i bilan o'ralgan bo'lishi lozim. Undan keyin yashil belbog'ga bog' shaharlar halqasi tutashishi, ular o'zaro va markaz shahar bilan temiryo'l tizimi orqali bog'lanishi kerak (46-rasm).



46-rasm. Xovardning kelajak «Shahar-bog'ning» rejaları:  
a – shahar-bog' modeli; b – shahar-bog' va uning atroflarining asosiy  
hududlari; d – shahar-bog' va uning yo'ldoshlari.

Shundan so'ng, mutaxassislarni maqsadga muvofiq tayyorli ehtiyoji tug'ildi va 1901-yil AQSh Harvard universitetida landshaft arxitektorlarining birinchi maktabi ochildi. AQSh yangi kasbni o'zlashtirishda yetakchi o'ringa chiqdi. Landshaft arxitekturasi o'z faoliyati doirasini tezlik bilan kengaytira borib,

yanada kengroq ochiqlikni o'zlashtira bordi, ularning muhitini tashkil etishda turli yechim bilan shug'ullandi.

Xovard nazariyasi ko'p tarafdorlarga ega bo'ldi va 1903-yilda Angliyada «Birinchi shahar-bog'lar kompaniyasi» paydo bo'ldi. U, London atrofida Lechvort shahrini qurishni boshladi. Ishlar juda samarli bordi, 1914-yilga kelib, Angliya aholisining soni 9 ming kishiga yetdi. Lekin shahar bog'lari keng rivojlanmadı. Xususiy yer egalari va o'sha davrning kapitalizm sharoitlarida qurilishlarning borishiga ishonch kamroq va qiyin edi. Griffin loyihasi asosida 1920-yilda qurilishi boshlangan shahar-bog'g'oyasi Avstralaliyaning poytaxti Kanberra shahri rejasida o'zining to'la ifodasini topdi. Ikkinci jahon urushi oxirigacha landshaft arxitekturasi asosan an'anaviy bog'-park san'ati doirasida amal qildi.

Ikkinci jahon urushidan so'ng landshaft arxitekturasi rivojida yangi muhim bosqich boshlandi. U insonning tabiiy muhitiga ta'sirining keskin o'sishi xavfi bilan bog'liq tropik o'rmonlarning yo'q bo'lib ketishi, qumli cho'llarning bostirib kiriши, jahon okeanining ifloslanishi va boshqalar. Ayniqsa, tabiiy muhitning degradatsiyasi gigant (ulkan) shaharlarda keskin yuzaga keladi. Bu sharoitlarda landshaft arxitektorlarining roli turli xil landshaft muhitlarini shakllantirish va o'zgartirishda yanada kengroq qatnashuvida ifodalanadi.

1948-yili Angliyaning Kembrij shahrida 9 mamlakat vakillari Xalqaro landshaft arxitektori federatsiyasiga — IFLAga asos soldilar. Bu kasb tan olindi va BMT qoshidagi Xalqaro mehnat tashkiloti rasman kasblar ro'yxtiga kiritilgan. Hozir IFLA faoliyatida barcha kontinentlardan 50 dan ortiq mamlakat vakillari ishtirok etmoqda, ularning ko'pchiligidagi landshaft arxitektori tayyorlanadi. Har yili IFLA kongresslari o'tkaziladi, ularning har biri dolzarb zamonaviy muammolardan biriga bag'ishlanadi. Hozirgi zamondagi landshaft arxitekturasida 4 yo'nalish mavjud.

«Landshaft rejalshtirish» juda katta ahamiyatga ega, u turli xildagi landshaft muhitlari bilan tegilmagan qo'riqxonalar tabiatdan inson tomonidan intensiv ekspluatatsiya qilinayotgan tabiiy tumanlarga uзвиy bog'liqdir. Landshaft rejalshtirishda shug'ullanadigan masalalar doirasiga yana quyidagilar kiradi: buzilgan landshaftlarni tiklash, yo'l va yo'l inshootlarini trassalash va loyihalash, sanoat va qishloq xo'jaligi hududlarini, dam olish,

turizm va boshqalar landshaftini tashkil etish. Keyingi yillarda hududiy landshaftni rejalashtirishga qiziqish ancha o'sdi. Masaan, landshaft-rekreatsion rivojlanishini tumanni landshaft tizimlariga bo'lishdan boshlanadi.

Landshaft arxitekturasining ikkinchi yirik yo'nalishi bo'lib shaharlar va urbanizatsiyalashgan tumanlarning landshaft tarkibini shakllantirish oldinga chiqdi. Bu yo'nalish anachagini osusiy muammolarni keltirib chiqardi. Ularda shaharlarning effektiv ko'kalamzor tizimini yaratish markaziy muammodir. Xovardning ishlari bu sohada tadqiqotlar o'tkazishni boshlab boshlendi. Bu yerda sobiq ittifoq yetakchi (pioneer) bo'lib chiqdi. Moskvaning 1920, 1935, 1975-yillardagi bosh tarhlarida takliflar shaharni ko'kalamzorlashtirishga tizimli yondashib, prinsipial shumiyatga ega bo'ldi. Hattoki, dunyoning yirik shaharlarida —

Chandigarx va Braziliya shaharlari loyihalangan ko'kalamzor tizimlarini hayotda amalga oshirishning iloji bo'lmadi. Sobiq ittifoqida esa o'nlab shaharlarni ko'kalamzorlashtirish tizimini amalga oshirishga muvaffaq bo'lindi. Ularning orasida Leningrad, Kiyev, Minsk, Yerevan shaharlari o'zlarinig me'moriy jihatlari bilan ajralib turadi.

Landshaft arxitekturasining uchinchi eng keng yo'nalishi turli vazifali alohida hududlarni loyihalashni hisoblash imkonini. Avvalambor, bu bog' va parklarni loyihalash. Bog' va parklar o'zining funksional vazifasiga qarab farqlanadi (botanika, zoologiya, bolalar, sport, tematik va h.k.). Ular texnik xususiyotlarga ko'ra, masalan: tuproqda, tomda, yopiq makonda, soni y xom ashylardan qurilganiga ko'ra ham ajratiladi. Zamonaviy bog' va parklarning barcha xillarini sanab o'tish qiyin. Bog'larни loyihalash bilan alohida imoratlarning landshaft tizimini va me'moriy komplekslarining landshaft tarkibi ustida shahar ham uzviy bog'liqdir. G'arb mamlakatlarida landshaft arxitektori barcha ahamiyatli obyektlar guruhining asosiy a'zosi — umallifi bo'lib hisoblanadi.

Landshaft dizayni, bu landshaft arxitekturasining eng omadloq zamonaviy yo'nalishlaridan biridir. Kichik hududlar, tsirkular va boshqa lokal hududlar ularni bezatishga sun'iy landshaft dizaynerlik yondashuvini talab qildi.

Abunday qilib, hozirgi kunda landshaft arxitekturasi butun mayorda o'zining rivojida yangi darajalarda turibdi. U muhim tiziqil me'moriy kasb sifatida tan olindi va unga inson hayo-

tining ochiq muhitini takomillashtirish kabi katta ishlarni qilish va muammolarni yechish talab etiladi.

#### **2.1.4. Landshaft arxitekturasining maqsadi va vazifalari**

Aholining ko'payishi va inson faoliyatining har tomonlama rivojlanishi yashash muhitning doimiy ravishda o'zgarib turishi bilan o'zaro bog'liqdir. Yashash muhitini yaxshilashning landshaft arxitektura vositalari bilan yaxshilashning asosiy tajribalari bevosita insonning atrofigagina taalluqli bo'lmay, balki barcha hudi(dlarga, shaharning mahalliy hududidan boshlab mamlakat va sayyora miqyosigacha taalluqlidir. Bundan, landshaft arxitekturasining asosiy maqsadi atrof-muhitning ekologik, estetik va funksional sifatlarini uyg'unlashtirish hisoblanadi.

Biroq har qanday o'zgarishlar tasodifan va birdan yuz bermaydi – bu evolutsion jarayondur. Jamiat rivojining mazkur bosqichida landshaft arxitekturasining asosiy vazifasi urbanizatsiyalashgan muhitni rejalash va «yashil arxitektura» dizayni hamda hududni obodonlashtirish elementlari vositasida uyg'unlashtirishdir. Mazkur maqsad jamiatning hayot faoliyatining moddiy fazoviy muhitini shakllantiruvchi shahar qurilishi maqsadlari bilan yaqin bog'langandir. Shuning uchun landshaft arxitektura va shahar qurilishi maqsadlari bir-biriga chirmashib ketgan va hududni o'zlashtirishning taksonomik darajalariga muvofiq tabaqa lashtiriladi (bo'laklarga ajratiladi).

Landshaft arxitekturasining asosiy vazifalari quyidagilardir:

- muhofaza qilish;
- o'zgartirish yoki qayta yaratish (qayta qurish);
- yangi landshaftlarni yaratish.

**Muhofaza qilinuvchi (qo'riqlanuvchi) landshaftlar** davlat tomonidan qo'riqlanadiganlar ro'yxatiga kiritilgan tabiiy landshaftlar turlari hisoblanadi. Bular – qo'riqxonalar, buyurtmaxonalar, tabiiy va milliy parklar hamda tabiat haykallari hisoblanadi. O'zbekistonda tabiiy landshaftlardan 20 birlikdan ortiq rog'i qo'riqlanadi, ular orasida eng yiriklari quyidagilar: Chotqol, Hisor, Zomin, Kitob qo'riqxonaları, Ugam-Chotqol milliy parki (47-rasm) va boshqalardir. Madaniy landshaftlar ham qo'riqlanadi, masalan, Toshkentdagı «O'zbekiston milliy bog'i», Xorazm viloyatidagi qo'riqxona Xeva shahri va boshqa obyektlar.

**O'zgartirilgan (shakli almashtirilgan) landshaftlar** deb inson (moliyati)ning faoliyati natijasida o'zgartirilgan tabiiy yoki ikki-binchli landshaftlar (ularni yana madaniy landshaftlar deb ham ataladi) hisoblanadi. Masalan, bu — qishloq xo'jaligi va shahar landshaftlari, dam olish zonalari yoki bazalari, parklar va boshqalar bo'lib, ular tabiiy landshaftni o'zgartirib, landshaftning yangi shakli bo'lib qolishadi. Umuman olganda, landshaftni o'zgartirish jayoni cheksizdir. Har bir avlod ma'lum darajada atrof-muhitni o'zgartiradi, keyingi avlod esa avvalgisini o'zgartiradi.

Masalan, «O'zbekiston milliy bog'i» shahar landshaftida XX centuryning 50-yillarida yaratilgan, holbuki ko'rinishiga ko'ra, u shigar muhitida saqlanib qolgan tabiiy landshaft asosida yaratilgan o'xshaydi.



47-rasm. Ugam-Chotqol tabiiy milliy bog'i:  
Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida joylashtirilish tarhi.

Parkning butun landshafti sun'iy ko'l, relyef, o'simliklar bilan birga arxitektorlar, muhandislar, ko'kalamzorlashtiruvchilar va boshqa mutaxassislarning ijodlari mahsulidir. Shuni ham te'kidlash lozimki, park tabiiy obyekt sifatida emas, balki madaniy meros obyekti sifatida qo'riqlanadi. Bu tabiiy landshaftlarni qo'riqlash va madaniy landshaftlarni qo'riqlash degan tushunchalar o'rtasidagi farqni ko'rsatadi.

Yevropada landshaftlarni o'zgartirish bo'yicha yetakchi o'rinni GFR egalaydi. Jumladan, Germaniyaning Disbur shahrida (uyulgi ko'mir qazib olinadigan markazda) ko'mir qazib olish va uni qayta ishlash bo'yicha sobiq ishlab chiqarish majmuasida «Landshaft parki» yaratilgan (25-rasmlar jadvalinig 1-rasmi).

## LANDSHAFTLARNI O'ZGARTIRISH

25-rasmlar jadvali



1-rasm. Disburg shahrida toshko'mir ishlab chiqaraladigan joydagi landshaft parki:  
a-b-d – zavod binolaridan qolgan va saqlangan eski injener konstruksiyalar – park  
muhitiga ekspressiya va dinamizm bag'ishlaydi; e-f-g – domna o'rniда rekreatsion  
maydonchalar yaratilgan.



2-rasm. Landshaftlarni o'zgartirish va yangilarini yaratish – Burchatov bog'lari,  
AQSh:

1 – sobiq sement ishlab chiqarish hududining buzilgan landshafti ko'rinishi;  
2,9 – bog'lari va parklar – yangi, ko'l bilan yaratilgan, ikkilamchi tabiat.

Bu parkining o'ziga xos xususiyati shundaki, nemislar ishlab chiqarish inshootlarining tashqi to'siqlarini olib tashlab, ularning texnologik konstruksiyalarini saqlab qolgani holda (domma pechlari, metall rovonlar, quvurlar va boshq.), ularning o'tasida turli xil mavzudagi bog'lar, attraktiv qurilmalar, sport, trener o'yinlar maydonchalari va boshqa ko'pgina qiziqarli hududlari bo'lgan park barpo qilishdi. Natijada, avvalgi sanoat hududi shaharning eng sevimli joyiga aylandi, u yerda yilning etalgan faslida, doimo, har xil yoshdag'i dam oluvchilar bo'ladi.

Landshaft parklarning yaratilishi – industriallashtirish davri boshidan kechirgan mamlakatlarda juda ham ommaviy tus olgan. Yevropa mamlakatlarda «o'z umrini yashab bo'lgan» ta'blidiq fabrikalar, zavodlar va ishlab chiqarish obyektlari yada ko'p. Yangi ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish munosabati bilan bu obyektlar keraksiz bo'lib qoldi. Landshaftlar Germaniyaning ko'pgina shahar va shahar tashqarisidagi maydonlarida joylashtirilgan bo'lib, ularning landshaft o'zgarishlari umuman mamlakat landshafti o'zgarishlariga ta'sir etadi.

Bundan tashqari, «Barqaror rivojlanish»ga jiddiy yo'naltirilmaganlik oqibatida shahar, qishloq va boshqa joylarda (bunga shaharlarning jamoatchilik markazlari, turar joy qurilish hududlari, rekreatsion, texnik va boshqa hududlar ham kiradi) landshaftlarning eskirib qolgan shakllarining 80%gacha landshaftni buol o'zgartirish bilan qamrab olingen. Natijada, Germaniya mamlakat hududini makro-, mezo- va mikro-landshaft o'zgarishlilar sohasida dunyoda va Yevropa Ittifoqida yetakchi o'rindan birini egallaydi.

**Landshaftlarni qayta tiklash** – bu eskirgan landshaftni qayta tiklashdir. Tabiiy landshaft ham, qo'l bilan yaratilgan landshaft ham ana shunday bo'lishi mumkin. Agar tabiiy muhitda landshaft va uning elementlari (o'simlik, hayvonot dunyosi, tuproq, suv) insonning aralashuvlari yangilanib borsa, u holda qo'l bilan yaratilgan landshaftda (bog', park va boshq.) uning rivojlanishiga qarab turish kerak bo'ladi. Ayniqsa, bu yashash davri qisqa bo'lgan o'tlar va gulli ekinlarga tegishlidir, chunki ular, hatto mavsum davri «ichida» ham keraklicha parvarish qilinmasi so'liydi va buzildi.

Tarixiy bog'larda va parklarda landshaftning dastlabki mafuzasini tiklash uchun deyarli hammasini almashtirish kerak:

yer qatlamining sirtida xizmatini o'tab bo'lgan qari daraxtlar va butalar, kichik shakllar, muhandislik qurilmalari, shuningdek, suv havzalarini tozalash va hatto *bioharxillikni* tiklash kerak. Bu ayniqsa, landshaft obyektini yaratilagan davrga xos usulda maksimal tiklash talab qilinganda juda muhimdir. Bu muntazam usulida yaratilgan landshaftlarda to'la erishsa bo'ladi, u yerda kompozitsiya geometriyasini, o'simliklarini qirqib turishni, gulzorlarning ornamentini (bezalishini), suv qurilmalarini, yer qoplamarini va kichik me'moriy shakllarni loyihalar, chizmlar, rasmlar va fantomateriallar mavjud bo'lganda qayta tiklash mumkin. Biroq landshaftning erkin o'suvchi daraxtlari, butalaring, suv havzalarining va boshqa elementlarining aniq nusxasini peyzaj usulidagi bog'larda va parklarda qayta tiklash landshaft ijodiyotining eng murakkab jarayonidir. Uni dastlabki ilmiy izlanishlar va aniq nusxalarni qayta tiklagandan so'nggi restavratorning juda nozik ishi bilan taqqoslash mumkin.

Bog' va parklarni qayta tiklash sohasida ilg'or mamlakat Yaponiya hisoblanadi. Bu yerda, restavratsiya va rekonstruksiyaning boshqa sohalaridagi kabi mayda-chuyda narsalar yo'q. Yaponianing tarixiy bog'larida va parklarida rekonstruksiya qilish ishlari amaliy jihatdan to'xtatilmaydi, shu sababli qarimaydigan landshaft ko'rinishi yaratiladi. Bu yangilanishni talab qiluvchi joylarni juda diqqat bilan ko'zdan kechirish kerak.

Masalan, hatto yo'lga terib to'shalgan toshlardan yeyilib ketgani yoki yorilgani ham, «Yo'sinlar bog'i»dagi zangori gilamning ma'lum bir qismidagi qurigan yo'sin yoki ariqdagi singan bambuk kabi arzimagan kichik narsa ham tegishli nusxasi bilan almashtiriladi. Ular maxsus qayta tiklash ustaxonalarida yoki ko'chatzorlarda tayyorlanadi, u yerda yangi toshlar say-qalanadi va «eski» holatiga keltiriladi, yo'sin, bambuk va boshqa o'simliklar esa parvarish qilib yetishtiriladi va aslini iloji boricha aniq almashtirish uchun modellashtiriladi.

**Yangi landshaftlar** — bu tabiatning ilk holatida «noldan boshlab» yoki buzilgan tabiat asosida yaratgan landshaftlar hisoblanadi. Shu tarzda sahroda shahar — vohalar, tog'larda rekreatsion majmular, buzilgan, noqulay va boshqa yerlarda yangi landshaftlar paydo bo'ladi. Bu jihatdan, Amerikaning Florida shtatida 1898-yilda shakllangan Burchatovlar oilasining bog'ları namunasi juda ajoyib misoldir (25-rasmlar jadvalining 2-rasmi).

Uayron qoldiradigan joyi shundaki, bu go'zal bog'lar bu-sig'an landshaft o'rnida qurilgan, ya'ni sement sanoati uchun sonmashyo qazib olish bo'yicha karyer o'rnida. Bog'larni qurishiga 1898-yilda Emma Burchat asos soldi, uning avlodlari esa bog'ni shu darajada takomillashtirishdiki, «Burchatov bog'lari» solqaro turizm obyektiga aylandi.

### **2.1.5. Hududlarni landshaftli tashkil etish darajalar**

Landshaft arxitekturasining maqsadlari va vazifalarini aniqlashdan tashqari landshaft arxitektori uning keng amaliyotida nima bilan shug'ullanishini tasavvur etish juda muhimdir. Landshaft loyihalash muhitini insonning bevosita o'rabi turishidan shuhar, qishloq muhitidan to mintaqaviy maydonlarni landshaft-ekologik, landshaft-rekreatsion va landshaft-estetik sifatlarga yetkazishgacha bo'lgan maqsadni nazarda tutadi (26-rasmlar jodiyati).

Shu munosabat bilan loyihalashning turli darajalarida hududlarni arxitektura-landshaftli tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash zarur.

- **Landshaft dizayni darjasasi** — insonni bevosita o'rabi turgan maydon (shahar ochiq mikromaydonlari: xiyobonlari, bulyvarlar va sohillar, piyodalar yuradigan va transport kuchalar, turor joylardagi bog'lar, binolar atrofidagi maydonlar va h.k. landshaft elementlarini — yerni geoplastikasini, o'simliklar kompozitsiyasini, suv qurilmalari va yerning qattiq qoplamlalari — mikro-loyihalashtiradi, kichik arxitektura, badiiy shakllari va matallyutsialardan foydalanadi (26-rasmilar jadvalining 4-rasmi).

- **Landshaft arxitekturasinig darjasasi** — rekreatsion obyektlarning parklar, dam olish zonalari va bazalari, turistik majmuular, kurort majmuulari va boshqa ochiq maydonlar landshaftini loyihalashtiradi. Bu yerda, landshaftni rejallashtirish modalari bilan bir qatorda, hududni landshaft-rekreatsion ushligi etishi muhim o'rinni egallaydi. Bu yerda landshaft arxiyalig'i yoki landshaft dizayner maydonlarni landshaft dizayning yuqorida nytib o'tilgan vositalaridan foydalaniлади (26-rasmilar jadvalining 3-rasmi).

## LANDSHAFT MAYDONLARINI TASHKIL ETISH DARAJALARI

26-rasmlar jadvali



1-rasm. Regionning (mamlakatning  
landshaft rejelashtirish darajasi)

landshaft rejelashtirish

makro daraja



2-rasm. Shaharning landshaft  
rejelashtirish darajasi

landshaft shaharsozligi

mezo daraja



3-rasm. Mahalliy hududning  
landshaft tashkil etish darajasi

landshaft arxitekturasi

mahalliy daraja



4-rasm. Mikro maydonlarning  
landshaft tashkil etish darajasi

landshaft dizayni

mikro daraja

• Shaharning landshaft-rejalashtirish darajasi — landshaft boribolash shahar qurilishi tuzilmasi bilan jips bog'langan, shaharning landshaft rejalahtirishi unga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy, ekologik, estetik, funksional — rejalahtiruvchi omillarni hisobga olishi kerak. Bu yerda landshaft arxitektori shahar muhitining dizayni bilan shug'ullanmaydi, uning vazifalari ko'kamorlashtirilgan fazolarning ishlab chiqarish — rejalahtirishini tashkil etilishining muvozanatini izlash, ochiq (qurilmaq) va qurilgan fazolar parametrlarining qulay munosabatlarini aniqlash hisoblanadi. Mazkur ishning natijasi ko'kamorlashtirilgan fazolar sistemasining asosiy vazifalarini ajratish, bir tekis taqsimlash va funksional zonalarga ajratish hamda shahar ochiq fazolarini landshaft-rekreatsion tashkil etish xemasi hisoblanadi, shuningdek, shahar fazolarining ekologik mobilitatsiya sxemalari, shaharni landshaft-estetik tashkil etish sxemalari, gulzorli bezatilish sxemalari hisoblanadi (26-rasmlar jadvalining 3-rasmi).

• Regionning (mamlakatning) landshaft-rejalashtirish darajasi — bu yerda landshaft arxitektorining faoliyati iqtisodiy geografiya asoslarini, ekologiyani, tumanni rejalahtirishni, hududlarni landshaft-rekreatsion tashkil etishni va estetik rejalahtirishni mukammal bilishi bilan bog'liq bo'ladi. Bugungi kunga kelib, O'zbekistonda landshaft rejalahtirish masalalari tuman rejalahtirish xemasining tarkibiy qismiga kiradi. Biroq ekologiyaning ortib borayotgan muammolari tabiiy hamda yer resurslarini qo'riqlash, muholaza qilish zarurligi, shuningdek, buzilgan yerlarni tiklash va noqulay yerlarni o'zgartirish landshaft rejalahtirish muammolarini chiqur o'rganish zarurligini va ularni O'zbekiston Respublikasining atrof-muhiti barqarorligini yaxshilashga qaratilgan kasbiy faoliyatning mustaqil turiga ajratilishi zarurligini aktuallashtiradi. Landshaft rejalahtirishida muhitning ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va estetik qulayligini oshirish muhim rol o'yndaydi (26-rasmlar jadvalining 1-rasmi).

## 2.2. Landshaft arxitekturasining shaharsozlik asoslari

### 2.2.1. Shaharlar va aholi turar joylarining landshaft rejalahtirish

Aholi punktlarini landshaftli rejalahtuning maqsadi ko'kamorlashtirish va landshaft arxitektura vositalari bilan yaxlit,

garmonik (uyg'un) shahar muhitini shakllantirish hisoblanadi. Bunda bosh vazifa atrof-muhitning tabiiy va sun'iy komponentlari orasidagi optimal munosabatni uning barcha iyerarxik sathlarini ta'minlashdan iborat bo'lib, bunda tabiatning insonga sog'lomlashtiruvchi ta'sirini kuchaytirish va sanoat hamda qurilishning tabiatga salbiy ta'sirini minimumga keltirishdir.

Shaharda va uning atrofida ayrim tabiiy majmuualarni oddiygina ajratish va saqlab qolishning o'zi yetarli emas. Shahar quruvchilarini tashqi muhit omillarining doim o'zgarishiga qaramay, tabiat bilan aloqalar susaymasdan, aksincha, kuchayib boradigan shahar va uning atrofi rivojini belgilab beruvchi turli xil, qulay va hayotiy modellarini nazorat jihatdan, keyin esa amaliy jihatdan topishlari va sinab ko'rishlari zarur.<sup>1</sup>

Aholi turar joylari, xususan shaharlar va asosan yirik shaharlar turli funksional hududlarga bo'linadigan maydonlardan iborat. Bular markaziy, chetki, sanoat, rekreatsion hududlar, tashqi transport hududlari va boshqalar. Bu hududlarni landshaftli tashkil etish aniq funksional vazifaga ham, rejali va fazoviy tashkil etishning o'ziga xos jihatlarini belgilovchi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, sanitariya-gigiyenik, shahar qurilishi va boshqa omillarga bog'liq. Bunda shaharni landshaftli rejalashtirishga asosan ikki guruh omillar ta'sir ko'rsatadi; landshaftli (yoki tabiiy) va shahar qurilishi (funksional rejalash).

Landshaft omillari, shu jumladan, tabiiy-iqlim vaziyati, shaharning qay tarzda rivojlanayotganiga — ixcham tashkil bo'lgan joy yoki chiziqli tashkil bo'lgan joy ekaniga belgilovchi ta'sir ko'rsatadi. U o'zining tashqi atrofiga keng ochilgan bo'ladimi yoki go'yo unga teskari o'girilgan bo'ladimi, bu joyning gidrografik tarmog'ining tavsifiga; balandliklarning mavjudligiga; qurilishni o'zlashtirish uchun yaroqsiz hududlarga, harorat, shamol, insolatsion tartiblarga, tuproqning unumdorligiga, o'simlik massivlarining joylashishiga va hokazolarga bog'liq. Bu landshaft omillarining ta'siri, ayniqsa, yangi shaharlarda va uncha katta bo'Imagan shaharlarda sezilarli bo'ladi. Yirik va juda katta shaharlarda landshaft omillar, o'z qiymatini saqlab qolsa-da, uncha yaqqol bo'lmaydi. Bunda shaharning ayrim tumanlari turli xil landshaft sharoitlarida bo'ladi va o'z-o'zicha rivojlanadi.

<sup>1</sup> Вергунов А.П. Архитектурно-ландшафтная организация крупного города. Л., Стройиздат, 1982.

Landshaft omilining ta'siri u yoki bu landshaft dominanta otnoli yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Masalan, daryo, balandlik, pastlik va boshqalar.

Yangilik shundaki, yirik shaharning kattalashayotgan o'lchamlari - **gorizontal** va **vertikal** - joyning landshaft o'ziga xosligini bosadi va **nivelirlaydi**. Agar balandliklar, daryolar, o'tloqlar, terrasalar, ongli shakllanayotgan landshaft sistema - suv ko'kalamzor fazolar tarkibiga kiritilsa, ular shahar muhitining tabiiy komponentlari rolini o'ynashda davom etadi.

Bunda markaziy shahar tumanlarini shahar tashqarisidagi tabiiy landshaftlar (ko'k diametrlar, o'rmon - park hududlari, dengiz va daryo ekvatorlari) bilan bog'lashga qodir bo'lgan iining elementlari alohida qimmatga ega.

Boshqa an'ana noqulay tabiiy sharoitlarni o'zgartirish va baxilgan yerlarni tiklash hisoblanadi. Landshaft sistemasini sun'iy shakllantirish borgan sari kengayib bormoqda. Navoiy, Zarafshon va shu kabi boshqa shaharlar jonsiz yarim sahro (t'ho'l) sharoitida odam tomonidan to'liq yaratildi. Bu sistematikarning o'ziga xos xususiyati shundaki, nisbatan uncha katta bo'limgan maydonlarda ular turar joy yaqinida, shaharning jamontchilik markazlarida, piyodalar o'tadigan yo'llarda joylashgan va shuning uchun juda samaralidir.

O'rmoni bo'limgan tumanlarda joylashgan shaharlarda, qimmatli qishloq xo'jaligi ekinlari orasida landshaft sistematikning rivoji xo'jalik vazifalarining rekreatsion vazifalar olib borish yo'li bilan yuz beradi.

Landshaft omillar shaharning rivojiga «bevosita» yoki «bilrosita» ta'sir etadi. Shamol rejimi noqulay bo'lgan shaharlarda shamoldam himoya qiluvchi mintaqalar katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ortiqcha insolatsiyali tumanlarda joylashgan shaharlarda ko'kalamzorlashtirilgan maydonlarning yetakchi elementlari chiziqlar - bulvarlar, ko'chalarga o'tkazilgan daraxtlar, daryo va kanal bo'yłari, shuningdek, ko'kalamzorlashtirilgan turar joy hovitlari, savdo markazlari bo'ladi, ya'ni shaharning piyodalar og'ini to'planadigan yo'nalishlari va nuqtalari bo'ladi.

Shahar qurilishi omillari - shaharning o'lchamlari, funktsional va me'moriy - rejalomchi tuzilmasi xalq xo'jaligi bo'yicha yo'nalish tabiiy sharoitlarining ma'lum darajada hosilalari bo'lib, shuning o'z navbatida teskari effekt ko'rsatadi. Ular ochiq maydonlari sistemasida ham aks etadi.

Yirik va juda yirik shaharlarda ko'kalamzorlashtirish sistemi masi hududiy va funksional jihatdan kichik va o'rtacha shaharlarga nisbatan yanada rivojlangan xarakterga ega bo'lib, o'nlab va yuzlab elementlarga ega. Agar uncha katta bo'l'magan shaharlarda, odatda bitta park (polifunksional), bitta yoki bir nechta bog', bulvar va xiyobonlar bor bo'lsa, u holda yirik va juda yirik shaharning ko'kalamzorlashtirilgan maydonlari tarkibiga botanika bog'i, zoopark (hayvonot bog'i), o'rmonpark, bir qancha madaniyat va dam olish bog'lari va hokazolar kiradi.

Shaharning xalq xo'jaligi bo'yicha yo'nalishi ko'kalamzorlashtirilgan maydonlarning tashkil etilishiga bevosita va rejalashuvchi tuzilma orqali ta'sir ko'rsatadi. Sanoat shaharlariда sanitariya-himoya qilish zonalari katta o'rin egallaydi. Shahar kurortlarida ko'kalamzorlashtirilgan maydonlar bitta yoki bir nechta kurort parklarda va dam olish uylari, sanatoriylar huzuridagi bog'larda quriladi.

Qimmatli qishloq xo'jaligi yerlari orasida joylashgan shaharlarda ko'kalamzorlashtirilgan fazolar yuzalari, odatda uncha katta bo'l'magan mevali bog'lar massivlari katta rol o'ynaydi.

Qazib olish bilan bog'liq sanoat shaharlariда ko'pincha bo'lib-bo'lib rejalanuvchi tuzilmalar shakllanib, mos ravishda ko'kalamzorlashtirilgan maydonlar bo'lingan ko'rinishni qabul qiladi. Alovida turar joy va rejalanuvchi rayonlarda, posyolklarda o'zining parklari, bog'lari, sanitariya-himoya mintaqalari va shu kabilar yuzaga keladi. Bu obyektlarning takrorlanishiga va ko'kalamzorlashtirish sistemasini maydalashishiga olib keladi.

Rejalanigan tuzilmasi bo'lingan shaharlarda yirik ko'kalamzorlashtirilgan maydonlar (ko'k ponalar, diametrlar) shahar qurilishining yagona massivini bo'laklarga ajratadilar. Ixcham shaharlarda ochiq maydonlar sistemasi chetga chiqish xarakteriga ega — yirik parklar va o'rmon parklar shahar chetiga siqib chiqarilgan. Shunday sharoitlarda landshaft rejashtirishning bosh muammosi markaziy rayonning tabiiy atrof-muhitdan ko'kalamzorlashtirilgan ponalar kiritilishi, diametrlar, mintaqalar yordamida ajratishning oldini olish (kompensatsiya) hisoblanadi. Nihoyat chiziqli tuzilmaga ega shaharlar uchun odatda ikkita yoki bitta cho'zilgan ko'kalamzor mintaqadan iborat ochiq maysalarning chiziqli sistemasi ham xosdir. Ayrim hollarda bu mintaqalar ko'ndalang joylashib, chiziqli shaharni u yoki bu uzunki dagi kesmalarga ajratadi.

Yirik va juda yirik shaharlarning ochiq maydonlarining katta sistemasi tahlil qilish zamonaviy shahar qurilishining omillari bilan taqqoslanganda, xususan gigant shaharlarning o'sishi bilan quyidagi imkoniyatlarga ko'ra zaruriyatini beradi:


- ochiq maydonlarning qurilish ichiga yanada chuqur kirib borishi;
- shahar ichi va shahar tashqarisidagi maydonlarning yaqinligi;
- ochiq maydonlarni va qulay rejalashtiruvchi tuzilmasini shakllantirish, shaharning o'sishiga muvofiq ko'rinishini o'zgarish va rivojlanish qobiliyati.

Ana shu barcha talablarga javob beruvchi sistemagina landshaft rejalashtirish maqsadiga — yaxlit, uyg'un shahar muhitini shakllantirishga erishishga yordam beradi.

Naharning hududiy rivojlanishining o'zi uning tabiat bilan shakllantirilgani susayishini emas, balki ularning ko'rinishi o'zgarishini anglatadi. Shu nuqtaiy nazardan ochiq maydonlarning manzur sistemalaridan ko'pchiligi tanqidga chidamaydi yoki kichik shaharda (yoki naharning alohida tumanida) hamdan-kam hollardagina qo'llaniladigan bo'ladi. Masalan, ochiq maydonlarning halqali, markaziy-yadroli, dispers, chetki va bu'zi boshqa shu kabi bunday «berk» sistemalari erkin hududiy rivojlanishga qodir emas, ularning elementlari bir-biri va bu'qisi fazolar bilan kam bog'langan. To'rsimon, chiziqli, ponosimon yoki fonli singari bunday sxemalar bu masalalarga mos keladi (48-rasm).

Hiroq faqat sistemaning geometrik shakli emas, balki ochiq qurilgan maydonlarning nisbati ham hal qiluvchi ahamiyatiga bo'ladi. Yagona qurilish massivining o'zaro bog'liq, lekin uchiga xos rejalanadigan rayonlarga bo'linishining mavjud an'ani ko'kalamzorlashtirilgan ponalar, diametrilar, mintaqalar, radioler boshqa elementlar jamlangan murakkab kombinatsiya-ligani sistemalarini shakllantirish uchun asos yaratadi.

Umuman, aholi turar joylari sistemasida joylashtirilgan shahar landshaftli tashkil etish izchillik bilan «yuqorida pastga tomon» — avval joylashtirishning guruhi sistemasi va shaharning buniy plani miqyosida, keyin esa shahar rejalashtiruvchi rayoni miqyosida yuz berishi kerak va shundan so'ng mufassal rejalashtirish loyihasi darajasiga chiqishi lozim.



48-rasm. Shaharning ko'kalamzorlashtirilgan maydonlarini  
rejali tashkil etishning prinsipial sxemasi (ark. A.P.Vergunov bo'yicha).

Istalgan o'lchamdag'i va vazifadagi har bir ko'kalamzor lashtirilgan maydon aslida bitta emas, balki ma'lum to'plamdag'i vazifalarni bajaradi: rekreatsion, sanitariya-gigiyenik, mikro iqlim, estetik, tabiatni muhofaza qiluvchi, rejalah - regulativ, xo'jalik-texnik.

Alohiда ko'kalamzorlashtirilgan maydonlar o'zida qanchalik ko'p vazifalar majmuyini bajarsa, shahar landshaftli sistemasi ning umumiy samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi.


Ko'kalamzoriashtirilgan har qanday maydonni loyihalashga kirishayotganda u qo'shma, yuqori va quyida yotgan sathlar uchun qanday ahamiyatga ega bo'lishini aniqlash kerak. Masalan, ko'kalamzorlashtirilgan maydonlar faqat mikrorayon, turar joy hududi darajasida qanday «ishlayotgani»ning o'zini emas, balki ularning shahar va shahardan tashqari darajadagi ko'kalamzorlashtirilgan maydonlar bilan aloqasi uchun qanchalik samarali ekanini aniqlashtirishi zarur. Ya'ni mikrorayondagi bog' yoki park turar joy rayonidagi xiyobon yoki bog' qo'shni mikrorayonlardan shahardagi parklar va shahar atrofidagi ko'k hududlarga piyodalar tranzitini qanday o'tkazadi. Shuning uchun hozirgi paytda chiziqli suv ko'kat maydonlari va albatta «tranzit», ya'ni bog'lovchi ahamiyatga ega bo'lgan ixcham ko-

600 maydonlar borgan sari kattaroq ahamiyatga ega bo'lmoxda (40 rosm).



49-rosm. Chikagoning turar joy hududlarini «tranzit»suv-ko'kat maydonlari bilan bog'lanishi.


Ko'k o'simliklar sistemasining bosqichli tuzilishi to'g'risidagi shaxsur o'z vaqtida ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi, chunki shahar maydonlari bog'lar va parklarning bir tekis taqsimlanishiga imkon berdi. Ammo endi bu yetarli emas, ko'k ekinlarni landshaft maydonlarining yagona uzuksiz sistemasi doirasida loyihalash emay, ularda «kollektorlar» (suv-ko'kat diametrlari, ponalar, minotopolar turidagi) asta-sekin magistral «kanallarga» o'tadi (eng ko'kalamzorlashtirilgan mintaqalar) va undan so'ng «chapilliyarlar» bo'yicha ko'kalamzorlashtirilgan maydonlarning doirabchi (birlamchi) shahar qurilishi birliklariga yetib boradi (50-rosm).



50-rosm. Shaharlarni ko'kalamzorlashtirish sistemasi:  
Minsk va Yerevan shaharlari.

Ancha yuqori darajadagi ochiq maydonlar sistemalari («kollektorlar») shahar tumanlariga toza havo oqimi kelishi uchun

katta o'lchamlarga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun shahar massivining yaxshiroq aeratsiyasi uchun shahar atrofi landshaftlariga chiqishlarni haddan ortiq toraytirmaslik zarur. Bundan tashqari, yuqori darajalarda ko'kalamzorlashtirilgan maydonlarni izchil kengaytirishga shahar markazlarining tabiiy atrofi bilan kompozitsion aloqasi ham yaxshiroq hal etiladi hamda ko'kalamzorlashtirilgan maydonlarni taqsimlashda tartib bo'ladi (51-rasm va 27-rasmlar jadvali).



51-rasm. Yirik shaharlarning landshaft rejalashtirilishi:  
 a — *Moskva shahrining bog'-park komplekslari*; b — *Kiyev shahrining bog'-park komplekslari*; d-e — *Boston va Vashington shahar markazlarining bog'-park komplekslari*.

**NYU-YORK SHAHRINING MARKAZIY PARK  
LANDSHAFT REJALASHTIRISHI**

27-rasmlar jadvali



Yangi shaharlar va qishloqlarni barpo qilishda ularning joylashishini tanlash atrof-muhit omillariga bog'liq, qurilishning o'zi ham tabiiy muhit ko'rinishining muhim omili va elementi bo'ladi va unga muhim o'zgarishlar kiritadi. Tabiiy muhit tuzilishi qonunlarini mufassal o'rganish shahar yoki qishloqlarning landshaft rejasini to'g'ri ijodiy tushunishga impuls imkon beradi. Bu maqsadga erishishga yondashuv tekis va tog'li hududlarda turlichadir. Tekis joylarda aholi punktlarini shakllantirishda landshaft rejalshtirish ko'proq erkin harakat qilish huquqiga ega.

Bu yerda ko'pgina hollarda konstant elementlar, suv havzalari, o'rmon massivlari, yo'llar, temiryo'l arteriyalari va boshqalar yaqqol ko'zga tashlanadi. Daryolarning suv havzalari yo'llarini, temiryo'llarni va boshqalarni ko'kalamzorlashtirish ko'katning fazoviy shakllarini, go'zal manzaralarni va peyzaj ko'rinishlarini vujudga keltirib, ular tekislik timsolida mavjud bir xillikni har xillashtirishga yordam beradi.

Past-baland joylardagi aholi punktlarini landshaft rejalshtirishda hisobga olish zarur bo'ladigan bir qator holatlarga ega. Past-baland joylarning ayrim qismlari qimmatga ega, boshqalarni esa bo'ysunuvchi ahamiyatga ega. Bu ko'p darajada joyning landshaft muhitida aholi punktining joylashishini belgilaydi. Bu, ayniqsa, relyefi keskin ifodalangan joylarga taalluqli.

Aholi punktlarini ularning chetlaridagi o'simliklarni hisobga olgan holda ko'kalamzorlashtirish aholi punktining atrof-muhit bilan aloqasi xarakteriga ta'sir ko'rsatadi. Chekka joylarning o'simliklari o'z navbatida aholi punktini, uning texnik obyektni va inshootlarini tabiiy muhit bilan bog'laydi. Qurilish o'ziga xos geometrik shakllari ko'proq bo'lgan aholi punktlarini qurishda, jamlangan o'simliklar, qat'iy chiziqlarni yumshatuvchi qo'shima cha element vazifasini bajaradi. O'simliklar ayrim qurilgan sektorlar orasida bo'g'in bo'lib xizmat qiladi va tegishli ko'kalamzor sistema bilan aholi punkti tumanlarini o'zaro va atrof muhit bilan bog'laydi. Aholi punktining asosiy o'simliklari atrofdagi tabiiy muhitning o'simlik assosatsiyalarining eng dekorativ jinslaridan iborat bo'lishi kerak. Agar unga tuman uchun ma'qul keladigan va asosiy o'simlikka biologik jihatdan to'g'ri keladigan o'ziga xos dekorativ, ekzotik jinslar qo'shilsa, bu bilan aholi turar joylari landshaftlarining o'ziga xos qiyofasi ta'minlanishi mumkin.

Aholi punktini ko'kalamzorlashtirish va landshaftni madaniy bezash san'at asaridan iborat, chunki ular fazoviy va siluetli bezashni hamda peyzajning kaloritli va plastik ta'sirini izlashga qo'shanadi. O'z navbatida, bu elementlar go'zallikning estetik o'rgilini vujudga keltiradi yoki yomon taassurot qoldiradi. Aholi punktiga kiritiladigan yo'llar kuchli ko'kalamzorlashtirilgan bo'lishi kerak, chunki ular aholi punktini bevosita landshaft bilan bog'laydi.

Tabiiy shakllarning o'ziga xos xususiyatlari, plastiklik va mabaliy landshaftning xilma-xilligi saqlanishi kerak. Bu ayniqsa, umanda sanoat majmualari qurilayotgan hollarda muhimdir. Ular atrof-muhitning umumiyl manzarasi bilan albatta, uyg'unushib ketishi kerak. Buning zarurligi shundaki, qurilishlar va tuncik obyektlar atrof-muhit uchun begona bo'lmasdan, balki madaniy landshaftning elementi va dominanti singari ishtirok qishi kerak.

### **2.2.2. Shahar ko'kalamzorlarini tashkil etish tamoyili**

Dog' va parklar rivojlanishi kelajagi shaharning umumiyl ko'kalamzor hududlari tizimisiz to'g'ri baholanishi mumkin emas. Avvalo, ko'kalamzor hududlar tizimi tarkibining murakkabla shuv jarayonini aytib o'tish kerak. Bunga sabab uning yangi elementlarining paydo bo'lishi, shahar va aglomeratsiyalarning hududiy rivojlanishidir. Ko'kalamzor tizimlarning rivojlanishi uchi xil shaharlarda turli yo'llar bo'yicha ketadi.

Tarkib topgan shaharsozlik va tabiiy sharoitlar kompleksiga ko'ra, ko'kalamzorlarni fazoviy tashkil etish turli xil ko'rinishga ega bo'ladi. Unda qurilmalar massivida bir tekisda joylashgan alohida yashil «dog'lar», bir necha yirik o'rmon park pannolari shahar markazigacha yetishi mumkin, ya'ni suv-park diametri shaharni daryo, kanal yoki suv ombori bo'yicha kesib o'tadigan marklar va qirg'oqlar lentasi), qurilmalarga parallel yoki yonda-shub joylashgan ko'kalamzorlarning keng yo'llari (shahar chiziqli rivojlanganda), ko'kalamzorlarning chiziqli-yo'lak joylashuvi, shaharning ajralgan tumanlarini o'rab turuvchi ko'kalamzorlarning tashqi massivlari.

Shaharlar ko'kalamzorlar tizimini qurish shaharsozlik omiliga (shaharning kattaligi va profili, uning ahamiyati, tarixiy rivojlanishi) va tabiiy sharoitlar, iqlim, tuproqlar, mavjud o'sim-

liklar, relyef xarakteri, suv havzalari bilan belgilanadi. Shahar ning kattaligi ko'kalamzor tizimlar obyektlar tarkibiga, ularning o'lchamlariga, funksional-landshaft tashkil etishiga ta'sir etadi. Aholi joylari hududi joylashuviga qarab, ko'kalamzorlar besh kategoriya bo'linadi:

**1-A – tabiatni qo'riqlash vazifasini bajaruvchi ko'kalamzorlar** bunga qo'riqxonalar, tabiat yodgorliklari, suv manbalarini sanitar qo'riqlash qismlari, daryo va kanallarni qo'riqlash yo'lklari.

**2-B – madaniy meros ko'kalamzorlariga** – tarixiy bog'lar, dendrologik, botanika va zoologiya bog' va parklar; memorial qabristonlar.

**3-D – umumiy foydalanish ko'kalamzorlari** shahar va tuman parklari, skverlar, maydonlardagi skverlar, piyoda ko'chalar, qirg'oq bo'yлari, shahar tashqarisidagi dam olish joylari.

**4-E – cheklangan foydalanish ko'kalamzorlari** turar joy tumani va kichik tuman bog'lari, individual qurilmalardagi ko'kalamzorlar, bolalar bog'chalari, maktablar, ma'muriy va boshqa binolar, oliy o'quv yurtlari va sport kompleksi ko'kalamzorlari.

**5-F – maxsus vazifali ko'kalamzorlar** avtomobil yo'llari, ko'chalar bo'lib, sanoat korxonalari va ularning sanitар-himoya qismlari, pitomniklar, oranjereya, qabristonlar, shosse va temiryo'l ko'kalamzorlari.

### **2.2.3. O'zbekiston aholi joylari ko'kalamzorlari tizimini me'yorlash**

Shaharning ko'kalamzor hududlari – landshaft arxitekturasi obyektlarini shakllantirish turli xil shaharlarda turlicha o'tgan. O'zbekiston tarixiy shaharlari misolida O'rta Osiyo regioni uchun an'anaviy ko'kalamzorlar tizimini tashkil etish tamoyillarini ko'rib chiqish mumkin. Rasmdan ko'rinish turibdiki, barcha tarixiy shaharlar – Samarqand, Buxoro, Xiva ko'kalamzorlarni joylashtirishning bir tekis, suv ta'minoti tizimi – ariq, hovuzlari bilan uzviy bog'liq tarkibga ega bo'lgan (52-rasm).

Hozirgi vaqtida ko'kalamzorlarni ber tekis joylashtirish tizimi ko'rinishida tashkil etishning tarixiy tamoyillari yo'qotilgan. Shaharlarning bir tekis va uzlusiz ko'kalamzorlar tizimini tashkil etish ehtiyoji allaqachon e'tirof etilgan. Landshaft arxitekturasi va landshaft shaharsozligi sohalarida tadqiqotlar bu tamoyillarni shaharsozlikda amalga oshirishga o'tish kerak.



53-rasm. Temuriylar Samarqandining suv taqsimlantirishi va ko'kalamzorlashtirishi:  
1 — suv (ariqlar); 2 — ariq, hovuz va ko'kalamzor; 3 — shahar chegarasi  
(ark. L.A. Adilova orqali).

Ammo shuni aytib o'tish lozimki, «Toshkent Boshplanloyihas» va Toshkent Arxitektura-qurilish institutining ilmiy izlanish ishlari va loyihalari asosida Toshkent (1984, 2002-yy., 53, 54-rasm), Chirchiq (2006-y.) va boshqa shaharlar landshaftini tashkil etish va ko'kalamzorlashtirish sistemasi rivojlanishiga qator takliflar kiritilgan. Biroq bu takliflarni amalga oshirish yanada detallashtirishni va amaliyatga tatbiq etishni taqozo etadi.



54-rasm. Toshkent shahrining suv-yashil diametralini tashkil etish tavsiyasi  
TashNIIPIgenplan. 1984.  
(ark. L.V. Yablokova).



54-rasm. Toshkent shahrining landshaft-rekreatsion tizimini rivojlanitarish tavsiyasi. 2002.  
(ark. K.D. Satarova).

O'zbekiston aholi joylari ko'kalamzorlar tizimini yanada takomillashtirish uchun me'yoriy asos lozim, u shahar va poloyellilar hududida ko'kalamzorlar tizim elementlarining son jihatidan nisbatini nazarda tutadi. Toshkent Zonal ilmiy tadqiqot

va eksperimental loyihalash institutida (TashZNIEP) o'tkazilgan tadqiqotlar asosida O'zbekiston aholi joylari ko'kalamzorlarini me'yorlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan, ular real loyiha-  
lash va shaharsozlik amaliyotiga asos qilib olinishi mumkin (3-jadval).

**O'zbekiston shahar va qishloqlar uchun tavsiya etilgan  
ko'kalamzorlashtirish me'yorlari va ularning namunaviy  
taqsimlanishi, m<sup>2</sup>/odam (TashZNIEP, 1982)**

3-jadval

	Shaharlarning ko'kalamzor maydonlari					
	Katta		Kichik		O'rta	
	Ko'kalamzorlar yaratilishi sharoitlari					
	Yaxshi	Chek-langangan	Yaxshi	Chek-langangan	Yaxshi	Chek-langangan
Umumiy foyda- larish ko'kalam- zorlari  jumladan:	17-19	13-15	14-16	11-13	11-13	8-10
shahar parklari	4-5	3-4	5-6	4-5	6-7	5-6
tuman parklari	4-5	3-4	-	-	-	-
skver va bulvarlar	2-3	2-3	2-3	1-2	2-3	1-2
turar joy tumani bog'lari	4-5	3-4	4-5	3-4	-	-
kichik tuman umumiy foydala- nish ko'kalam- zorlari	3-4	2-3	3-4	2-3	3-4	2-3
Cheklangan foy- dalanish ko'ka- lamzorlari	35-40	30-35	50-55	45-50	65-70	55-60
Shu jumladan:						
shahar ahamiyati- dagi jamoat muas- sasalari maydonlari	8-9	7-8	8-9	7-8	9-10	7-8
kichik tuman ja- moat muassasalari maydonlari	8-9	6-7	9-10	7-8	11-12	8-9
kichik tumanlar turar joy hududi	12-14	11-13	22-23	20-22	36-40	30-34
shahar ko'chalari va maydonlari	4-5	3-4	5-6	4-5	5-6	4-5
boshqa hududlar	5	4-5	5-6	5	6	5-6
Jami ko'kalam- zorlar	50-60	45-50	65-70	55-65	75-80	65-70

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston shaharlarining maydoniy ko'kalamzorligi qurilmalarning umumiy maydoniga nisbatan barcha funksional ahamiyatdagi ko'kalamzorlar summasidan deb baholandi. Bu nisbat shaharda qurilgan maydonlarning kamida 50 %iga yetishi lozim, barcha ko'kalamzorlar maydoni esa bu odamga kamida 50–60 m<sup>2</sup>ga yetishi kerak.

### **2.3. Shahar markazlarini landshaft tashkil etish**

#### **2.3.1. Shahar markazlarining ochiq maydonlarini funksional-landshaft tashkil etish**

Zamonaviy shaharlar markazlari hududini bog'lar, parklar, maydonlar, skverlar, piyodalar ko'chalari, xiyobonlar, bulvarlar, qay'iq bo'yllari, qurilmalarning fon muhitini yagona bog'-park sistemasiga birlashtiruvchi o'zaro bog'liq piyodalar hududi sistemi tashkil etadi (55-rasm).



55-rasm. Toshkent shahrining markazini funksional – fazoviy tashkil etish loyihasi:  
1 – variant – arx. M. Bulatov loyihasidagi yagona bog'-park sistemasini shakllantirish,  
2 – variant – Tashgiprogor loyihasidan suratga olingan yagona detal  
bog'-park sistemasini shakllantirish. 1990-yillar.

Markazlarning landshaft tashkil etilishiga qo'yiladigan muhim talablar loyihalashning ma'lum bosqichlariga va uslublariga joya qilish hisoblanadi. Markazdagi ochiq maydonlarni funksional zonalash landshaftni loyihalashning muhim bosqichi hisoblanadi. Har bir funksional zona foydalanishning va mosayli landshaft tashkil etilishiga talab qo'yuvchi hududni o'shil etishi o'ziga xos texnologiyasiga ega. Shuning uchun markazning piyodalar fazolarining landshaft tashkil etilishida o'shilgigi zonalarni ajratish maqsadga muvofiq: tranzit harakat;

rekreatsiya va bo'sh vaqt; ovqatlanish; ommaviy tadbirdilar (bayramlar, shou, konsertlar, diskotekalar).

Tranzit zona faqat harakat davrida hududda qisqa vaqt davo mida bo'lishiga mo'ljallangan. Tranzit harakatga mo'ljallan-gan shakllar bu to'g'ri shakldagi xiyobon va yo'laklar hisoblanadi. Hududda ularning rejali joylashtirilishining samaradorligidan o'tish uchun sarflanadigan vaqtning davomiyligiga bog'liq bo'ladi. Mazkur holda diagonal tarmoqlanishi elementlari bilan ortogonal rejalah eng maqsadga muvofiqdir. Tranzit harakat zonasini gulpushta va boshqa qurilmalar bilan bo'linmasligi kerak.

Rekreatsiya va bo'sh vaqtini o'tkazish zonalari markazga tortishning ijtimoiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Dam olish va bo'sh vaqtini o'tkazish zonalarini har tomonlama o'ylab tashkil etish aholi guruhlari orasida muloqot qilish va axborot almashishi uchun sharoitlar yaratadi, jamiyat fuqarolarini jipslashtiradi.

Zonalarini tashkil etish uchun eng qulay tabiiy sharoitga ega hududlar — daryo yoki sun'iy yaratilgan havzalarning bo'yлari, ko'kalamzorlar, bog'lar, parklar hududi, maydonlar, xiyobonlar, bulvarlar, piyodalar yuradigan ko'chalar va boshqalar ajratiladi.

Bu hududlarni landshaftli tashkil etish rekratsion faoliyatni tashkil etish o'lchamlari va tavsifiga bog'liq. Bog'-parklarda, xiyobonlarda, bulvarlarda landshaft qo'yiladigan talablarga muvofiq shakllanadi. Ammo maydonlar, piyodalarning ko'chalari va daryo yoki havza bo'yлari hududlarida rekreatsion bo'sh vaqtini o'tkazish zonalar hududining shaxsiy xususiyatlariga muvofiq ajratiladi, ma'lum cheklanishlarga yo'l qo'yilmaydi va loyiha mualiflarining ijodiy fikriga bog'liq bo'ladi. Rekreatsion uchastkalari boshqalaridan zinch o'simliklar bilan ajratilishi mumkin.

Maydonlar va piyodalar fazolari rekreatsion funksiyalarni tashkil etish uchun qulay zonalar hisoblanib, ular kunduzgi payt markaziy maydonlarda yoki unga yaqin bulvarlarda tashkil etiluvchi bog'larda, xiyobonlarda, o'rmonlarda amalga oshirilishi mumkin, kechki paytlarda esa — maydonlarning ochiq joylarida va ommaviy tadbirdilar o'tkaziladigan zonalarda amalga oshiriladi (28-30-rasmlar jadvalari).

Sayr qiladigan zonalarning landshaft tashkil etilishida atrofdagi qurilishning me'moriy stilistikasi hisobga olinishi kerak, u loyihalanayotgan landshaft muhit stilistikasiga mos bo'lishi va aksincha bo'lishi kerak. Shunga qaramay, landshaft kompozitsiya muntazam, peyzajli yoki aralash ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin.


**TOSHKENT MARKAZIDAGI MUSTAQILLIK  
MAYDONINING LANDSHAFT TASHKIL ETILISHI**

28-rasmlar jadvali




## MAYDONLAR VA PIYODALAR FAZOLARINING LANDSHAFT TASHKIL ETILISHI

29-rasmlar jadvali



1,2 – Tehrondagi Ozod maydoni; 3,6 – Angliyadagi Sheffield shahrining piyodalar fazolari; 7 – Isfahondagi san'at saroyi oldidagi maydon.

**MOSKVA MAGISTRALLARIDA JOYLASHGAN  
MAYDONLARNING LANDSHAFT TASHKIL ETILISHI**  
**30-rasmlar jadvali**



Pushkin (1–4) va Tverskaya zastava (5–10) maydonlarining landshaft tashkil etilishi.

Muntazam tashkil etishda, asosan maydonlarning ochiq sazolarida joylashtiriladigan to'g'ri to'rtburchak, diagonal, dumaloq, oval va boshqa shakldagi yo'laklar, o'tloqlar, gulpushtalar, rabatkalar ko'proq bo'ladi.

Egri-bugri (ilon izi) shaklidagi yo'laklar ko'pincha erkin yoki peyzajli stilda (turda) rejalahtiriladigan rekreatsion – sayr qilish zonalarida, odatda, bog'lar, xiyobonlar, o'rmonlar yoki daryo va havza bo'ylarining soyali joylarida ajralib turadi. Ko'r-kam yo'laklar maydonlarning piyodalar yuradigan qismlarini bog'-park majmualari va suv havzasini bo'ylari bilan birlashtirishi mumkin.

### **2.3.2. Shahar markazining ochiq maydonlarida landshaft elementlarini tashkil etish**

Xiyobon ko'chatlari xiyobonning parametrlari va kun mobaynida maydondan (fazodan) foydalanish turiga hamda harakat tavsifiga (tranzit, sayr qilish) bog'liq holda shakllantiriladi.


56-rasmda turli xil holatlар uchun xiyobonlarni rejali tashkil etish va ularni ko'kalamzorlashtirishga doir misollar ko'rsatilgan. Xiyobon qanchalik keng va uzun bo'lsa, uning chetlariga shunchalik shakli keng va tez o'suvchi jins qo'llaniladi. Qalin daraxtlar tez birikadi va soya beruvchi to'siq hosil qilib, piyodani issiq yoz kuni sharoitida himoya qiladi (56-rasm,a).

Bir xil yoki turli xil jinsli tarkibdan ochiq ritmik uzilishli ko'chatlarni yarim berk turdag'i landshaftni shakllantirishda foydalanish mumkin (56-rasm, b). Mazkur usullar daraxtlarning yaxshiroq o'sishi uchun, hududni shamollatish uchun, landshaftli – fazoviy kompozitsiyaning plastikligida aks etuvchi yorug'lik va soyalarning samarali qo'shilishi uchun imkon yaratadi. Agar hududlar, asosan kechki payt foydalaniladigan bo'lsa, u holda xiyobon bo'yicha harakat tez yoki sekin bo'lishiga (sayr qilayotganda) bog'liq bo'lмаган holda landshaftni ochiq shakllantirish maqsadga muvofiqdir (56-rasm, d).

Mazkur holda o'simliklarni rejali joylashtirish tavsifmi memoriy – landshaftli kompozitsiyaning yo'nalishtiga bog'liq holda cho'ntaklar – kurdonerlar, chiziqlar yoki boshqa usullarni qo'llanib har xillashtirish mumkin.

Xiyobonlar orasiga markazlarning ochiq fazolarining salobatini ta'kidlovchi o'tloqlar, gulpushtalar, favvoralar, kichik

moriy yoki badiiy shakllar joylashtirilishi mumkin. Ammo yerdagi salobatlilik yagona maqsad bo'lmashligi kerakligini bellash zarur. Markaz hududlar aholisining shahar muhitida dam olishi va bo'sh vaqtini o'tkazishni turli xil shakllantirishga beribun o'sib borayotgan ehtiyojlariga xizmat ko'rsatish uchun maydani bilan shakllantirish kerak.



56-rasm. Landshaft tashkil etish usullari:

*b - herk turdag'i fazo uchun; b - yarim herk turdag'i fazo uchun; d - ochiq turdag'i fazo uchun;* 1 - birinchi katta bo'yli daraxtlar; 2 - ikkinchi katta bo'yli daraxtlar; 3 - uchinchi katta bo'yli daraxtlar; 6,7 - bordyur va gulzorlar; 8 - gazonlar; 9 - ariq va favvoralar; 10 - yo'l va yo'laklar.

Manzaralili xiyobon va yo'laklar piyodalar maydonlarini bog' park majmuasi va sohil bo'yli hududlari bilan bog'lashi mumkin.

*Gulpushhtalar va maysazorlar* markaziy maydonlarning landshaft dizayning eng ko'p tarqalgan elementlaridan biridir. *Gulpushhtalar* va maysazorlarning landshaft kompozitsiyalarida *geometrik* yoki erkin shakllardan foydalaniлади.

Odatda bitta, ikkita navli gul ekinlari ekilgan oddiy konfiguratsiyadagi yirik parterli gulxonalar juda kuchli taassurot qoldirishi ma'lum. Biroq oddiy ijod va dekorativ bezakning soddashtirish bilan chegaralanmasligi kerak. Yirik maydonlar detallarining kattaligi va bezatish xarakteriga ko'ra monoton, bir xil bo'lmasligi kerak.


Landshaftli kompozitsiyalarda gulli ekinlarni qo'llanishning asosiy turlari – bu gullab turgan maysazorlar, gul gilamlari, maysazor ko'rinishida rangli dog'lar ko'rinishidagi yoki ochiq suv havzalari atrofiga o'tkazilgan gullar ko'rinishida joylashtiriladigan nomuntazam shakldagi yakka ekilgan va bir xil yoki aralash guruhdagi ekindir. Kompozitsiya monoton bo'lmasligi uchun uning asosiy qismi qolgan qismlarga nisbatan kuchliroq ifodalangan bo'lishi kerak. Kompozitsiyaning bosh qismlarini ajratib ko'rsatish ularning detallarini yiriklashtirish va yorqin bo'yoqli baland bo'yli o'simliklarni qo'llanish yo'li bilan erishishli mumkin (31-rasmlar jadvalining 1-rasmi). Bitta bosh, markaziy klumbali va bir necha ikkinchi darajali klumbalari bo'lgan simmetrik kompozitsiyada bosh klumba qolganlariga nisbatan ancha kattaroq o'lchamli qilib loyihalanadi va uni ancha murakkab ornament va ranglarini yorqinroq qilib ajratib ko'rsatiladi. Agar kompozitsiya o'lchamlari bo'yicha uncha katta bo'lmasa va uni butunicha idrok qilishga mo'ljallangan bo'lmaganda gina ikkinchi darajali klumbalar mutlaqo bir xil bo'lishi mumkin.

Detallari izchil idrok qilinadigan keng kompozitsiyalarda (masalan, sayr qilish vaqtida) shakli va kattaligi bo'yicha bir xil elementlar (klumbalar, rabatkalar) detallarning rasmi yoki rangiga ko'ra farq qilinishi kerak. Xiyobon va yo'lakchalarining ayrim qismlarida rabatkalarini gullar bilan bezatishda bezatish tavsifi va detallarning rangi ham xilma-xil bo'lishi, ammo bunda bezatishning bir turidan boshqasiga o'tish ketma-ketligini hisobga olish lozim.

Yuzalar (klumbalar, rabatkalar va hokazolar) ayrim elementlarni bo'lishda «oltin kesim»ning bilib qo'llanilishi yaxshi natija beradi. Kesmaning «oltin kesimi» 2:3; 3:5; 5:8; 8:13 va shu kabi atrofida bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqib, eni 5 m bo'lgan to'g'ri to'rtburchak gulpushtani bo'lishda uning o'rta qismining eni 2 m chetlari 1,5 m yoki o'rta qismining eni 3 m, chetlari 1 m dan bo'lishi mumkin. Oxirgi holda gulpushtaning chetki qismlariga past to'siqsimon o'simliklarni o'tkazish, o'rta qismiga esa ancha baland bo'yli o'simliklarni ekish mumkin yoki maysonoplamasini yaratish mumkin.

## GULLI KLUMBALAR

31-rasmlar jadvali



Jadval. Shahar markazlarini gul bilan bezatish tanlovlariда muntazam va erkin holda yaratilgan landshaftli kompozitsiyalar.



Jadval. Kichik me'moriy – landshaft kompozitsiyasi.

Gulpushtaning asosiy bo'linishlarini yanada mayda qisimiga bo'lishi mumkin.

Binolar oldidagi landshaft kompozitsiyasining kattaligi va tavsifi binolarning kattaligiga mos kelishi kerak. Uncha bo'Imagan bino oldida yirik detallari bo'lgan keng maydon mayda detallari bo'lgan kichik maydon yirik bino oldida turgan kabi noo'rindir. Masalan, parter uchastkalaridagi gulzorlarning yig'indi yuzi, odatda, maysazor yuzining 1/3 yoki 1/2 qismidan oshmasligi kerak. Binolar yoki haykallar oldidagi maydonlari ekinlar bilan band bo'lgan umumiy yuza maysa qoplamani yuzidan ortiq bo'lishi mumkin.


Jamoat binolari va inshootlari oldida barpo qilinadigan gulzorlar o'lchamlari, shakli va surati bo'yicha bina me'morchiligi bilan uyg'unlashishi kerak, gulzorlarning ortiqchasi kalcriti binoning bo'yalihi (rangi) bilan bog'lanishi kerak. Maydon va xiyobonlarni gul bilan kuzgi bezatilishida danil barglarining kuzdag'i rangi bilan uyg'unlashuvchi yoki yaqqal ko'rinvuvchi ranglar ko'proq bo'lishi kerak. Yo'laklarni o'rak turuvchi gulli rabatkalarining enidan katta bo'Imasligi, enining 1/6 dan 2/3 qismigacha bo'lishi kerak. Maydonning markazidagi joylashgan gulpushtaning diametri odatdag'i hollarda maydon yuzining 1/3 qismidan 2/3 qismigacha bo'ladi.

**Gulli ekinlar va dekorativ – bargli o'simliklar assortimenti** tanlash landshaft bezashning jihatlariga ko'p darajada ta'sir ko'rsatadi. Maydonni dekorativ bezatish uchun tanlangan o'simliklar to'plami mazkur badiiy amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan barcha elementlarni o'z ichiga olishi kerak. Lekin undi navlar va ranglar miqdori haddan ko'p bo'Imasligi kerak. Hatto keng parterli kompozitsiyalarda ham odatda navlari soni 20–25 va 30 dan ortiq bo'Imagan o'simliklar navlari yetarli bo'ladi, ornamental gulpushtalarnda – 8–10 dan 15 navgacha, gulla-yotgan gulpushtalar va rabatkalarnda – 2 tadan 6 tagacha navdagi o'simliklar yetarli bo'ladi.

O'simliklarning yaxshi o'sib ketishini ta'minlash uchun mazkur uchastkaning ekologik talablariga muvofiq tuproq, yorug'lik, issiqlik, namlikka bir xil talabga ega o'simliklarni tanlash kerak emas. Soya uchastkalardá yorug'likni sevuvchi o'simliklarni joylashtirishdan qochish kerak, namlikni yaxshi ko'ruvchi o'simliklar yoniga ortiqcha suvni yoqtirmaydigan o'simliklarni joylashtirmslik kerak.

O'simliklarning taqvim vaqtini va gullash davomiyligini hisobga olib tanlash ham juda muhim ahamiyatga ega. Markazni gollar bilan bezatish yetarli darajada dekorativ bo'lishi va butun vegetation mavsum mobaynida, erta bahordan kech kuzgacha yaxlit taassurot qoldirishi kerak. Bunga o'simliklarni gulpush-talarda, rabatkalarda, miksborderlarda va guruhlarda gullab ber'igan o'simliklar o'rniغا parallel ravishda boshqalari gullab turadigini hisobiga erishiladi. Bunday usul eng tejamli hisob-hanadi, chunki ko'p yillik o'simliklardan keng foydalanishga yo'l qo'yadi. Ammo undan mas'ul uchastkalarda hamma vaqt ham qo'llanilib bo'lmaydi. Masalan, rasmning aniqligi talab qilinadi-yo'q ornamentli gulpushtalarda va rabatkalarda, dekorativligini yo'qotgan o'simliklarni joylashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham gulpushtalalar va rabatkalar uchun deyarli bir paytda gullovchi va so'nuvchi gilam-bargli o'simliklar qo'llaniladi.


*Suvli qurilmalar* markazdag'i maydonlarning landshaftli tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Monumental hal qilishni talab etuvchi zonalarda, odatda, mumtoz shakldagi favorolar va sharshornlar quriladi. Landshaft tashkil etishning zamonaviy an'analar suv mavzusini turlicha talqin qilishi, uni maydonlarning ochiq joylarida va piyodalar maydonlarida o'matilishi namunalari bilan to'lib ketgan (57-rasm va 32-rasmlar jadvali). Mazarbur usullar issiq quruq iqlimda muhitni namlash uchun juda yaxshi natija beradi.



57-rasm. Oqimli favorolar turlarining fasidlari va rejalar  
(A. P. Vergunov bo'yicha).

## MAYDONLARDA JOYLASHGAN ZAMONAVIY SUVLI QURILMALAR VA FONTANLAR


32-rasmlar jadvali



### 2.3.3. Shahar markazlarining magistrallari yaqinidagi hududlarni landshaft tashkil etish

Shahar markazlarining magistrallari yaqinidagi hududlarni piyodalar uchun ajratilgan ochiq maydonlar orasidagi ko'k himoya mintaqalarini ko'zda tutish zarur. Magistralni landshaft tashkil etish uning eniga va transportning harakatlanish jadalligiga bog'liq. Markazdagi magistral yaqinidagi hududlardan foydalanish tavsifiga ularni ko'kalamzorlashtirish maqsadlari va usublari bog'liq bo'ladi.

Issiq iqlimli tumanlarda mikro muhitli va sanitariya gigiyentik rejimni optimallashtirish uchun ko'kalamzorlash-tirishni va landshaft elementlarini rejali va fazoviy tashkil etish tamoyiliga umal qilish zarur. Bunda magistralni mo'ljallashni hisobga olish muhim ahamiyatga ega (58-rasm).



58-rasm. Magistral qurilishga nisbatan landshaftni fazoviy tashkil etish namunasi:  
1 — arb tomondan meridional va kenglikni joylashtirishda hududni soyalashshtirish  
namayishlari; 2 — qurilish; 3 — qurilishning fonli hududi  
(ark. L.A.Adilova).

- Magistralni meridional orientatsiyalashda – qurilishdan janub tomondan, soyada qoladigan, maydonlarning ochiq qoladi ganlarga qaraganda nisbati kamida 60:40 %ni tashkil etishi kerak.

- Kenglikni oriyentatsiyalashda – 70:30 % nisbatda bo'lishi maqsadga muvofiq.

- Aralash, diagonal oriyentatsiyada – 50:50 % nisbatda bo'lish kerak.


Yo'llarning keng ochiq fazolarida magistralning bosh o'qida bulvarlar ko'zda tutilishi kerak, u yerda hududning ayrim uchastkalaridan foydalanish tavsifiga ko'ra funksional zonalashni o'tkazish maqsadga muvofiqli. Prinsipial va loyiha modellarida janubiy va g'arbiy orientatsiyada soyalanishni talab qiluvchi zonalar aks ettirilgan. Bunda ochiq va soyalanuvchi maydonlarning umumiy nisbati kun mobaynida hududlardan jadal foydalanishda insolirlangan va soyalashtirilgan fazolarning 50x50 % nisbati kattaligiga mos bo'lishi kerak.

Loyiha modellar, shuningdek, yuqorida aytib o'tilgan 50x50 % fazoviy nisbatlarni va yuqori o'simliklar landshaftining boshqa elementlariga va ochiq fazolariga nisbatan rejali joylashtirishni aks ettiradi.


Piyodalar harakati zonalarida va qurilishga yoqish hududlarda ochiq va soyali fazolarning navbatma-navbat kelishi havo massalarining vertikal konveksiyasini yaxshilaydi va hududni hamda piyodalarni yoz vaqtлari ortiqcha quyosh radiatsiyasidan himoya qilishga imkon beradi.

Radiatsion rejimni tartibga solish nuqtayi nazaridan daraxtning jinslarini to'g'ri tanlash va maqsadga muvofiq joylashtirish uchun daraxtning soyalashtirishning turlicha yuzini belgilovchi kattaligi va shakli ham juda muhim ahamiyatga ega. Sanitariya-himoya mintaqalarini landshaft tashkil etish usullari ko'kalamzorlashtirish mintaqasi kengligiga va o'simliklarni hajmiy-fazoviy tashkil etishga bog'liq (59-rasm).


Magistrallar bo'yiga yoki himoyaviy ko'kalamzorlashtirish mintaqalarida yanada keng shovqindan himoyalash mintaqalarini va sanitariya-himoya ekinlarini shakllantirishda turli jinsdagi o'simliklardan foydalanish mumkin, ular o'ylab qilingan jinsli hamda kompozitsion olib borishda qulay estetik ta'sir ko'r satishi mumkin (60-rasm).



59-rasm. Magistrallning bir qismini landscape tashkil etish namunasi.



60-rasm. Turli jinsli tarkibning dekorativ-himoyaviy o'simliklari:  
1 - butalar, bargli daraxtlar; 2 - past bo'yli ninabargli daraxtlar; 3 - o'rtacha  
balandlikdagi ninabargli daraxtlar; 4 - baland ninabargli daraxtlar; 5 - o'rtacha  
balandlikdagi ninabargli daraxtlar.



61-rasm. Markaziy magistrallarni eksklyuziv ko'klamzorlashtirish prinsiplari:  
1 - baland butalar; 2 - past ninabargli daraxtlar; 3 - baland yaproq bargli daraxtlar;  
4 - baland va o'rtacha ninabargli daraxtlar; 5 - past butalar; 6 - o'rtacha  
balandlikdagi yaproq bargli daraxtlar.

Magistralga yaqin hududlarning landshaftli tashkil etilishi va dizayni magistralning sinfiga mos bo'lishi kerak. Bunda shahar markazidan va shahar rayon markazlaridan o'tadigan magistral qismlari eksklyuziv (antiqa) landshaftli dizaynga ega bo'lishi kerak. Ayniqsa, institutsional, tomoshabop, madaniy-bilim olish inshootlari oldida va bosh maydonlarga va aholining ommaviy dam olish joylariga qo'shilib ketuvchi zonalarda (61-rasm).

#### **2.4. Turar joy tumanlari, mikrorayonlar hududlarida landshaft-tarhni tashkil etish**

##### **2.4.1. Ommaviy turar joy qurilmalari landshaftini tashkil etishga qo'yiladigan talablar**

Mikrorayon shahar ommaviy turar joy qurilishining bir-lamchi bo'lagi hisoblanadi, u yerda aholining maishiy, madaniy-ma'rifiy va rekreatsion ehtiyojlari qondiriladi. Mikrorayon turar joy uylari majmuyi yoki guruhidan kundalik madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari (klublar, magazinlar, kafe, mai-shiy xizmat ko'rsatish korxonalari, bolalar bog'chalari va maktablar)dan, sport maydonlari va bog'lardan iborat.

Mikrorayon hududini me'moriy – landshaft tashkil etilishi aholining oldidagi, jamoat, maktab hududlarida har kungi dam olish va bo'sh vaqtini o'tkazish uchun qulay sharoitni yaratishni hisobga olgan holda shakllanadi.

Turar joylar hududini landshaft-rekreatsion tashkil etishda sifatga erishish uchun turar joylarni landshaft-rekreatsion tashkil etish bosqichlarining quyidagi ketma-ketligiga rioya qilinishi kerak:

- loyihadan oldingi bosqichda, qurilishni tashkil etish va aholining ijtimoiy-demografik tuzilmasini (bolalar, yoshlar, kattalar va qariyalar) tahlil qilish, aholining zichligini, qurilishni fazoviy tashkil etish tavsifmi, dam olish turlari va shakllariga bo'lgan ehtiyojlarni, tabiiy sharoitlar xususiyatini, loyihalana-yotgan hududlarning sanitariya-gigiyenik xarakteristikasini va qurilish hududidagi mayatnikli migratsiyalarning xususiyatlarini hisobga olish;

- loyihalash bosqichida dam olish turlari va mezonlari bo'yicha hududni landshaftli-rekreatsion zonalash va landshaft ele-

mentlari – dam olish maydonchalar, suv qurilmalari, o'simliklar va kichik me'moriy shakllarni me'moriy-rejali tashkil etish o'tkazilishi kerak. Ko'kalamzorlashtirish o'simliklarini tashkil etish ochiq maydonlar muhitini tashkil etishning funksional, sanitariya-gigiyenik va estetik omillarini va landshaft tashkil etishning an'anaviy xususiyatlaridan foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda yuz berishi kerak.

Turar joy qurilishi hududini me'moriy-landshaft tashkil etishi turar joylarning maksimal qulay funksional-fazoviy va landshaft-rekreatsion muhitini yuzaga keltirishni hisobga olgan holda shakllanishi kerak.

Turar joy muhitida qulay sharoit yaratish turar joy qurilishi soni, zichligi va fazoviy yechimi tavsifi bilan bog'liq. Aholining uylar oldidagi ochiq maydonlardan foydalanish samaradorligi turar joy aholisi soni chegarasi 1000–2000 kishiga rivoja qilinishiga bog'liq, bu chegarani oshirish birligining vujudga kelish imkonini yo'qqa chiqaradi va hudud nazoratsiz bo'lib qoladi. Ikkii omil funksional-fazoviy tashkilot, birlamchi turar joy o'rni surakteri va uning aholisi sonining o'zaro ta'sirlashuvi turar joy binolari guruhini tashkil etish usullarini aniqlashda qurilishning necha qavatli bo'lishini hisobga olish zarurligini shart etib qo'yadi.

Yangi turar joy tuzilmalarini funksional-fazoviy va landshaft tashkil etishda qo'shnichilik munosabati hisobga olinishi kerak, turar joy qurilishning ochiq maydonlarini tashkil etish esa ochiq fazolar (maydonlar) iyerarxiyasi tamoyili bo'yicha, ularning o'zaro bog'liqligi esa an'anaviy mahallalardagidek qurilishi kerak.

Qo'shnichilik munosabatlari bilan shart qilingan turar joy tuzilmasining ochiq maydonlari iyerarxiyasi va o'zaro bog'liqligi turar joy tuzilmalarini tashkil etishning turli darajalarida qulay landshaft-rekreatsion sharoitlarni uch darajada ta'minlash zaruriyatini belgilab beradi:

- bolalar va kattalar dam oladigan tinch o'yinlar (bolalarning o'yinchoqlar bilan) va harakatchan o'yinlar (kichik yoshdagagi bolalarning) amalga oshiriladigan bitta yoki bir nechta uyning rekreatsion fazosida;

- maktab yoshidagi bolalarning harakatchan o'yinlari, o'smildar va kattalarning sport o'yinlari, kichik yoshdagagi bolalarning kattalar nazorati ostidagi o'yinlari va barcha yosh guruh-

lardagi aholining tinch dam olishi amalga oshiriladigan turar joy uylari guruhini birlashtiruvchi rekreatsion fazoda. Bu yerda, quaylikni ta'minlash uchun piyodalar tranziti va transport imkoniyatlarining oldi olinishi kerak;

- kattalar hamda yoshlarning sport mashg'ulotlari va dam olishi amalga oshirilayotgan turar joy tuzilmasining umumiy rekreatsion fazosida turli yosh guruhlari uchun aralash dam olish maydonchalari joylashtirilishi mumkin;
- jamoatchilik markazi turar joy tuzilmasining zarur funksional elementi hisoblanadi.

Ko'rsatib o'tilgan fazolarni landshaft-rekreatsion tashkiloti hududni bolalar, yoshlar, kattalar va qariyalar uchun faol va tinch dam olish turlari bo'yicha zonalashni, shuningdek, aholi dam olishining psixiko-fiziologik qulayligini belgilab beruvchi mikroklimatik, sanitariya-gigiyenik va estetik talablarini, ochiq va soyalashtirilgan fazolari va landshaft elementlari (yog'och butali, tuproqni yoruvchi o'simliklar, suv qurilmalari va kichik me'moriy shakllar)ning ratsional munosabatini hisobga olgan holda yuz berishi kerak.


Turar joy qurilishining funksional-fazoviy tashkilotining optimal varianti ochiq fazolar va ularning o'zaro bog'liqligi iyerarxiysi prinsipi asosida yaratilgan model hisoblanadi. Bu yerda funksional-fazoviy muhit shunday tashkil etilganki, bunda aholida shaxsiy dam olish uchun — birlamchi uy oldi fazosi, birqalikdagi dam olish uchun — birlamchi turar joy guruhlari va turar joy tuzilmasi ijtimoiy fazosida dam olish uchun imkoniyat mavjud bo'lsin.

Mikrorayon hududini landshaft tashkil etish qurilmagan fazolarning parametrlarini belgilovchi qurilishni funksional-fazoviy tashkil etish bilan uzviy bog'langan (62-rasm).


Turar joy tuzilmasini funksional-fazoviy tashkil etishning mazkur tamoyiliga rioya qilish birlamchi turar joy tuzilmalari hududlarini landshaft-rekreatsion tashkil etish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Bunday holda turar joy qurilishi hududini landshaft loyihalash ikki bosqichda amalga oshirilishi kerak:

1. Loyihadan oldingi bosqich, unga quyidagilarni tahlil qilish va hisobga olish kiradi:

- aholining zichligi;
- qurilishni tashkil etishning me'moriy shahar qurilish sharoitlari;



62-rasm. Turar joy tuzilmasini funksional-fazoviy tashkil etishning optimal modeli:  
1 – birlumchi uy oldi fazosi; 2 – birlamchi guruhlар markazlari, 3 – birlamchi guruhlар  
yurim yarim ijtimoiy fazo; 4 – avtoturar joylar va xo'jalik zonalari, 5 – markazli turar  
joy tuzilmasining ijtimoiy fazosi (ingliz maktabi bo'yicha).



63-rasm. Qurilishni funksional-fazoviy tashkil etishning turar  
joy tuzilmalarini landshaft tashkil etilishi bilan o'zaro aloqasi:  
*Ximki – Xovrino mikrorayoni misolida (Moskva).*

- ijtimoiy-demografik guruhlarning dam olish turlariga ehtiyoji (bolalar, yoshlar, o'rtalari va qari yoshdagisi aholi);
- hududning tabiiy sharoitlari (relyefi, suv resurslari, o'simliklari),
- hududning sanitariya-gigiyenik xarakteristikalari (insolatsiya, aerotatsiya),
- hududda aholining piyoda harakatlanishlari.

## 2. Loyiha bosqichiga quyidagilar kiradi:

- hududni faol va tinch dam olish turlari bo'yicha rekreatsion zonalash, u yerda muloqot qilish zonalari, toza havoda sayr qilish, harakatli o'yinlar, dam oluvchilarning yoshiga bog'liq holda sport zonalari aniqlanadi va joylashtiriladi;
- rejallashtiruvchi va fazoviy tashkil etish yo'l tarmog'i, bolalarning dam olish va o'yinshlari uchun maydonchalar, o'simliklar, suv qurilmasi, kichik me'moriy shakllar, dekorativ qurilmalar.

### 2.4.3. Turar joy tuzilmasini landshaftli tashkil etish

Turar joy tuzilmasini landshaft tashkil etilishi qo'shnichilik munosabatlari, dam olish, jamoatchilik bo'sh vaqt va turli iyerarxik darajadagi hududlarda dam olishni piyodalar uchun imkonli borligining psixologik qulayligini hisobga olib rejallashtirilishi kerak.

Masalan, shaxsiy dam olish kichik bog' hududida kichik hovlilarda, ochiq xonodon ayvonchalarida va birlamchi uy oldi maydonlarining umumiy hovlilarida tashkil etiladi (odatda, bu yerda oila a'zolari va kichik yoshdagi bolalar kattalarning nazorati ostida dam oladi; kichik maktab yoshidagi bolalarning va qariyalarning dam olishi uy oldidagi yarim jamoatchilik maydonlarida tashkil etiladi; o'smirlar va kattalarning dam olishi mikrorayonning jamoatchilik maydonida tashkil etiladi. Yoshlar dam olish va bo'sh vaqtini turar joydan tashqarida (shahar yoki tuman rekreatsiyalarida) o'tkazishni afzal ko'radi.

Landshaft-rekreatsion fazolarning barcha sanab o'tilgan elementlari turar joy qurilishi landshaft muhitini yaxlitligini shakllantirishda, dam olish, muloqot qilish va bo'sh vaqtini o'tkazish muhitning psixologik va fiziologik qulayligini ta'minlashda o'zaro bog'lovchi ahamiyatga ega bo'ladi. Muhitning qulay mikroiqlimiyligi, sanitariya-gigiyenik va estetik tavsiyalarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bunda landshaftni tashkil etishda o'simliklarni to'g'ri tashkil etish yetakchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Aholining turli guruqlarinining dam olishini ta'minlash uchun kichik yoshdagi bolalarning (0–4 yosh), maktabgacha yoshdagi bolalarning (5–7 yosh), kichik yoshdagi o'quvchilar (8–10 yosh), o'rta yoshdagi o'quvchilar (11–14 yosh), o'qiyotgan yoshlar (15–22 yosh), ishlayotgan yoshlar (23–35 yosh), mehnat qilish

(qobiliyatiga ega aholi (36–60 yosh) va nafaqaxo'rlar (60 va undan ortiq yosh) dam olishi hududlarini funksional zonalarga ajratishni ko'zda tutish zarur.

Aholining har bir guruhi o'z vaqt budgetiga ega turar joy tuzilmasi hududida dam olishning tarkibi va mazmuniga o'zining o'ziga xos talablarini qo'yadi:

- Taxminan 70 % maktabgacha yoshdagি bolalar yakshanbadan boshqa kunlar maktab muassasalarida bo'lishadi. Maktabgacha yoshdagи bolalar nisbatan harakatchan bo'lishadi va oditda uya kirish joylari yaqinida sayr qilib yurishadi. Ko'pincha ularni oiladagi katta yoshdagи kishilar kuzatib yurishadi, bu kattalar uchun o'yin maydonlarida yoki ular yonida dam olish joylari tashkil etiladi. Maktabgacha yoshdagи bolalar uchun o'yin maydonlari kichik shakllar to'plami bilan jihozlanishi kerak, bunday yoshdagilar uchun qum chuqurlari, past arg'im-choqlar, sirpanib tushuvchi balandliklar va boshqalar o'ziga xosdir.

- Kichik va o'rta yoshdagи maktab o'quvchilari kunning ikkinchi yoki kechki yarmini mikrorayonning o'yin maydonchalida o'tkazishadi. Ular maktabgacha yoshdagи bolalarga nisbatan ancha harakatchan va mustaqil bo'lishadi, ularning o'yin maydonchalari kichik shakllarning ancha keng to'plamiga ega bo'lishi va iloji boricha turar joy binolaridan ko'kalamzor, maktabgacha yoshdagи va kattalar dam oladigan maydonchalar bilan ajratilishi kerak.

- O'rta va katta yoshdagи maktab o'quvchilari kunning ko'p qismini maktabda o'tkazishadi va vazifalarini bajarish uchun ko'p vaqt sarflashadi. Bu guruhdagi bolalar uchun hududning boshqa komponentlaridan ajratilgan sport maydonlari barpo etilishi kerak.

- Kattalar va yoshlar ish kunlarini o'rtacha 10–11 soat turar joylaridan tashqarida o'tkazishadi (ish, o'qish, madaniy-maishiy va tomoshabop joylarga, stadionlar va shahar parklariga borish). Aholining bu guruhi mikrorayon hududidan eng kam foydalanadi.

- Pensionerlar vaqtining ko'p qismini uy yaqinida o'tkazishadi. Ularning taxminan 20 % maktabgacha yoshdagи bolalar bilan, 60 % esa bolalarsiz dam olishadi. Ular uchun uy yaqinida maydonchalar quriladi.


Turar joylar qurilishida har xil kompozitsion-fazoviy qu'rilmalar qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, turar joy guruhlari, masalan, perimetral va chiziqli kompozitsion-fazoviy qu'rilmalar quriladigan va alohida turgan uy-joy oldidagi hududlarning landshaftini tashkil etishi 64, 65-rasmlarda va 33, 34-rasmlar jadvalda ko'rsatilgan. Turar joylar maydonchalarining normasi 4-jadvalda berilgan.

### Turar joy hududlariga har xil maqsadga yo'naltirilgan maydonchalar joylashtirish


4-jadval

T/r	Maydoncha turlari	Normativlar
	Bolalar maydonchalari	0,55–0,7 m <sup>2</sup> /k.
1.	kichik yoshdagi o'quvchilar uchun	0,2 m <sup>2</sup> /k.
2.	maktabgacha yoshdagi bolalar uchun	0,35–0,5 m <sup>2</sup> /k.
3.	Sport maydonchalari	1,00 m <sup>2</sup> /k.
4.	Dam olish maydonlari	0,2 m <sup>2</sup> /k.
5.	Xo'jalik maydonlari	1,00 m <sup>2</sup> /k.
6.	Yo'laklar	10 %
7.	Ko'kalamzorlashtirilgan maydonlar	30 %

Loyihalash tajribasi shuni ko'rsatadiki, turar joy hududlarida 1 m<sup>2</sup>/kishi hisobida sport maydonchalari joylashtirish mumkin emas. Faqatgina 0,7 m<sup>2</sup>/kishi hisobida joylashtirish mumkin. Qolgan maydonchalar yoki ularning katta qismini bevosita turar joy qurilishi hududidan tashqarida joylashtirish mumkin.



64-rasm. Turar joy guruhlari hududlarini landshaftini tashkil etishga misol.



65-rasm. Alohida turgan uy oldi hududi landshaftini tashkil etish.

## BOLALAR O'YNASH MAYDONCHASI


33-rasmlar jadvali



Bolalar maydonchasini landshaft-arxitekturaviy loyihalash:  
maydonchuning bosh plani, landshaft va arxitekturaviy dizayn takliflari, bajaruvchi  
arshtektor-dizayner bakalavri Yu.A. Bakanovaning diplom ishi, diplom rahbari  
ars nomzodi N. Pomenko, Toshkent arxitektura-qurilish instituti, 2008-y.

## TURAR JOY HUDUDI LASHDSHAFTINING TASHKIL ETILISHI

34-rasmlar jadvali



Mikrorayon ko'pqavatli uylar oldidagi hududlarni landshaft kompozitsiyalarini tashkil etish.

Maktabning sportga tegishli o'zagini sport bilan ta'minlash hisobiga kiritilmaydi. U yerdan o'quv mashg'ulotlari uchun yilda faqat 4 oy (aprel-may, sentabr-oktabr) atrofida foydalanishi mumkin, qolgan vaqtida esa aholining bolalar guruhi foydalanishi mumkin. Shuning uchun turar joy hududini sport bilan ta'minlash hisobiga ularni ham qo'shib umumiy maydonlar sonini kamaytirish mumkin. Bu yechim hududini ko'proq samarali foydalanish imkonini beradi.

Turar joy hovlilari hududida aholi dam olishi uchun mo'l-jallangan maydonchalardan tashqari har xil maqsadlarga yo'naltirilgan xo'jalik maydonchalarini ham loyihalash kerak (kirlarni quritish, gilam qoqish, axlat yig'ish qurilmalari uchun). Axlat yig'ish maydonchalari uylarda axlat quvurlari bo'lgan taqdirda ham loyihalanadi. Bunday hollarda ular kvartal ichidagi yo'l va yo'laklardan yig'iladigan yirik axlat yig'ish vazifasini o'taydi.

Turar joy qurilishida madaniy-maishiy va savdo muassasalar, mакtablar, bog'chalar va bekatlarga eng qisqa va qulay yetishni ta'minlovchi yo'l-transport tarmog'i ham o'rин egallashi lozim.


Turar joy tashqi muhitining mikroiqlimiyligining qulayligining mosly sharti hududning soya tushish va havo almashishi tartibini hisobga olgan eng optimal landshaft elementlarini fazoviy tashkil etish hisoblanadi. Bu borada mahalliy iqlim sharoitida ochiq va soya muhitlarning to'g'ri nisbati hisobga olinishi lozim (daraxtlar va soyabonlar, pergolalar va boshqalar bilan). Turar joy hududlarini landshaft tashkil etishda ko'kalam-zorlashtirish prinsiplarini bilish shart. Shuning uchun daraxtlarning soyalantirish rejimini va landshaft elementlarini joylashtirishini olish kerak (66-rasm).

Yashash hududlariga yashil o'simliklarni shunday joylashtirish kerakki, ko'kalamzor hududlarda havo almashish imkoniyati bo'lsin. Havo aylanishiga to'sqinlik qiluvchi baland yashil ektnlar bilan o'ralgan o'tloqlar, maysazorlar, xiyobonlar yaratilsha teskari natija hosil bo'lishi mumkin, ya'ni ko'kalam-zorlashtirilgan hududlarda harorat yuqori bo'ladi.

Turar joy hududlarini shahar ichki yo'llarini ko'kalam-zorlashtirish va katta ko'chalardan quyuq daraxtlar va butalar ekinajratish lozim (67, 68-rasm).

Axlat yig'iladigan xo'jalik maydonchalari o'rab turgan hududlarni ajratilishi va butun kun davomida qalin daraxt va butalar ekish bilan soya yetilishi lozim. Choyshab quritilishiga


mo'ljallangan xo'jalik maydonlariga shunday joy tanlash kerakki, butun kun davomida quyosh tushishi va yaxshi havo aylanishi lozim.



66-rasm. Turar joy hududlarini daraxtlar bilan soyalashtirish soatlarini  
landshaft tashkil etishda inobatga olish:  
A – maydonchalar; B – yo'lakchalar; D – sport maydonlari.


Bolalar, sport maydonchalari va dam olish maydonchalari atrof hududdan ularda havo yaxshi aylanishini hisobga olgan holda ajratiladi. Shuning uchun bu maydonchalar atrofiga panjarasimon butalar va daraxtlar ekiladi.

Kichik yoshdag'i mablag'i o'quvchilari maydonchalarida bolalar cho'milish basseynlari, bolalar maydonlari hisobiga kirmaydigan maydonlar joylashtirish mumkin. Ba'zi hollarda maktabgacha va kichik yoshdag'i, ya'ni 9–13 yoshgacha mablag'i o'quvchilari uchun umumiylis kompleks maydonchalar qo'llash mumkin. Bunday maydonchalar o'lchamlari 350–400 m bo'ladi (5-jadval).



67-rasm. Turar joy hududlari yo'llarini landscape elementlarini tashkil etish:

- 1 – pergolalar;
- 2 – o'tirish joylari;
- 3 – suvli ariqlar;
- 4 – gullar;
- 5 – gazonlar;
- 6 – daraxtlar.



68-rasm. Turar joy hududlarini daraxtlar va butalar bilan ko'kalamzorlashtirish.

### Bolalar kompleks maydonchalarining o'lchamlari

5-jadval

Bolalarning yoshiga ko'ra guruhi	Ming kishi-ga maydon-lar soni	Maydonlar o'lchami, m
Bog'cha va maktabgacha yoshdagi - 7 yosh.	2	150-200
Kichik maktab yoshidagi - 7dan - 13 yosh.	3	200-250

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari va bog'cha yoshidagi bolalar maydonlarini birlashtirish tavsiya etilmaydi. Bog'cha yoshidagi bolalar maydonchasini kattalar dam olish maydoni bilan birlashtirish maqsadga muvofiq (6-jadval).

Doim qo'llaniladigan kichik shakllardan tashqari har xil yog'och va betondan tayyorlangan original qurilmalar qo'llanishi mumkin (7-jadval).

1,5–2,5 ming kishilik alohida turar uylar guruqlarida 22x25 m o'lchamli kompleks sport maydonlari loyihalanishi mumkin. Hularga maktab sport maydonlari kirmaydi. Sport maydonlari bino oynalariga 25 m dan yaqin bo'lmasligi kerak. Yoshi katta aholi uchun maydon o'lchamlari belgilanmaydi. Bir maydonchining eng qulay o'lchamlari 25–75 m<sup>2</sup>. Ba'zi hollarda 150 m<sup>2</sup> gacha ruxsat etiladi.

## Bolalar maydonlarini tavsiya etilgan hududlarga bo'lish

6-jadval

Bolalar maydonini funksional hududlarga ajratish	Bolalar maydonchasi umumiy maydonidan % hududlarga berish		
	sport snaryadlarini joylashtirish	ommaviy o'yinlar hududi	bolalar aravasini joylashtirish
Bog'cha va maktabgacha yoshdagi bolalar dam olishi uchun (7 oshgacha)	20	65	15
Kichik maktab yoshidagi bolalar dam olishi uchun	20	80	-
O'rta maktab yoshidagi bolalar dam olishi uchun	30	70	-

## Sport maydonchalari turlari

7-jadval

Sport maydonchalari turlari	Maydonlar o'lchamlari		1000 kishilik turar joy guruhlari uchun maydonlar soni		
	umumiy	o'yin maydoni	0,5-6,5	3,5-5,5	1,5-3,5
Basketbol maydoni	30x80	26x14	2-3	-	-
Voleybol maydoni	25x14	9x18	3-4	2-3	2-4
Tennis maydoni	40x20	24x11	1 -2	1	-
Stol o'yinlari u-n	4,5x8	-	3	2	2
Gimnastik o'y. u-n	600 m <sup>2</sup>	-	1	1	-

Yo'l va yo'lak tarmog'i hovli yo'laklariga qo'shimcha sifatida xizmat qilishi lozim. Ularga ham yo'l-transport tarmoqlariga qo'yiladigan talablar tegishlidir. Turar joy guruhlari huddida harakat maqsadi va intensivligidan kelib chiqqan holda piyodalar yo'lagi eni quyidagi ma'lumotlarga asoslanib belgilanadi (8-jadval).

## Turar joy piyodalar yo'laklarining eni

8-jadval

Yil davomida foydalilaniladigan tranzit yo'llar	3 m
Tranzit va mavsumiy yo'laklar	2,25-1,5 m
Yil davomida va mavsumiy qo'llilaniladigan yo'laklar	0,5-0,75 m

Turar joy hududlarida yashil o'simliklarni hududning havo almashinuvini hisobga olib joylashtirish lozim. Baland yashil ekinlar bilan o'ralgan o'tloq, maysazor, xiyobonlarda havo harakati sekin bo'ladi. Bu havo haroratining ko'tarilishiga olib keladi. Turar uylar hududlarini shahar ichki yo'l va ko'chalaridan quyuq daraxt va butalar ekish orqali ajratish lozim.

#### **2.4.3. Bolalar bog'chalarining landshaftini tashkil etish**

Bolalar bog'i hududida quyidagi zonalar joylashtiriladi: bolalar bog'i, o'yin maydonchalari mavjud bo'lgan yozgi ayvon, yashil ekinlar, xo'jalik hududi, yo'llar, yo'laklar.

Ikki guruhga mo'ljallangan ayvonli maydonchalar bolalarning asosiy vaqtini o'tkazadigan, shuningdek, ularning organizmini toplash va dam olishini tashkil etish uchun mo'ljallangan. Maydonchani shunday loyihalash kerakki, tarbiyachilar har qanday vaqtda bolalar nima bilan shug'ullanayotganini ko'rib turishi lozim. Har xil guruhdagi bolalarning o'zaro aloqasiga yo'l qo'ymaslik uchun har bir maydonchani boshqalaridan yashil ekinlar bilan ajratiladi (9-jadval).


#### **Guruh maydonchalar hududini quyidagi zonalarga ajratish**

**9-jadval**

Zona	Bolalar yoshiga qarab zona o'lchamlari	
	3 yoshgacha	3 dan 7 yoshgacha
Soyabon	32	32
Usmoniy tarbiya uskunalarini va manejlar	20	50
Guruh o'yinlari	50	55
Qum maydonchasi	15	15
Tinch dam olish	33	28

Soyabonlar guruh mashg'ulotlari va faol harakat talab qilmaydigan (kitob o'qish, qo'g'irchoq o'ynash) o'yinlar uchun mo'ljallangan. Tinch dam olish hududida bolalar skameykalari va stollari joylashgan «yashil cho'ntaklar» qo'llaniladi. Maydonchada soyabondan tashqari qum maydonchasi bo'lishi kerak. Maydonchada bolalar fantaziyasini rivojlantiradigan va oson yig'iladigan uskunalar katta ahamiyatga ega.

Umumiy maydonlar 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun quriladi. Unga jismoniy tarbiya maydoni, tirik burchak, poliz, mevali bog', cho'milish hovuzi, velosiped uchish uchun halqasimon yo'lak va h.k. kiradi. Jismoniy tarbiya maydoni ( $250\text{ m}^2$ ) tirmashib chiqish, voleybol, basketbol, sakrash va boshqa harakatchan o'yinlar uskunlari bilan jihozlanadi. Tirik burchak ( $20\text{ m}^2$ ) bog'chaning xo'jalik hududiga yaqin joylashtiriladi. Bu yerda quyon, tovuq va boshqa kichik hayvonlar uchun qafaslar joylashtiriladi. Polizga janub tomondan soya tushmasligi kerak. Jo'yaklar iloji boricha sharqdan g'arbga qaratib joylashtirilishi lozim. Polizni karam, pomidor, ildizmevali ekinlar uchun huddularga ajratish maqsadga muvosiqdir. Jo'yaklar eni 1 m, uzunligi 3 m. Bolalar bog'i landshaftini tashkil etish 69-rasmida keltilirgan. Mevali bog'da asosiy mevali daraxt va butalar turlari (olma, nok, olcha, gilos, smorodina, malina) bo'lishi lozim. Bolalar cho'milish hovuzi ( $25-30\text{ m}^2$  va  $25-50\text{ sm}$  chuqurlikda) bolalarni toplash va suv o'yinlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, kemalar suzishi uchun ariqlar o'tqazish tavsiya etiladi. Bu ariqlar guruh maydonlari yonidan o'tqazilishi mumkin.



69-rasm. 240 o'rinni bolalar bog'chasi hududida landshaft tashkil etilishi:  
1 — soyabon; 2 - qumli maydoncha; 3,4 - cho'milish hovuzi; 5 — tirmashib chiqish  
uchun devor; 6 — uchish joyi; 7 — choyshab quritish uchun ustunlar; 8 — panjara.

Bolalar bog'chasi hududi perimetri bo'ylab butalar 2 qator tirik panjara qilinadi va eni 5 m dan kam bo'lmagan chiziqda daraxt qatori ekiladi. Umumiy foydalanishga mo'ljallangan maydonchalar atrofidagi daraxtlar havo aylanishi hisobga olingan holda joylashtiriladi. Daraxt va butalar shunday joylashtirilishi

butakki, maydon hududining katta qismiga (55 %) kun davomida quyosh tushishi lozim. Daraxt va butalar bog'cha binosiga uzoq qilmasligi kerak, shuning uchun daraxtlar binoga 10 m dan yaqin ekilmaydi, butalar esa 5 m dan yaqin ekilmaydi. Daraxtlar yo'lak chetidan 1 m uzoqlikda ekiladi.

Gulzorlar asosan maydon va binolarning kirish qismiga, shuningdek, bino va halqa yo'li o'tasida yo'lak qilib joylashiriladi. Har bir guruh maydonchalari atrofiga gulpushtalar ekish lavsiya etiladi. Gulzorlarga ko'pyillik gullar (popukli floks, pion, delfinium, aqvilegiya, rudbekiya va h.k.) va uzoq gullaydigan bir yillik gullar (xitoy astrasi, antirrium, petuniya, sinniya, klarkiya, portulak, kosmeya va b.) ekish maqsadga muvofiq.

Xo'jalik hovlisi hudud chegarasiga bevosita tutashgan bo'lib, boshqacha hududlardan hatto bolalarning bexosdan kirib qolishiga yo'l qo'ymaydigan darajada ajratilishi lozim. Xo'jalik hovlisi aslat yig'ish qurilmalari, kir quritadigan maydonchalar va xo'jalik omboridan tashkil topadi.

Yo'llar eni 3,5 m va 12x5,5 m li orqaga burilish maydonchasi bilan loyihamanadi. Ularmi bino bo'ylab eng qisqa masofada va fasad qismidan 8 m uzoqlikda loyihamanadi. Binodan bolalarni guruh maydonchalariga va guruh maydonchalardan umumiya o'tishi uchun 1-1,5 m li yo'laklar yotqiziladi. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar maydonchalar o'zaro velosiped uchish uchun mo'ljallangan halqa yo'lak bilan bog'lanadi. Yo'laklar qattiq bo'limgan qoplamlalar bilan qoplanadi (g'isht, qum, shag'al, graviy, mayda graviy va h.k.).

#### **2.4.4. Maktab hududi landshaftini tashkil etish**


Maktab hududi qizil chiziqdandan kamida 15 m uzoqlikda alohida joylarga joylashtiriladi. Maktab hududi chegarasidan turar nylar devorigacha masofa, agar kirish mavjud bo'lsa, 10 m, agar kirish bo'lmasa, 5 m dan kam bo'lmasligi kerak.

Hudud qulay shaklda, yaxshisi to'rtburchak tarzda bo'lib, yon atrofidagi hududlardan panjara va butalar bilan ajratiladi. Maktabga yo'llar eng qisqa yo'naliish bo'ylab loyihamanadi. Hudud ko'cha bilan maxsus yo'l yoki turar uylarni shahar yo'li bilan bog'lovchi kvartal ichki yo'li bilan bog'lanadi.

Maktab hududi landshaftini tashkil etishda bino joylashishi katta ahamiyatga ega. Binoni hududning bir tomoniga joylash-

tirish maqsadga muvofiq. Bu gorizontal tekislik kerak bo'ladigan sport va boshqa maydonlar joylashtirish uchun qulay.

Maktab landshaftini tashkil etish 4 asosiy funksional zonalashga asoslanib (kirish, dam olish, o'quv-tajriba, xo'jalik) loyihalanadi (70-rasm).



70-rasm. 1000 o'rinni maktab hovlisini landshaft tashkil etilishi:

1 – kichik sinf o'quvchilar uchun rekreatsiya; 2 – katta sinf o'quvchilar uchun rekreatsiya; 3 – kichik sinf o'quvchilar uchun o'quv-tajriba joyi; 4 – xo'jalik va tabiiy o'simliklar o'stirish uchun yer maydoni; 5 – xo'jalik zonasasi; 6 – issiqxona uchastkasi;

7 – tinch dam olish hududi; 8 – bog'; 9 – ertalabki lineyka maydoni; 10 – astronomiya va geografiya maydonchalar; 11 – kichik sinf o'quvchilar o'yinlari uchun maydonchalar; 12 – kichik sinf o'quvchilar uchun sport maydonchalar; 13 – maktab stadioni.

Kirish hududi yig'ilishlar o'tkaziladigan maydonni o'z ichiga oladi. Rekreatsiya hududi eng katta hudud hisoblanib, unga faol va tinch dam olish hududlari kiradi. Faol dam olish hududiga kichik va katta yoshdagagi maktab o'quvchilar dam olishi, sport hududi kiradi.

Sport hududiga esa futbol maydoni, kichik va katta yoshdagagi maktab o'quvchilar uchun sport maydonlari to'plami kiradi. Tinch dam olish hududi dam olish burchaklari mavjud bo'lgan istirohat bog'chasi ko'rinishida loyihalanadi. O'quv-tajriba hududi o'z ichiga mevali bog', poliz ekinlari va sabzavotlar uchun, kichik yoshdagagi maktab o'quvchilar uchun tajriba uchastkalari, issiqxonalarini oladi.

Xo'jalik hududida omborxonalar, uskulalarni olib kelish va tushirish uchun maydonchalar, asbob-uskulalar saqlash joyi va axlat yig'ish qurilmalari uchun maydonchalar va boshqalar joylashtiriladi. Maktab hududi landshaftini tashkil etishda, ayniqsa,

inch dam olish hududini bog‘-park san’ati an’analariga rioya  
nig‘at holda loyihalash lozim.

## 2.5. Shahar bog‘lari va parklari

### 2.5.1. Shahar parklarining tasnifi

Shaharlar va aholi punktlarini ko‘kalamzorlashtirish sistemiida o‘lchamlari bo‘yicha eng katta va ahamiyati bo‘yicha eng muhim o‘rinda parklar turadi. Bu keng ko‘kalamzorlashtirilgan hududlar qoida bo‘yicha 5 ga dan kam bo‘lmaydi, shuningdek, u daraxt va butalarning ko‘p turlari, xiyobonlar, yo‘laklar, maydonlardagi dekorativ gulzorlar kompozitsiyalari va ohim bilan boyitilgan bo‘ladi. Parklarda fontanlar, hovuzlar, haykallar, har xil kichik arxitekturaviy shakllar joylashtiriladi.

Foydalanish xususiyatiga ko‘ra parklarni ikki asosiy kategoriyaga bo‘lish mumkin: **polifunksional parklar** – funksional foydalanilishiga ko‘ra ko‘p tarmoqli, **monofunksional parklar** – funksional foydalanishning qandaydir tarmog‘i rivojlantirilgan parklar.

Polifunksional parklarga shahar va tuman madaniyat va istirohat bog‘lari, ba’zan bir-biriga yaqin bo‘lgan aholi punktlari mayjud bo‘lgan shaharlar aglomeratsiya parklari kiradi.

Monofunksional parklarga istirohat, tarixiy, memorial, etnografik, bolalar parklari; attraksionlar parklari, ommaviy tomosha parklari, shuningdek, maxsus parklar sirasiga kiruvchi dendroparklar, ko‘rgazma parklari, hayvonot bog‘lari, sport parklari turadi. Maxsus parklar turiga tematik parklar kiradi.

Yuqorida keltirilgan tasnif parkning xilma-xilligini chegaralaydi. Kelajakda shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish sistemasi dog‘i o‘rni va funksional vazifasiga ko‘ra parklarning har xil turlari rivojlanishi mumkin.

Park tasnifini tanlashda uning geografik joylashuvi va park hududining landshaft xususiyatlari katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ko‘p funksiyali parklarning ba’zi turlari quyida ko‘rib chiqiladi. Madaniyat va istirohat bog‘lari umumiy parklar tipidir.

### 2.5.2. Shahar va tuman madaniyat va istirohat bog‘lari

Parkning bu o‘ziga xos turi dastlab turmush, madaniyat, madaniy xizmatning ijtimoiy shartlari o‘zgarishi bilan bog‘liq

bo'lgan ijtimoiy davlatlarda paydo bo'ldi. Madaniyat bog'larining ajralib turuvchi xususiyatlari bu keng ko'lamda madaniy oqartuv va davolash-sog'lomlashtirish ishlari bilan aholining ommaviy dam olishining uyg'unlashuvi hisoblanadi.

Madaniyat bog'i bir-biridan qo'llanilish xarakteriga ko'ra farq qiluvchi bir qancha hududlarni o'z ichiga olishi lozim Masalan, ommaviy-tomosha hududi odamlar ko'p to'planadigan parkning markaziy qismida joylashishi kerak. Bu yerda uch-rashuvlar, tantanalar, mitinglar, karnavllar o'tkazish uchun ochiq maydonlar joyihalash maqsadga muvofiq. Bu hududda tribuna, estrada sahnalari, orkestr uchun joy, raqs maydonchasi, arg'imchoq va boshqa attraksionlar joylashtiriladi. Madaniy oqartuv hududiga ko'rgazma pavilyonlari, kinoteatrlar, o'quv zallari, klublar va h.k. lar kiradi.

Jismoniy tarbiya va sport hududida voleybol, basketbol, tennis, gimnastik mashqlar maydonlari, shaharchalar, ba'zan futbol maydoni bo'lishi kerak.

Bolalar hududini odatda parkning tinchroq hududida ajratilgan holda joylashtiriladi va bolalar o'yinlari uchun maxsus moslamalar bilan jihozlanadi.

Madaniyat va istirohat bog'ida tinch dam olish hududi ham loyihalanadi. Bu hudud manzarali ko'rinishlar, toza havo bo'lgan gamaka, kachalka, shezlonglarda yoki shunchaki maysa ustida dam olish mumkin bo'lgan parkning tinch hududida joylashtiriladi.

Butun park hududi bo'ylab tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish uchun ovqatlanish joylari, ob-havo buzilganda pana joylar, ma'lumotlar berish joylari va boshqa tarmoqlar tashkil etiladi.

Madaniyat va istirohat bog'larini rejalashtirishda aralash re-jalashtirish usuli tarqalgan:


- muntazam rejalashtirish usuli odatda markaziy kirish, parkning tantanavor qismi, park inshootlari hududi, sport, attraksionlar hududi va boshqalar bo'yicha loyihalanadi;
- manzarali va landshaft hududi shovqinli magistrallar va faol hududlardan uzoqroq joylashtirilishini talab qiladi, shuning uchun bu hududni parkning shahar shovqiniga kamroq aloqador boshqa hududlariga, masalan, mahalliy o'tish yo'llari hududi yoki tabiiy landshaftlar bilan chegaralangan hududlarga o'tish imkoniyati bo'lgan holda parkning o'rtaq qismiga joylashtirish ma'qulroq;

• markaziy madaniyat va istirohat bog'lariga uzoq masofa tufayli tez yetib borish ilojisi bo'lmagan katta shaharlarda uzoq tumon aholisi uchun tuman rejaviy parklari loyihalanadi.

### 2.5.3. Ko'pfunksional parklarning hududlardagi funksional qismlari

Zamonaviy shahardagi park o'ziga — shahar muhitini sog'tomlashtirish funksiyasini oluvchi, shahar landshaftini boyituvchi, tabiatni qo'riqlash va abolining dam olishiga yordam beruvchi ko'kalamzor makonlar tizimining eng muhim elementidir.

Ommaviy ko'p funksional park turi hududning yetarlicha vattaligida shahar aholisining tabiiy dam olishini tashkil etish (71-rasm).



71-rasm. Ko'p funksional parklarni zonalashtirish:

I — ommaviy tadbirlar qismi, II — bolalar dam olish qismi, III — jismoniy tomlashtirish inshootlari, IV — madaniy oqartuv qismi, V — tinch dam olish qismi, VI — xo'jalik qismi.

Bunday parklar hududini qismilarga bo'lish maqsadga muvo fiqdir:

- ommaviy tadbirlar – 5–7%
- bolalar dam olishi – 5–10 %
- jismoniy sog'lomlashtirish – 10–20 %
- madaniy-oqartuv tadbirlari – 3–8 %
- tinch dam olish – 50–75%
- xo'jalik – 1–5 %

**Ommaviy tadbirlar qismi** – parkning asosiy kirish qismi yaqinida joylashadi. Teatr, kino, o'yin maydonchasi, attrakcionlar, festival maydoni, ommaviy o'yimlar va boshqalar.

**Bolalar dam olish qismi** – alohida joylashtirish, parkka kirish joyi yaqinida, 1 dan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar qobiliyatlarini rivojlantiruvchi o'yin maydonchalari, turli inshootlarni o'z ichiga oladi.

**Jismoniy sog'lomlashtirish inshootlari** – tekis relyefli, suv havzasi bor ochiq joylarda iloji boricha bitta majmuaga birlashtirish maqsadga muvofiqdir.

**Madaniy oqartuv qismi** – park hududi bo'yicha erkin joylashtiriladi, lektoriylar, kichik ko'rgazma pavilyonlari va kafe, o'quv zali, havaskorlik mashg'ulotlari uchun xonalarni o'z ichiga oladi.

**Tinch dam olish qismi** – parkning katta qismini egallaydi va tabiiy peyzajlar bilan xarakterlidir. Bu yerda har qanday inshootlar qurish, kichik me'moriy shakllar – treluj, bog' mebelidan tashqari man qilinadi.

**Xo'jalik qismi** – parkning chekka qismida, tutash ko'chaga o'zining chiqish joyi bilan joylashadi. Asbob-uskunalar, park jihozlari, omborlari, yuklarni tushirish maydonchalarini o'z ichiga oladi.

Parklar qoshida avtomobil to'xtash joylari va keluvchilar uchun gigiyena punktlarini ko'zda tutish lozim.

Ko'p funksiyali park tabiiy balansini saqlash uchun uning o'lchamlari 20 ga dan kichik bo'lmasligi kerak. Masalan, O'zbekistonning eng katta parklardan biri Toshkentdag'i – «O'zbekiston milliy bog'i» (72-rasm.).

Uning o'lchami 70 ga dan katta, lekin O'zbekiston shaharlaridagi va Toshkentdag'i boshqa parklar hajmi 10–15 gektarga cha yetadi.



73-rasm. O'zbekiston milliy bog'ining ko'rinishi va birinchi rejasি. 1939-y., arx. Semyonov.



Park hududlarining balansi «tabiiy» muhitlar komponentlari sun'iylikdan ustunligi ta'minlangan holda 10-jadvalda aks ettiligiga.

Hozirgi vaqtida parklarni funksional qismlarga bo'lishga an'anaviy yondashuv bilan bir qatorda boshqa an'ana ham rivojlanmoqda (73-rasm).


### Park hududlarining balansi

10-jadval

Hududdan foydalanish turlari	Hududning taqsimlanishi %, qatnov zichligi	
Yuqori, 60 odamdan ko'p	65....75	O'rta va past 60 odamdan kam
Vashid o'simliklar va avv havzalari	10....15	8....12
Xiyobonlar va yo'llar	8....12	4....8
Inshootlar	5....7	2....7

Funksional qismlarga bo'lish va hisob balansidan tashqari huquqini himdshaftning sun'iy inshootlar bilan to'ldirganlik darajasi bo'yicha differensiallash va quyidagi yirik qismlarni aksatish lozim:

a) park inshootlari to'plangan qism – rekreatsion bosim 100 odamning hisob qilingan, yuqori darajada obodonlashtirilgan. Inshootlar, xiyobon va maydonlar bu yerda 30 % gacha maydonni egallaydi;



73-rasm. Parkning funksional-rejalahshtirish kompozitsiyalari:  
*a* – perimetral; *b* – tugun-yaqinlashirilgan; *c* – o'qli yoki anfiladli;  
*d* – tugun-uzoqlashirilgan; *e* – kompakt.

**b) ommaviy qatnov qismi** yuqorida ko'rsatilganda tutashgan – rekreatsion bosim 50–100 kishiga hisob qilingan, oddiy park darajasida obodonlashtirilgan. Bu yerda landshaftning sun'iy elementlari tabiiyga bo'ysundirilgan;

**d) tabiiy qism** – shahar muhitidan ajratilgan, obodonlashtirishning minimal darajasiga ega, bu yerda har qanday inshootlar iloji boricha qurilmaydi, 50 kishiga kam rekreatsion bosimga mo'ljallangan.

**Parkning kichik o'lchamlarida** – 10–50 ga gacha maydonning chetiga joylashgan kompleks rekreatsion markazni tashkil etish eng ratsionaldir.

**Parkning o'rta o'lchamlarida** – 50–100 ga gacha uch-to'ri maxsus markazlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ularga tegishli funksional qismlar yondashadi.

**Yirik parklarda** – 100–500 ga gacha bir nechta yirik kompleks markazlari tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Bu tavsiyalar taxminiydir va parkning ixcham tarhiga, uning bir xil atrofiga mo'ljallangan. Cho'ziq shaklli tarhda, hatto kichik parklarda xizmat ko'rsatishni yagona tugunda to'plash qiyin, bu yerda bir nechta tortilish fokuslari lozim bo'ladi.

Parkning tarixiy tarkibi quyidagi beshta inshootlarni joylashtirish tuzilmalaridan biri bo'yicha qurilgan funksional-rejadashtirish kompozitsiyalari 73-rasmda berilgan.

#### 2.5.4. Maxsus park va bog'lar

**Istirohat bog'ları** tinch dam olish uchun mo'ljallanadi. Unda qiziqarli landshaft manzaralari, ko'p tarmoqli yo'laklar to'ilmasi, chiroyli daraxt va butalar guruhlari mavjud bo'lgan manzaralari maydonlaridan ko'rish nuqtalari va gulzorlar, mayzorlar loyihalanadi.

Bunday bog'lar qiziqarli dam olish joylarida ko'p sonli komeykalar bilan jihozlanadi. Baland nuqtalarida besedkalar – rotondalar va keng ko'lamli tomosha qiliш uchun ko'rish maydonchalar – belvederlar quriladi. Istirohat bog'larida suv havzalari, ko'prikhalar, hovuzlar va boshqa peyzaj parklariga surʼ landshaft elementlari loyihalanadi.

Istirohat bog'larida haykallar va kichik arxitekturaviy hukllar ham muhim ahamiyatga ega. Haykaltaroshlik asarlarida odadta lirik mavzular aks etadi: afsonalar, ertaklar qahramonlari yoshil fonga mutanosiblikda joylashtirilishi kerak. Istirohat bog'larida ko'proq favoralar, hovuzlar, gulzorlar kompozitsiya- i, daraxt va butalar guruhi qo'llanilgan chim bilan uyg'unlikda kusakdilar loyihalanadi. Parklarni kechki payt ham foydalanish imkoniyati bo'lishi uchun yaxshi yoritilishi kerak. Ba'zan parkning original kompozitsion yechimini yorug'lik va rang uyg'unligini namoyish etgan holda yoritish uchun dekorativ yoritqichlar qo'llaniladi.

**Tarixiy parklar.** O'tgan asrda paydo bo'lgan bunday parklar ozida tarixiy – landshaft va me'moriy majmualarning ajralmas qismi saroy-muzeylarni mujassam etgan (birinchi qismning 8,17 va 19, 26-rasmlar jadvallarida berilgan). Bu parklar tashrif buyuvchilarga me'moriy yodgorliklarni, muzeylarda joylashgan ekspozitsiyalar, san'at asarlarini tanishtiruvchi vazifasini bajaradi.

**Landshaft parklar.** Tabiiy muhitlar kamayib borayotgan zamonaviy shahar sharoitida park qurilishida landshaft parklari o'shalishi tobora keng tus olmoqda. Tabiiy parklardan farqli o'laroq, bunday parklar noqulay sharoitlarda joylashgan shahar yordari yetishmovchiligi mavjud bo'lgan shahar ichi va tashqi

hududlarda ham loyihalanishi mumkin. Landshaft parki qurishida yetakchi o'rinni Yevropa davlatlari va Amerika egallaydi. Keyingi yillarda landshaft parklari buzilgan sanoat hududlari o'rnida loyihalanishi mumkin (sanoat chiqindilari, kar'yerlar, foydali qazilmalar qazib olingan joylar).

Bu masalada yuqorida aytgandek Germaniyaning ko'nir qazib olish markazi Disburg shahri tajribasi qiziqarli. Bu yerda sobiq ko'mir qazib olish va qayta ishlash majmuasi hududida sobiq sanoat inshootlari (ulkan sanoat memorial-monumentlari sifatida qoldirilgan ekspressiv konstruksiyalar) atrofida bir qancha turli parklar (istirohat, panorama, attraksion, tematik va b.) joylashtirilgan (74-rasm va 25-rasmlar jadvalining 1-rasmi)<sup>17</sup>.




74-rasm. Germaniyaning Disburg shahridagi ko'mir qazib chiqarish sanoati o'rnida tashkil etilgan landshaft parki.

Shuningdek, bu sohada Amerikaning Florida shtatidagi 1898-yilda yaratilgan Burchatov oilasi bog'i ham juda qiziqarli (25-rasmlar jadvalidagi 2-rasmi).

**Memorial parklar** xalq uchun xotira bo'lib qolgan buyuk tarixiy hodisalar sharafiga quriladi va o'zining monumental, tantanali xarakteri bilan boshqa maxsus parklardan ajralib turadi. Bu yerda bog'-park kompozitsiyasining barcha vositalari yodgorlikning g'oyasi va mazmunini ochib berishga yo'naltirilishi lozim. Bunday parklar tashqi ko'rinishining yetakchi

<sup>17</sup> Bu yerda – zavodning asosiy korpusida butun dunyodan keladigan turistlari ko'mir qazib olish tarixini o'rganishlari, shaxtalar ishining og'irligini tushinishlari mumkin... Muzeysda shaxyorlarning asosiy ish qurollari, ko'mir qazib olish jarayonini aks etgan kichik haykaltaroshlik kompozitsiyalar, sxemalar, fotografiyalar, makettlar o'matilgan.

chiziq'i bo'lib monumental vositalardan keng foydalanish, aniq o'ylangan harakat grafigi, o'simliklarni asosan muntazam joy-bo'ltirish xizmat qiladi. Barcha xizmat ko'rsatish vositalarini markaziy hududdan tashqarida loyihalash lozim. Bu yerda memorialning tantanali tinchligini buzadigan kiosklar, ichimlik automatlari, transport aloqalari bo'lmasligi kerak (75-rasm).



75-rasm. Memorial parklar:  
1,2 – Berlindagi Treptov memorial parkining tarhi va markazi.

**Bolalar parklari.** Ularning asosiy vazifasi bolalarning faoliyat olishini tashkil etish, jismoniy rivojlanishiga yordam berishi, ularning sarguzashtlarga, ijodiy mashg'ulotlarga, tajribalariga bo'lgan intilishini qondirishdan iborat. Bolalar parki landschaftida tabiiy sharoit va hayvonot dunyosining xilma-xilligini, iloji boricha aks ettirmoq maqsadga muvofiqdir.

Bolalar parklari uchun shaharning eng qulay va yaxshi ko'kalimzorlashtirilgan hududi ajratilishi lozim. Ularga yashil maydonlar, bog'lar va o'yin maydonchalari beriladi. Katta shaharda bolalar parki mustaqil park deb hisoblanadi. Markaziy bolalar parkining kattaligi 50 ga dan 300 ga gacha bo'lishi mumkin. Bu sharoitda har xil yoshga kirgan bolalarga qiziqarli dam olish sharoitlarini yaratish mumkin. Masalan, Moskva shahrida «Strana chudes» nomli bolalar parki uchun juda qiziqarli zonalar yaratish uchun ko'p mutaxassislar takliflari kiritilgan (76-rasm).

Yangi shahar madaniyat va istirohat bog'larida bolalar dam olohdigan zonasasi mustaqil bolalar parki deb hisoblanishi mumkin. Bolalar parki turar joy hududlariga iloji boricha yaqin va piyoda su'llari yonida bo'lishi kerak. Odatda, bolalar parklari 3—5 ga maydonunda loyihalanadi. Park hududini har xil yoshdagagi bolalariga mo'ljallab bir qancha maydonchalarga ajratiladi. Me'moriy ta'hoottlar, maydonchalar va uskunalarining o'lchamlarini ham-

ma yosh guruhidagi bolalarga hisob qilmoq kerak: 2 yoshgacha, 2–5; 6–7; 8–10; 11–13 va katta yoshgacha. Inshootlar o'l-chamlari va ekspozitsiya mavzusi ushbu yoshga mos kelishi lozim. Eng kichik yoshdagi bolalar uchun qum qutilari uchun kichik maysazorlar, past skameykalar, soyabon qo'ziqorinlar, shu atrofda bolalarning ota-onalari uchun kattalar dam olish joyi loyihalanadi.



76-rasm. Moskva shahrining «Strana chudes» bolalar parki.  
Arx. A. A. Savin, V. I. Ivanov.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarga tirmashib chiqish uchun qurilmalar, kachelilar, uchish tog'chalari, hovuzlar va boshqalar qo'yilishi kerak. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun koptok o'yinlari maydonchasi, sport devorchalari, mashinalar, kemalar, raketalar maketlari, tirmashib chiqish uchun fazoviy konstruksiyalar, shuningdek, stol o'yinlari uchun skameyka va stollari bo'lgan tinch burchaklar joylashtiriladi. Barcha yoshdagagi bolalar guruhlari uchun parkda hojatxona va qo'l yuvish joylari bo'lishi lozim.

**Gidroparklar, akvaparklar** – sport sog'lomlashdirish va suv atrofida dam olish vazifasini bajaradi. Ularning tashqi ko'rinishi ochiq suv havzaligi va angarlar, parusli va motorli qayiqlar uchun gavanlar, yopiq va ochiq basseynlar, o'ziga xos suv attraksionlari, gidrokarusellar, suv tramplinlari (tabaganlar), suzib yuradigan sahna maydonchalari, restoranlar, ko'priklar va arqon yo'llari kabi inshootlar bilan belgilanadi (77-rasm va 35-rasmlar jadvali). O'zbekistonning issiq iqlimi sharoitida bu parklar eng maqsadga muvofiqdir.

**Attraksion parklari** – bu maktab va o'smir yoshidagilar foydalananadigan faol dam olish parklarining eng ommaviy turi hisoblanadi.




77-rasm. Yopiq va ochik akvaparklar:

1 – Toronto shahridagi yopiq akvaparkning 1 va 2-qavat rejası; 2 – Tokio shahri atrofida joylashgan Samerlent akvaparki, 16 ga.

Bu yerda faqat ko'ngilochar attraksionlar emas, insonning qu'reqmasligi, abjirrugi, o'zini boshqarish, reaksiyasining tezligini rivojlantiradi. Zamonaliv attraksionlarni organizmning tashqi ta'sirlarga moslashuvi va jismoniy chidamliligini oshirishga xizmat qiladigan trenajerga tenglashtirish mumkin. Ularning konstruksiyasida fan va texnikaning oxirgi natijalari qo'llanilishi lozim (36-rasmlar jadvali).

**Sport parklari.** Bu yashil o'simliklar orasida joylashgan sport, jismoniy, madaniy-oqartuv inshootlari komplekslaridir, ulur o'z tarkibiga qisqa dam olish joylarini ham oladi. Memoriy-makoniy kompozitsiya musobaqalar va mashq-mashg'u-lotlar o'tkazilishi sharoitlariga ko'ra aniqlanadi. Maydonchalar, inshootlar, o'tish joylari va xiyobonlar bu yerda boshqa park turilariغا nisbtan hududning ancha kattaroq qismini egallaydi (78-rasm).

## AKVAPARKLAR



35-rasmlar jadvali

Yopiq va ochiq havoda joylashgan akvaparklarning turlari.

## ATTRAKSION PARKLARI


36-rasmlar jadvali





78-rasm. Berlindagi «Olimpiya» stadionining parki.


**Ko'rgazma parklar.** Ko'rgazma parklari barcha turlarining umumiy kompozitsion asosi bo'lib keluvchilar harakatini ekspozitsiyalarini to'liq ochib berish uchun tashkil etishdan iboratdir. Ekspozitsiyalarni tomosha qilish tartibi, ularning ko'rgazma mavzusi xususiyatlarini hisobga olgan holda qabul qilish uchun eng qulay muhit yaratish har doim asosiy vazifa bo'lib kelgan, ammo ekspozitsiya obyektlarining xarakteri butunlay turli xil me'moriy makon yechimlariga olib keladi. Bunda har qanday ko'rgazma parkida asosiy ekspozitsiya qismidan tashqari yordamchi qismlar keluvchilar dam olishi, ma'muriy xo'jalik, ba'zi hollarda ilmiy qismlarni ajratish mumkin (79-rasm).



79-rasm. Nyu-Yorkdagi «Butun dunyo» ko'rgazmasining parki.

**Zoologik parklar.** O'zining funksional-tarxiy tuzilishi bo'yicha eng murakkabiga kiradi. Ularning hududida ekologiya qismi umumiy maydonning 45–70 %, park qismi – 15–35 %, xizmat qismi – 10% gacha, bolalar qismi – 10 % gacha, xo'jalik qismi 0,5–3 % gacha, ilmiy markaz – 3 % gacha, veterinariya qismi

5 % gacha tashkil etish tavsiya etiladi. Bunda hayvonlar ekspozitsiyasida ularning ritmi va biologik hayot kechirish sharoitlari buzilishiga yo'l qo'yilmasligi kerak, bu hayvonlarning antognistik turlarini bir-biridan ajratish orqali amalga oshiriladi. Keluvchilarining xavfsizligi, tomosha qulayligi hamda hayvonlar yushash joylari tabiiy landshaft fonini qayta tiklash to'liq ta'minlangan bo'lishi lozim. Bunday joylar volyer deb ataladi (37-rasmlar jadvali va 80-rasm).



80-rasm. Minsk shahridagi zooparkning hayvonotlar volyeri loyihasining maketi.

Bu yerda hamma narsa tanlangan hayvonlarni namoyish qilish tamoyiliga va ularni tomosha qilishning eng to'g'ri variyantiga bog'liq.

Hozirgi paytda qismlarni «zoogeografik» yoki «ekologik» tartibda joylashtirish eng ko'p qo'llanilyapti. Bunda «zoogeografik» tamoyilda hayvonlar dunyo qit'alariga (Yevropa, Afrika va h.k.) mos keladigan qismlarda namoyish etiladi. «Ekologik» tamoyil bo'yicha namoyish qilinadi, «tayga qismi», «cho'l qismi», «tug' qismi» va boshqa qismlar ajratiladi (81, 82-rasm).

**Botanika bog'lari** eng qadimiylar bo'lib hisoblanadi. O'rta asr davrlarida mashhur botanika olimi Karl Linney birinchi bo'lib o'simliklar sistemasini yaratgan. Uning sistemasi so'g'un davrlarda butun jahonga tarqalgan. Botanika bog'larning vazifasi nafaqat o'simliklarni o'stirish, balki ularni yangi tabiiy sharoitga mos keltirish vazifasi juda katta. Ular asosiy: ekologik, ilmiy, xizmat, xo'jalik qism bo'yicha ajratiladi. Ekologik va ilmiy qismlarda o'simliklar botanika va dekorativ tafaburlarga mos qilib joylashtiriladi. Ko'pincha botanika bog'lari o'z ilmiy vazifalarini bajarishda bir vaqtda peyzajli, sayr qilish va o'qitish vazifalarini ham bajaradilar (83-rasm).

## ZOOLOGIK PARKLAR

37-rasmlar jadvali




### Zooparklar:

1 — Berlin shahri zooparkining kirish darvozasi; 2 — Minsk shahri zooparkining bosh rejasi; 3 — Moskva shahri zooparkining kirish darvozasi; 4 — 8 hayvonot volyerlari.<sup>18</sup>

<sup>18</sup> Voyer — hayvonlarning tabiatiga yaqin sharoitdagι ochiq hududlar.



81-rasm. Drezden zoologik parki.



82-rasm. Toshkent zooparki. TashGIPROGOR,  
ark. U.X. Rahimov 1997-y.



83-rasm. Berlin botanika bog'i.

**Etnografik parklar.** Bu parklar ko'rgazma parklar turlaridan biri, lekin alohida parklardan biri bo'lib hisoblanadi. Bunday parklarni tashkil etishdan maqsad – bir joyda xalq me'morligi obyektlarini, maishiy xizmat jihozlarini saqlash, xalq hayotining tarixiy sahifalarini chuqurroq anglatish uchun oldingi asrlar shiozonatlarini asl holida qoldirish. Bu parklarga butun mam-

lakat chetlaridan yoki biror viloyatlardan eng mashhur xalq me'morchiligi, amaliy san'at asoslarini va an'anaviy maishiy hayat namunalarini olib kelib ochiq havoda namoyish etiladi. Etnografik parklar asosan landshaft (peyzaj) kompozitsiya qonunlari bilan tashkil etiladi. Mohiyati jihatidan bular ochiq muzeylardir, ularning eksponatlari landshaft fonida qabul qilinadi va u bilan uzviy aloqada bo'ladi (84-rasm).



84-rasm. Shvetsiyadagi ochiq havoda qurilgan etnografik park.

### 2.5.5. Tematik parklar

Tematik parklar yaratish maqsadi odamlarga qiziqarli, o'qimishli va bevosita qulay dam olish sharoitini tashkil qilish. Eng avval tematik parklarning yaratilishi Ispaniyaning mashhur arxitektori Antonio Gaudi va amerikalik Uolt Disney nomlari bilan bog'liq (37, 39-rasmlar jadvali).

Hozirgi tematik parklar – milliardlab dollar aylanib turadigan turistlik biznesining muhim segmenti hisoblanadi. Bu yerda attraksionlar va otel, restoran, magazin, turistik agentliklari kabi turistlarga xizmat ko'rsatish infrastrukturasiga ega bo'lgan yirik majmualar joylashgan bo'ladi.

Ko'ngilochar parklar sanoatida AQShda 50-yillarning ikkinchi yarmida yaratilgan parklar yetakchilik qilgan. Hozirgi kunda faqat Florida shtatining Orlando shahrining o'zida ularning soni 20 ta atrofida. Yevropada park qurilishi bo'yicha yetakchi o'rinda Avstriya, Germaniya, Fransiya turadi (85-rasm va 37, 39-rasmlar jadvali).

## «GUEL» PARKI

37-rasmlar jadvali



Ispaniyaning Barselona shahridagi arx. A. Gaudi yaratgan «Guel» parki.


PARIJDAGI «DISNEYLAND» PARKINING SXEMATIK  
REJASI VA ASOSIY QISMLARINING KO'RINISHI

38-illustratsiyalar jadvali



## KALIFORNIYADAGI ARXITEKTURAVIY VA KO'NGILOCHAR «LEGOLEND» PARKI

39-rasmlar jadvali





85-rasm. Avstriyadagi Vena shahrida joylashgan «Mini Yevropa» parki.

Bu yerda o'nlab ko'ngilochar markazlar tashkil etilgan (*Europa Park*, *Legoland Heide Park* va b.). Bir qancha shunday obyektlar Ispaniyada (*Universal Mediterranea*, *Terra Mitika*, *Warner Bros. Movie World Park*), Fransiyada (*Disneyland Resort Paris*), Buyuk Britaniyada (*Futuroscope*, *Asterix*) mavjud. Daniya, Gollandiya, Shveysariya, Shvetsiya, Finlyandiyada bir ikkita, yaqinda Rossiyada ham ko'ngilochar park qurildi — bu Gelenjikdagi «Kapitan Vrungel» tematik bog'idir.

Katta attraksion parklar qurilishi Osiyo davlatlari va Avstraliyada ham amalga oshirildi. Bu yerda tematik park qurilishida birinchi o'rinda qit'aning eng texnologik davlati Yaponiya turadi. U yerda o'nlab ko'ngilochar majmualar mavjud. Bu boroda Xitoy, Singapur, Koreya va Malayziya ham katta yutuqlarga erishdi.

## **2.6. Landshaft san'atining asosiy nazariyasi va loyihalashda uning uslublarini qo'llash**

### **2.6.1. Bog'-park kompozitsiyasini tashkil etishdagi asosiy uslublar**

**Stil** — bu nafaqat bog'-park san'atini ishlab chiqishda estetik kategoriya, balki u hayot faoliyatidagi ko'rsatkichdir. Zamonaviy bog'-park san'atida turli tendensiyalarning barcha yuksakligining ochilishi o'tgan vaqtidan bizgacha yetib kelgan oqim va ta'mdir.


Tarixda asosiy ikki stil ajraladi: arxitektura-ochiqlik va bog'-lar va parklarning tashkil etish tarhiga — doimiy yoki geometrik

arditektura (Fransuzcha) va landshaft yoki tabiiy (inglizcha), keyinchalik, park va bog'lar landshaft-arxitektura tashkili, bu stillar, tendensiyalar bilan birga keng tarqaladi.

**Doimiy stil** – o'zining to'g'ri chiziqli xiyobonlari, yashil qurilmalarning simmetrik joylashuvi, geometrik shakllarining to'g'riliqi bilan tavsiflanadi. Daraxtlar va butalarni qirqish kengroq ishlataladi (topiar san'ati). Oddiy qilib aytganda, bunday obyektda kengroq parterlar kutiladi, keng yo'llarning davomchisi (xiyobon), ularga nisbatan skver va bog'ning hamma qismlarida simmetrik va asimetrik joylashish mumkin (86, 87-rasmlar).



86-rasm. Doimiy stilda yaratilgan Moskvadagi Izmaylovo parki,  
ark. M.P. Korjev, 1931—1945-yillari.



87-rasm. Doimiy stilda yaratilgan Chelsi ko'rgazmasining kompozitsiyalari.  
Angliya, 2004-y.

**Landshaft stili** – tabiiy kartinalar yaxshilanishining qaytarilishi bilan xarakterlanadi. O'simliklar tabiiy guruh holatida erkin joylanadi. Quyuq kartinalar (guruqlar), daraxtlar va butalar, o'tloqlar, ochiq suv usti bilan almashinadi. Yo'laklar va xiyobonlar o'rmon yo'llaridan erkin qo'yiladi. Bu arxitektorga tabiiy kartinalarni katta bo'lмаган hududlarda qurishga imkon beradi (88, 89-rasm).

**Arnash stil** – yashil ko'chatlarning tarzi ikki stil tamoyili-ni uyg'unligida vujudga keladi: doimiy-ommaviy keluvchilar

zonasida, landshaft – tinch dam olish zonasida. Aralash stilning kompozitsiya birligidagi boshqa usuli daraxtlarning asimmetrik eklishi, qo‘yilishining aralashuvida mumkin va h.k. (90-rasm).



88-rasm. Landshaft stilida yaratilgan parklar: 1, 3 – Muskau parkining peyzaj landshaftlari; 2 – Yaponiyadagi Kioto shahrining landshaft parki.



89-rasm. Bog’lar qismalarini landshaft stilida yaratgan kompozitsiyalar: 1,3 – hovli bog’ining kichik landshaft dizayni; 2 – Angliya shahar bog’ining landshaft dizayni.



90-rasm. Aralash stillarda yaratilgan landshaft dizayn kompozitsiyalar: 1, 3 – park va uy oldida yaratilgan abstrakt landshaft kompozitsiyalar; 2 – modern va regular stilida yaratilgan hovlining kichik bog’idagi basseyning landshaft dizayni.

**Stil tanlash** – doimiy-rasmiy yoki norasmiy manzarada erkin bo‘lishi kerak emas. Bog’-park kompozitsiyasi, landshaftda stilni aqlan ishlatish shart-sharoitni funksional maqsadga bo‘ladi va tabiiy sharoitlar yoqimlidir. Joyni unday yoki bunday stil deb atab bo‘lmaydi: uning rivojlanishi tabiiy mavjud sharoitlardan, iqtisodiyot, dam olish ko‘rinishidagi ehtiyojlardan kelib chiqishi kerak.

O‘zbekistonning tabiiy-iqlimi sharoitining xilma-xilligini e’tiborga olib, madaniy va milliy urf-odatlar, stil deb nomlangan

omaliyot, boshqa tumanlarda noto'g'ri qabul qilingan. Mamlatning har bir zonalarida alohida tabiiy-iqlimiyl bog'-park landshaftini yaratishda, turli ko'rinishni — kaysiyat, yorqinroq ko'rsatishga, erishish kerak, mahalliy tabiiy landshaft mazmuni. Park yuqori darajadagi ko'rinishi — ochiqlik san'atida, asortarni faqat vaqt kelishi bilan qabul qilish.

## 2.6.2 Bog'-park kompozitsiyasida estetik shartlarni hisobga olish talablari

Peyzajni estetik qabul qilish ta'sirchan uyg'otish — parklarni tashkil etishdagi eng muhim va qiyin vazifadir.

Peyzaj kompozitsiyasi badiyligi bilan insonga emotsiyalni ta'sir etuvchi katta kuch, badiiy «til» va bezash.

Estetik misollarni yechishda bog'-park landshaft bilimlarini bilish va ko'p qirrali shartlarni hisobga olishni, park muhitini shakllantirishni taqdim etish uchun kiritadi. Bu hududlarni funksional cheklash: funksiyalarni va ochiqlik shakli to'g'ri keliishi; ochiqlik modulatsiyasi; peyzaj xarakterini o'zgartirishda va ochiqlikning ketma-ketlik bilan boshqa ochiqlikka o'tishini ta'minlaydi; ta'sirlanishning turli ko'rinishlari (fakturaning almashuvi, yorug'lik, sifat, tomoshabin taassuroti); ochiqlik orasidagi harakatning bo'lishi va hajm atrosida yoki o'tib ketish; kompozitsion va emotsiyal dominantning shakllanishi.

Estetik kompozitsiya tamoyillari yo'nalishida bog'-park peyzaji quyidagilarni zarur deb biladi:


1. Arxitekturaviy shakllar uch kategoriyaga tayanadi: ochiqliq (hudud), tekislik (tuproq ustki qismi va suvlar) va hajmlar (yoshil ko'chatlar, relyef, qurilmalar). Ular o'zaro quyidagi tushunchalarga bog'lanadi — hajmiy-fazoviy kompozitsiya va ochiqlikni tashkil etishni shakllantirishda umumiyl qonunchilikni aytib o'tadi;

2. Ochiq-peyzaj-rasmlarni qurish, tasviriy san'atning ishtirokiga asoslanib, aniqroq rangtasvir, tushuntirish ashyolari: kolorit, yorug'lik va soya, chiziqli va havoli perspektiva (89-rasm);

3. Yil fasllariga qarab landshaft ko'rinishini o'zgartirgan holda vaqt omilini hisobga olish, fasllarga o'zgarish ta'sir etadi: fazoviy, egiluvch'an, yorug'lik va park peyzajlaridagi ranglar tavsiyi, plastik bog'liqlik, yorug'-rang tizimi, bog' va parklarning fazoviy uch o'lchamli shakllanishi, uni qabul qilish uchun bilish impulsini beradi;

4. Ketma-ketlik, tomoshabin «rasmlarni» tashkil etish ko'ri-nishini bilish — ochiqlik tug'ilishi vaqt tizimining asosiy shartlaridan biridir (91-rasm).

Shunday qilib, landshaft kompozitsiyasi barkamolligini qurishda bog'-park landshafti uchun kompleks ashyolardan, qonunchilik va tamoyillardan, kelishilgan yo'ldan foydalanish zarur va barcha elementlar landshaftlari o'zaro kompozitsiyasining bir-biriga mosligi va ochiqda o'zaro bog'liqlik butun asarni qurishda shakllantirish lozim.



91-rasm. Chiziqli va havoli perspektivani bajarish misollari.

Landshaft-tarx kompozitsiyasini loyihalashda quyidagi ijodiy jarayon shaklini o'zida mujassam etishi kerak:

- hajmiy-fazoviy tizimni tashkil etish — tektonika yoki peyzajning alohida elementlarini qurish;
- go'zallik kategoriyasining obyektiv asoslari — ta'minlanishning birligi va ochiqlikni tashkil etish shakli;
- kuchlar tengligi, ritm, qaytarishlar va ketma-ketlik, birlik bilan zich bog'lanish, kuchlar tengligi;
- proporsiya va tarz, kompozitsyaning barcha tuzilmasini bog'lovchi, alohida, uning elementlari;
- aksent (urg'u berish), ayrim elementlarni alohida ko'rsatish uchun bir xil ko'rinish va monotopiyadan qochish uchun xizmat qiladi.

Bog'-park landshaft kompozitsiyasida ranglar quyoshli va sun'iy yoritish, kichik shakllar, haykaltaroshlik va landshaft arxitekturasi detallaridan foydalanish kerak. Sanab o'tilgan shakl va kompozitsiya ashyolarini shartli ravishda bir-biridan yopiq holda ko'rish mumkin, ya'ni umumiy o'zaro bog'liq bo'lgan butun park ansambl qismining bor-yo'g'i bir bo'lagini aks ettiradi. Ulardan foydalanishda ko'ruv ta'sirini qabul etishdag'i qonuniyat bilan bog'liqligi landshaft arxitektura tarhining yechimida ochiqlikn tashkil etish maqsadiga erishishga qaratish va bog'-park san'atida o'simliklardan, relyesdan, sun'iy elementlordan foydalanib, badiiy-ko'rsatish asarlarini yaratish.

### 2.5.3. Peyzaj qurishning asosiy qoidalari

**Baravarlik kompozitsiya kategoriyasi** estetika sifatida — garnoniyaning ikki tipi — simmetriya va asimmetriya (50-rasm). Simmetriya tarh tizimidagi boshqarishda yorqin ochiladi, asimetriya esa — peyzajda.

Tarh tizimining simmetriyası ochiqlikdagi aniq tartibning tashkil etilishi, birlik va o'z-o'zini tugatish, shunday maqsad kompozitsiyasining bir xil elementlari tekislik ochiqlik nisbatiga asosiy perspektiv chiziqa joylashish va bu qonuniyatga uning barcha qismlari va detallari bo'ysundiriladi. Unga yondash simmetriya gorizontal spirali quriladi.

**Asimetrik** tizim turli qismlardagi tenglik dinamikasi qonuniga qarab quriladi, shaklga kontrast mosligi, balandlik, kolorit, yoritish va boshqaclar. Perspektiv chiziq ochiqliknning rivojida o'lchamga bo'ysunadi va rangtasviri kompozitsiyadagi asimmetrik hajmdagi asosiy o'lchamdir (50-rasm,b).


**Tenglik** — shartlarni qoniqtirishi kerak, chunki yorug'lik, rang, guruh, massalar umumiy summasi va kompozitsiya elementlar soyasi bir chiziqda bir tomoniga adekvat summalarining boshqa tomoniga tekislanadi (92-b,d; 93-rasmilar).

**Ritm kompozitsiyasining estetik kategoriyasi** sifatida bir siflik shakl, ketma-ketlik qonunchiligi bilan almashinib, ochiqlikdagi elementlar va detallarga erishiladi. Ritm-badiiy asarning mazburiy asosi, ya'ni landshaft arxitekturasida o'zini yaqqol namoyon etadi. Shuni hisobga olgan holda, takrorlanuvchi sikllarning ketma-ketligi chegaralangan bo'lishi kerak. Katta qator yonida ritmik takrorlanuvchi sikllar ta'siriga, insonning o'tkir

qabul qilishi, kelayotgan ma'lumotlarni nolga tenglashtiriladi. Bog'-park landshaft kompozitsiyasida uchinchi va to'rtinchi takrorlashda ritmni qo'llash tavsija etiladi, yig'ilayotgan ma'lumotning har birida takrorlanish chegarasi tushib ketmaydi, lekin juda tez pasayadi (93-rasmlar, D,E).



92-rasm. Tenglik (baravarlik) — kompozitsiyasi:  
A — simmetrik; B — asimmetrik; D — simmetrik rejada o'simliklarni  
asimmetrik joylashtirish.



93-rasm. Ritm-badii asosining majburiy asosi:  
A, B — metr tartibi; D, E — ritm tartibi; F — metr tartibining har xil elementlar  
bilan bog'lanib turishi va ritm tartibining geometrik progressiyasi.

**Tartib metri** ritmnning oddiy ko'rinishi, bir xil elementlarning takrorlanishi yuzaga keladi va teng intervallar orqali joyleshgan daraxtlar bilan yonma-yon xiyobonlar uchun xarakterlanadi (93-rasmlar, a,b).

**Hajmi-fazoviy yechimning proporsiyasi** — bog'-park san'atining shakllanishida estetik qonuniyat kerak, uyg'unlik o'rtasidagi obididi kompozitsiya elementlari bilan bir butunlikka kelishadi. Proporsiya garmonik kategoriya sifatida tartib-fazoviy tomonidan ayttilishi kerak va peyzaj elementlari bilan parkning umumiy kompozitsion tizimi mutanosibligi hisobga olinadi.

Shuni inobatga olgan holda, munosabatlar o'zini uch o'lchovda ko'rsatadi, qatnashgan elementlar bilan birga hajm va shakl, ko'p qismli, xilma-xil. Shuning uchun badiiy eng qulay munosabatni landshaftlar qurishda, hamma uch o'lchovda oлдиндан ko'ra bilish kerak. Yaxshi proporsiyani park landshaft kompozitsiyasida qurish yo'li bilan barpo etiladi va atrof-muhitni o'rab turgan, har bir element bilan kelishib, o'lchovi, hajmi joylunishi bilan park kompozitsiyasida umumiy bir yaxlitlik hosil bo'ladi.


**Tarz** — park elementlari garmoniyasining manbayi va ochiqlik o'lchovi bilan insonga munosabati belgilandi. Peyzajda obyekt o'lchovi oshirib yuborilmaydi, haqiqiy proporsiya, ya'ni un'iy kamaytirish ma'lum.

Park kompozitsiyasida normal qabuldan tashqari tarzdan foydalaniлади: mahobatli (qahramonona) va kamer (intim). Hajm uzmida natura park komponentlari — o'simliklarning guruhlanishi, arxitektura qurilmalari, arxitekturaning kichik shakli yaxshi o'qilishi lozim.

**Aynanlik, nyuans, kontrast** — kompozitsianing estetik kategoriyalari — bog'-park landshafti, hajmiy-fazoviy kompozitsiyasining barcha ko'p xilligida qabul qilinishi munosabatiga ruxsat etiladi. Kontrast va nyuans — shakl ochiqlik arxitektura-landshaft qonuniyati va o'zida dialektik birlikning ajralishida qanuna qarshi tomonga rivojlanadi (94-rasm).

Ranglar nazariyasi va uning peyzaj qurishdagi ta'siri. Tabiiy va un'iy yoritishlar, park peyzajlarida undan foydalanish.

Quyosh nurlari bilan **yoritish** — park ochiqlikdagi hajmiy-fazoviy sifatini qurish haqiqiy bahosi bilan— uning o'lchovi, shakli, tengligi (proporsiyasi), predmetlar rangi va plastik qabul qilishini ham ajratib beradi.



94-rasm. Kontrast va nyuans kompozitsiyalari.

Yoritishda ko'rish effektidan foydalanish — yorug'lik va soya — bog'-park kompozitsiyasida asosiy ashyodir va bu ilmga ham bog'liqdir.

Soyali bog'larni issiq iqlimli tumanlarda qurish maqsadiga muvofiq va zarurdir, yorug'likni ko'ruv effektiga «dog'li», quyoshli yorug'lik o'rtasidagi ko'chatlar massivi orqali erishish mumkin va xiyobonlarda zikh ekilgan daraxtlar yuqorisidagi osmon yorug'ligida. Lekin yorug'lik va soyalarda bir nechta effektlar bor, ya'ni bu effekt barcha iqlim sharoitlariga to'g'ri keladi. Masalan, har doim zimistonda quyosh nurlari chiqayotganda zavqlanish paydo bo'ladi va kolonnalar o'rtasidagi ochiqlik.

**Rang** tabiat muhiti atrofidagi bog'-park landshafti kompozitsiyasidan ajratuvchi organik qatnashuvchilar — daraxtlarga, o'tloqlarga, osmonga, suv va h.k. asosiy estetik omillar qatoriga kiradi.

Rang — bu kuchdir, ya'ni uning ishtiroki insonga fiziologik va psixologik ravishda shartli ko'rindi. Rang uchta ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi: rang, tusi, ochiqlik. Tabiatda ranglar uyg'unligi qoidasi Nyutonning spektr aylanasida kuzatiladi, bu

yoki oraliq tuslar chiqarib tashlangan va uchta asosiy ranglar qoldurilgan — qizil, ko'k, sariq va ulardan uchta ishlangan — qizil, ko'k, sariq, qora, qizil, sabzirang, yashil.

Uyin to'lqinsimon nurli ranglar — qizil, sabzirang (aktiv ranglar yoki iliq) shunday qo'yiladiki, ular sariq, pushtiranglar bo'shi torilik, xursandchilik kayfiyatini chaqiradi: to'q qizil rang bo'shi kuchiga egadir, bayramlar, marosimlar taassurotini beradi, qop to'lqinli ranglar — ko'k, binafsha va o'rta to'lqinli ranglar — qizil, och havorang (souv va passiv) — kapillarlar kengayishiga bo'lgan bosimining pasayishiga, pulsning sekinlashishi, nafas uchligiga, qabul qilish tezligiga, dam olishni bilish ta'siriga yorug'mon beradi. Qora va kulrang insonda ishonchsizlik, tushkunlik bayfiyatini chaqiradi. Ranglarning psixologik ta'siri, ko'pincha qizil ranglar almashinuvi qonunchiligi bilan tushuntiriladi.

Uyimliklarni ekishda ranglar tusini tanlashni esdan chiqarish kerak emas, ya'n'i ranglar tushkunligi yorug'roq bo'ladi, agar ranglar tuslar moslashuvida bir-biriga qarama-qarshi bo'lsa — qizil yo'q qora kontrastlar va ranglar harakatining kuchiga qaroq — aktiv kontrastlar «dinamik», iliq ranglar va passiv «statislik», sovuq ranglar bo'ladi.

Poyzajdag'i ranglar va quyosh bilan yoritish ajralmagan holda kuchiga bog'liq. Kun bo'yi yorug'likning o'zgarib turishi shaklidan o'zgarishga ta'sir etadi va effektlarning alohida qurilming mosligi ham ta'sir etadi: talabchanlik va ranglarning kuchi bilan tuslari, yorug'-soya kuchayishi mumkin yoki kompozitsiya shaklini yo'q qilishga olib keladi.

## 2.7. Landshaft arxitekturasining asosiy elementlari

### 2.7.1. Landshaft arxitekturasini tabiiy elementlari

**Tijtim va mikroiqlim.** Daraxtzorlar shahar muhitidagi me'yorida boshqaruvchi samarali vositadir. Daraxtning mikroiqlimi samaradorligi joyning maydoniga, daraxtning nasliy tarkibga, qiyalikning zichligiga bog'liqdir.

Ug' yuqori mikroiqlimi samara va havo haroratining o'zgarishi o'monzor parklarda kuzatiladi. Mikroiqlimi samarani kuchayish tezligi joylarning maydoniga bog'liq, shunday eng eng qisqa o'lechamlar mavjudki, ularning kamaytirilishi havo haqidagi kamaytirish nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq emas.

Bu xulosalar o'rmonzor parklar o'lchamlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Katta bo'Imagan daraxtzorlar yer maydonlarida qulay muhitga ega bo'lgan zonalar maydonning sezilarsiz qismini egal laydi, maydonning kattalashtirilishi bilan esa bu zona ham o'sadi. Sharoitlarning qulayligi havoning harakatchanligiga bog'liq. Yozgi yuqori haroratlarda havo harakatining hatto sezilarsiz harakati ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi, lekin kuchli shamol noqulaylikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun turli xildagi daraxtzorlarni shamol tezligiga ta'sirini hisobga olish kerak.

Shamol yo'nalishini tartibga solish daraxtzorlarning tuzilishi va nasliy tarkibiga bog'liq. Katta gorizontal qiyalik, qiyalikning ikkinchi pog'onasi va butazorlar keskin ravishda shamol tezligini tinch holatgacha pasaytiradi.

**Tuproq** o'simliklarni o'sishiga sabab bo'ladigan tiriklik omilidir. Uning unumdoorligi daraxtlar va butazorlarning, gazon (maysazor) va o'tsimon gul o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga bog'liq.

Mazkur ob-havo sharoitlarida tuproqning kimyoviy tarkibi va fizik xossalari o'simlik qoplamasini va uning rivojlanishining ko'rinma tarkibini aniqlaydi.

Turli xil o'simliklarning tuproqqa bo'lган talabi bir xil emas. Bu belgisiga ko'ra, ularni uch guruhga ajratish mumkin:

- tuproqqa talabchan: eman, qayrag'ochga o'xshagan daraxt, zarang, archalar, shumtol, qandog'och;
- o'rtacha talabchan: oddiy archa, shumtol, yaproq bargli zarang, qrim qayrag'ochi;
- talabchan bo'Imagan; aylant, sariq akatsiya, osilgan qayin, grebenshik, tollar, lox, maklura, virjiniya qora archasi, oddiy qora archa, tog' qarag'ayi, teraklarning ba'zi turlari (oq, qora), tut.

Kimyoviy xususiyatlariga ko'ra tuproq – ishqorli, nordon va neytral holatlarga bo'linadi, ularning bu holati tabiiy bo'ladi yoxud o'simliklarni sun'iy shakllantirish maqsadida kimyoviy o'g'itlar qo'llanilishi yordamida yaratiladi. O'simliklarning o'sishiga yaroqli tabiiy tuproqlar shahar hududining yirik yashil maydonlarida, bog'larda va o'rmonsimon bog'larda uchraydi. Skverlar, bog'lar, xiyobonlar va yo'lkalarni obodonlashtirish uchun ajratilgan maydonlar, odatda, tabiiy tuproqqa ega emaslar. Bu yerda tuproqlarni o'simliklarning biologik xususiyat-

harida javob beradigan sharoitlarini yaratib berish kerak. Tabiiy tuproq maydonlarda ularning sifatini, bir qator agrotexnik mazmumlar o'tkazib, ahamiyatli darajada yaxshilash mumkin.

Ko'echatlarni sun'iy ravishda shakllantiradigan joylardagi tuproq quyidagi agrotexnik talablarga javob berishi kerak:

- anumlik va havoning singishi uchun yetarli darajada ovaklarga ega bo'lishi kerak;
- yumshoq va mayda kesaklik;
- turkibida o'simliklarning oziqlanishi uchun zatur moddalarining bo'lishi;
- turkibi begona o'tdan xoli bo'lishi kerak.

O'simliklarning aniq tuproqlarga ajratilishida va yana tuproq turkibini yaxshilashda o'simliklar guruhlarini ushbu tuproq shart sharoitlariga munosabatlarini hisobga olish kerak:

- umumidor tuproqni talab etmaydigan daraxt va butalarga — qayin, akatsiya (akas), eman, mayda bargli qayrag'och, tol, dala zarangi, xushbo'y terak, irga, sariq akatsiya (dukkakli daraxt akas), do'lana, jiyda, shilvi (o'chkat) va boshq. kiradi;

- umumidor tuproqni talab etadigan daraxt va butalarga — dasta eman, qizil eman, juka, qandog'och, qo'ng'ir yong'oq, chitor, oqqarag'ay, oqterak, turkiston va kanada oqteragi, o'rmon yong'og'i, gortenziya (yirik gulli dekorativ o'simlik), siren, quribiy tuyadaraxt (sarvguldoshlar oilasiga mansub archasimon o'simliklar turkumi), marjon (qizil mevali daraxt yoki daraxt) va boshq. kiradi;

- qumli tuproqlarda unib o'sadigan daraxt va butalarga — qolont, xoldor qayin, qirmizi tol va kaspiy toli, zarang shum-torbargli, kumushsimon va tatar zaranglari, qarag'ay, torbargli va kumushsimon jylda, okterak va kanada okteragi, zarrin qoragat, suriq akas kiradi;

- sho'rlangan tuproqlarda unib o'sadigan daraxt va butalar — nylant, kaspiy gledichiyasi, amorfa, momiq sumax, grebenchik, anor kiradi;

- nam tuproqlarda unib o'sadigan daraxt va butalarga — momiq qayin, terak, tol, tilog'och (ignabarglilarga mansub), unib, evknlipt, shamurt, qora va qizil qorag'at kiradi;

Mammofitlar deb ataluvchi o'simliklar guruhi mavjudki, ular qopinda yashashga moslashgandir. Qum bosganda ular qo'shimcha ildiz hosil qiladi, bu ildizlar uzunligi bir necha o'nlab metrni yetadi (ayrim turlariniki, masalan, juzg'unnniki 30 m ga

yetadi). Bunday o'simliklarga juzg'undan tashqari qum akatsiyasi, saksovul kiradi.

Ildizida tugunakli bakteriyalar bo'lgan navlar havodagi azotni tutib oladi. Shunday navlar ham borki, ular to'plangan yerlarda ham o'sadi. Ular tuproqda 2–3 %gacha xlorli natriy bo'lganda ham o'sish qobiliyatiga ega (solyanka, grebenshik, saksovul, sovun daraxti). Bunday sho'rlanganlik bosh o'simliklar uchun xosdir. Botqoq sarvi, rododendronlar, gingko tuproqda ohak bo'lishini ko'tara olmaydi. Boshqa navlar (shumtol, jo'ka, lavr, yevropa zaytuni) ohakli tuproq bo'lishini talab etadi. Aylant (Xitoy shumtoli) nest bilan ifloslangan tuproqda o'sishi mumkin. Shuning uchun o'simliklarni ekishni loyihalashdan oldin tuproq sharoitlari tekshirilishi kerak. Agar ko'kalamzorlashtirish obyektiqa asos solishda tuproqni jiddiy yaxshilashning imkonni bo'lmasa, har bir aniq maydon uchun tegishli navni tanlab ekish kerak.

**Relyef.** Joyning relyefi (tekislik yoki past-baland, tog'li, dengiz sathidan balandligi, yon bag'irlarining qiyaligi, ularning ekspozitsiyasi) o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatib, mikroiqlim sharoitlarini (yoritishdan, isitishdan, havo va tuproq namligi, shamol rejimi va b.), shuningdek, tuproq qoplamasining xarakterini o'zgartiradi, bularning barchasi pirovardida o'simliklarning ko'rinishi tarkibiga ta'sir ko'rsatadi.

Tog'li tumanlarda relyefning ahamiyati, ayniqsa, keskin namoyon bo'ladi, ammo past-baland relyefli joylarda ham (tepaliklar, adirlar) daraxtlarning o'sish ko'rsatkichlari ancha katta miqdorda o'zgarib turadi. Shuning uchun ochiq hududlarni barpo etish masalalarini hal etishda navlarini to'g'ri tanlash va ularni joylashtirish uchun tabiiy o'simliklar qoplamasining rivojlanishini sinchiklab o'rganish mikroiqlimi va tuproq sharoiting butun majmuiyni hisobga olish zarur.

**Tabiiy relyefning** ekologik va mezo ahamiyati juda katta. Tarh tizimi yechimi kompozitsiyasida relyef shaklinnig asosiy klassifikatsiyasi kurladi: qiyalik, tekislik, jarliklardan iboratdir. Turli masshabdagi tog' peyzajlarini modellash va shakllanishi oson emas. Ko'chatlarning plastik tomonlama joylashtirishdagi asosiy tartiblari va tanlashdagi xilma-xilligi profillarini yechimga qo'yish lozim (balandlik, pastlik va boshq.). Relyef balandliklarining turli belgilari maydonlarni turli xil nishabliklar bilan loyihalash imkonini beradi. Pandus yo'lakchalarini joylashtirish-

ni, zinalarni, tomosha maydonchalarini, amfiteatrlarni, tanlan-  
gan kompozitsion yo'nalishlarga qarab sharshara va pog'onali  
ishlaradalar yaratish imkonini beradi.

Sun'iy relyef, tepalik, pog'ona-pog'ona bo'lib turadigan  
tepaliklar, tuproq devor (tuproq uyumi) amfiteatrlarni h.k. yara-  
tish misollari qadim zamonlardan ma'lumdir, lekin aynan biz-  
ning davrimizdagi texnika imkoniyatlari shunchalik o'sdiki,  
relyefning shakllantirilishi ommaviy bog' qurilishida va shahar  
muhitidagi landshaft dizaynida qo'llanildi.

Zamonaviy texnika amaliyotida har qanday relyefni yarata  
olish imkoniyatini beradi. Bu esa arxitektorga o'ziga xos javob-  
garlikni yuklatadi va u yoki bu qarorni qabul qilish uning bilimi,  
didi va aniq ijodiy pozitsiyasiga bog'liq. Kompozitsion savollar  
bu yerda ekologiya, iqtisod, agrotexnika, bilan uzviy bog'liq  
bo'lib, jiddiy ilmiy analiz va eksperimental ishlarni olib borishni  
talab qiladi.

Relyesga plastik ishlov berilishining barcha uslublarini shartli  
tavishda uch kategoriya ajratish mumkin:

- birinchisi — asliday qilib tiklamoq, tabiatda uchraydigan  
formalarga taqlid qilish;
- ikkinchisi — o'zgacha geometrik, regular va abstrakt for-  
malarni yaratish;
- uchinchidan — tabiiy landshaftga taqlid qilmaslik, balki  
obyektni bajaradigan funksiyasidan qochirish, kompozitsion ifo-  
dalish imkoniyatlarini izlash.

Tabiiy formalarni xuddi o'ziday sun'iy yo'l bilan ishlab  
chiqishning ilk qadamlari bog'dorchilik amaliyotida XIX  
asrlarda tabiiy relyefni yaxshilash maqsadida keng qo'llanilgan.  
Sun'iy tepaliklarni va uyumlarni, tik qoyalar va pog'ona-pog'o-  
na tepaliklarni yaratish landshaftning qiyofasini o'zgartiradigan  
monoton va bir xil tekis hududlarning landshaftlari chiroyini  
bo'lsatadigan hamda urg'u beradigan qudratli vosita.

Bog' va parklardagi relyefni sun'iy ravishda shakllantirish  
ishlaridan maqsad funksional va estetik bo'lishi mumkin.  
Relyefni modellashtirish toza badiiy maqsadlarga ega bo'lishi  
mumkin. Misol uchun: tekis relyefda landshaftining jonli ifo-  
dalinishini kuchaytirish, yer uyumini pyedestalini yaratishda,  
izalmagan perspektiv ko'rinishni berkitish, vizual ramkalarni  
to'kkil etish, parterni chuqurlashtirish, nihoyat, relyefni tarrosh-  
ti bolatida shakllantirish.

Afinadagi Likkebegos tog'idagi toshli karyerdagi park tuzilishi va ochiq teatr joylashtirilishi misol tariqasida juda qiziqarli (95-rasm). Tog' imoratlar qurshovida qad rostlagan. Tog'ning tepasida joylashgan bu maydonchaning noyobligini, hajmdor toshlarning kesik sharpasini baholagan arxitektorlar, karyerning konturiga mos tushadigan teatral zal loyihasini taklif etishdi. Karyerning yon devorlari butun shahar manzarasi ko'rindigan amfiteatrga aylandi. Shaharning tarixida katta rol o'ynagan antik madaniyat tarixi va mashhur yunon teatri fonida bu sahna harakati rivojlanadi.



95-rasm. Afina shahri atrofida tosh karyer joyida yaratgan Likkebetos tog'idagi park:  
1 — parkning perspektivasi; 2 — amfiteatr o'qi va bosh darvozadan kirish.

Bu misol parkni tashkil etish uchun joyning to'g'ri tamlanishi muhim ekanligini ko'rsatadi. Bunday ifodalangan relyefli maydonlarda suv havzalarini tashkil etish mumkin, tuproqning meliorativ ishlarini va keyingi ko'kalamzorlashtirish ishlarini olib borish bu yerda qulayroq.

Shaharning tarhida maydonning joylashishi o'ziga xos rolni o'ynaydigan — birinchi o'rinda shahar hududiga, jamoat markazlariga va muhim transport kommunikatsiyalariga ega bo'lgan joylar o'zlashtirilishi kerak. Rekultivatsiya qilinadigan yerlar shaharni ko'kalamzorlashtirish sistemasiga kiritilishi kerak.

Bundan tashqari har safar ham mineral xomashyolar qazib oladigan sobiq sanoat komplekslari hududlariga barham berishga

talpinish kerak emas. Ba'zan bunday hududlar shaharning arxitekturaviy landshaft kompozitsiyasiga uzviy ravishda bog'lanish bo'ladi.

**Geoplastika** — zamonaviy landshaft arxitekturasidagi istiqboli porloq yo'naliishlardan biri. Mohiyati bo'yicha geoplastika vertikal loyihalashtirishning xilma-xilligini o'zida aks ettiradi, bu esa o'z o'rniда arxitekturaviy-badiiy maqsadlarni ko'zlaydi.

Geoplastikaga keng miqyosdagi qiziqish sabablaridan yana — iqlitish va qishloq xo'jaligidan xoli bo'lgan yerlarning tanqisligi, yuqin orada tabiiy landshaftga ega bo'lgan yirik shaharlarning yo'qligi va yana hozirgi zamonaviy texnika imkoniyatlarni ocha chadigan yangi imkoniyatlarning yo'qligi bilan bog'lash mumkin.


Geoplastikani qo'llab, har qanday hududdagi, bolalar o'yin maydonchasidan tortib to bog' va park maydonlarini qiziqarli va o'ziga xos didli bezatilish uslublarini oson topish mumkin. Misol uchun: bolalar maydonchasida sevimli sarguzasht kitobchalaridan keltirib chiqarish mumkin. Kattalar uchun dam olish va hordiq chiqarish burchagi geoplastik mashg'ulotlar uchun to'g'ri keladigan poligon bo'lishi ham mumkin. Misol uchun: florali istirohat bog'idagi yerga joylashtiriladigan maysalar va kichik formalar bilan bezatiladigan doira shaklidagi haykaltaroshlik asarları bog'ning ba'zi bir zonalariga o'ziga xos xarakter baxshida etadi (96-rasm).

Geoplastikaning boshqa bir ko'rinishi Parijdagi Defans turar joy kompleksi bog'ida ajdar shaklida yotqizilgan bo'lib, yo'l tarmoqlaridan keltirib chiqarilgan bu ajdarning «bosh qismini», «gavda qismini» va «oyoq»larini ajratib olish mumkin 96-rasm.


Relyefning eng xilma-xil va kutilmagan formalarini bolalar bog'larida ko'rish mumkin. Misol uchun: Germaniyadagi Erkrat shahrida qiyaliklari balandligi 15 metr keladigan tog'dan amfiteatrni shakllantiradigan va tushish uchun tarmovga o'xshash qiyalikni o'zida aks ettiradigan piramidalar, kraterlar, labirintlar, fantastik va oy manzaralarini kuzatish mumkin (97-rasm).

Avvalo, vertikal tuzilishga o'zgartirish kiritilishidan oldin shuni esda tutish zarurki, shu joy bilan hamohanglik, monandlik bo'lishi kerak. Har qanday fazoviy ko'lamga ega bo'lgan hajmiy obyektna kirishishdan oldin, xuddi usta haykaltarosh o'z qo'l mahsuliga kirishgandek bo'lishi kerak. Mahoratli san'at namoyondaları, haykaltaroshlik asarlarini yaxshi yoki yomonligini

qanday aniqlash kerak ekanligini bilishadi. Uni aylanib o'tish kerak: yaxshi haykaltarosh asarlarini qanday stilda bo'lishidan qat'i nazar, har qaysi rakursdan qarashingizda ham a'lo darada ko'rinaveradi (40-rasmlar jadvali).




96-rasm. Ko'rgazma park va turar joy bog'ining geoplastikasi:  
1 – Florali park qismi; 2 – Defans turar joy kompleksining bog'i.



97-rasm. Germaniyadagi Erkrat shahrining turar joy tumani bog'i:  
*Relyefni o'rnatilishining sun'iy yo'l bilan shakllantirish. Tarh va g'oyaning bir qismi*  
1 – chegaralangan pog'onasimon maydonchalar; 2 – tushish uchun tarkovga o'xshash  
qiyalik; 3 – o'yin maydonchasi; 4 – ko'kalamzorlashtirilgan maydonchalar.

## GEOPLASTIKA

40-rasmlar jadvali



Bundan tashqari, haykaltaroshni bunday aylanib o'tish, sizga o'zining sir-asrorlarini, o'zining tarixini so'zlaydi va unga joylashtirilgan oberton, ya'ni asosiy tonga alohida tus beruvchi qo'shimcha tonlarni jaranglatilishiga majburlaydi. Xuddi shu yo'l bilan bog' va parkni yoki maydonlarni baholash kerak. Agar abstrakt holatda, ya'ni mavhum bir tarzda qaralsa, geoplastika ham uni faqat tashqi ko'rinishini emas, balki ichki ko'rinishini ham his eta olish kerak bo'lgan haykaltaroshlik asaridek murakkab fazoviy obyektdir (40-rasmlar jadvali).

Sun'iy relyef ustida ish olib borishda quyidagilarni hisobga olish kerak:

- arxitektor xayolida tug'ilgan ijodiy formalar maketlarda yaratilib sinchkovlik bilan tekshirilishi kerak;
- xayolga keltirilgan g'oyaning real effekti keskin ravishda farq qilishi mumkin;
- haqiqatda o'sha-o'sha qiyaliklar maketning yuqoridan ko'rinishiga nisbatan yanada qiyaroq ko'rinati.

**Zamonaviy geoplastika rivojlanishi tendensiyalari.** Relyefning sun'iy formalarini loyihalashda landshaft arxitekturasining oldida yanada mas'uliyatlari masalalardan biri turadiki, unda relyefning sun'iy formalari bilan hududlarining landshaft elementlarini bir-biriga mos keltirilishiga erishishdir (98-rasm).



98-rasm. Shahar piyoda yurish yo'l va maydonining geoplastikasi:  
*Kopengagendagi piyodalar yuradigan markazi.*

Geoplastika qo'llanilishining yana bir o'ziga jalb etadigan tarafi, bir qarashda ko'zga tashlanmaydi – uning maydonlarni kompleks ravishda ishlab chiqilishida ekologik tozaligi, chiqindi

chiqarmaydigan uslubligidir. Inshoot qurilishida kavlanadigan kotlovandan va ariqlar kavlanishida chiqarilib tashlanadigan tuproq, chetga chiqarilmasdan shu yerning o'zida hududni obodonlashtirish va badiiy bezatilish ishlariga ishlatiladi (40-rasmlar jadvali).

Zamonaviy texnika avvalgi davrga qaraganda, shunga o'xshash ishlarni katta ko'lamlarda olib borish imkoniyatlarini beradi. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi, geoplastika imkoniyatlarining boyitilishida, juda ko'p ajoyib materiallarni inqdim etdi. Maxsus yer ishlari uchun o'ramli suv o'tkazadigan to'qilgan va to'qilmagan geosintetiklar, geokompozitlar ikki va ko'p qatlamlili materiallardan, geoplastiklar, geopanjara va geotekstilar (tekis va hajmiy), suv o'tkazmaydigan geomembranalar va h.k.lardah foydalaniladi.

Landshaft arxitektori maydondagi muayyan masalalarga qarat, tuproqni armirlash, qatlamlarga bo'lismish va tuproqning zasini qochirishda u yoki bu materiallarni tanlashi mumkin. Zamonaviy materiallar qatorida avvalgi davrlarda erishib bo'lmaydigan imkoniyatlarni beradigan: o'ramli gazon o'tlari, landshaft arxitektorining eng ajoyib, jimmijador asarlarini ham, qal'a devori va abstrakt yer haykalchalari, tikka qiyaliklar va chim bostirilgan kursilarni sanoqli soatlar ichida kiyintirib qo'yish imkoniyatini beradi (40-rasmlar jadvali).

**Tirkaklik devorlar va zinapoyalar** – landshaft kompozitsiyaning yoki maydonning maqsadga muvofiq bo'ladigan elementi. Ular ham amaliy, ham dekorativ vazifani bajargan holda, geoplastikaning elementlari deb hisoblanadi.

Qiyaligi katta yoki murakkab relyefli maydonlarda, qiyalikni tirkak devorlar yordamida zinalashtirish bog'ni yanada ko'rksamashadiradi. Ular maydonga o'ziga xos relyef va fazoviy ko'rkg'ishlab, uning ko'rinishini yanada qiziqarli holatga olib keldi (99-rasm).

Tirkak devorning ashyosini, shakli va o'lchamlarini tanlash, bog'ning vazifasidan kelib chiqadi. Ular muntazam bog'larda va parklarda hamda o'z-o'zidan landshaftning bezagi bo'lib turgan joylarda, notejis relyefda joylashtirilishi mumkin. Ular yordami bilan terrasalarda dekorativ ekinlar, gazonlar, shag'alli bog'lar, gulzorlar, suv havzalari, polizlar va hatto mevali bog'larni joylashtirish mumkin. Cho'zilgan maysali qiyaliklar juda chiroyli bo'rindadi.



99-rasm. Tirkak devor va zinapoya misollari.

Tirkak devorlar shartli ravishda dekorativ va mustahkam lovchiga ajratiladi. Biroq, qiyalik va terrasalarni maysa, chim va h.k. lar bilan mustahkalash mumkin.

Joylashishiga ko'ra alohida turuvchi va boshqa inshootlarga bog'langan tirkak devorlar ajratiladi:

1. Yassi va tekis hudud.
2. Katta qiyalikka ega bo'lgan hudud.
3. Darajalarning ketma-ketligi.
4. Ko'chishlardan himoyalash.
5. Yo'l va yo'laklar bo'ylab vertikal qiyaliklar.

Landshaft loyihalashda tirkak devorlar quyidagi turlarga ajratiladi:


- past-balndligi 1 metrgacha;
- o'rtacha — 1 metr dan 2 metrgacha;
- baland — 2—3 metr va undan baland.

Tirkak devorlarni qurishda muhim shart — quyosh tomonga qaratish, aks holda vertikal devordan tushayotgan kuchli soya o'simliklarning cho'zilishi, rangining o'zgarishi va gullahning kamayishiga olib keladi.

Tirkak devorlarni yaratishda u uchun tanlangan ashyo ham muhim ahamiyatga ega. Tirkak devor gulli o'simliklar bilan birga terrasa kompozitsiyalarining aksenti, fon yoki shunchaki alohida gazon hududlari va maydonchalarni chegaralab turishi mumkin. Vertikal ko'kalamzorlashtirishni chirmashib o'suvchi o'simliklardan tashkil etish mumkin.

Tirkak devorlarni ko'pincha ashyo turlardan foydalanish mumkin (100-rasm):

- tabiiy toshli devorlar — ohak, plita, slanes, granit, gneys, porfir, dolomit, valun yoki daryo galkasidan;



100-rasm. Tirkak devor ashyosining har xilligi.

- g'ishtli devorlar har xil terish orqali turli ko'rinishlarda maxsus plitka, tabiiy yoki sun'iy tosh bilan yuzasini pardozlash;
- yog'ochli tirkak devorlar quruq yog'ochdan qo'llashadi. Ular ko'p muddatga yaroqli bo'lmasa ham zamonaviy landshaft ditzyni nuqtayi nazaridan qulayroq hisoblanadi. Yog'och to'sin yoki torf bloklar kichik muntazam bog'chaga to'g'ri keladi, lekin ular park yoki tabiiy, yarimyovvoyi bog' uchun juda mos.
- dekorativ beton bloklardan terilgan devorlar qo'llanishda bir-biriga vertikal choklarini bog'lamagan holda o'rnatiladi.
- sun'iy toshli bloklar nafaqat to'siq va tirkak devorlar uchun, balki skameykalar, ochiq o'choqlar, o'simliklar uchun idish, pergolalarda va h.k.larda ham qo'llash mumkin.

Tirkak devorga zina o'rnatish, skameyka, chiroqlar, fontan va boshqa dekorativ elementlar o'rnatish mumkin. Agar alohida joylarda tirkak devorlar dekorativ rol o'ynasa, suv havzalari va daryolar bo'yida ular eng kerakli elementdir (101-rasm).



101-rasm. Suv atrofini tirkak devorlar bilan terrasalash.

**O'simliklar.** Yerdagi hayotni o'simliklarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Insonni o'rabi turgan muhitning shakllanishida ularning ahamiyati juda yuqori va xilma-xildir, chunki o'simliklar sanitariya-gigiyenik vaziyatni yaxshilash xossalariiga egadirlar.

O'tqazilgan daraxtlar shamol kuchini, shovqinni pasaytiradi, issiqlik rejimini tartibga soladi, havoni changdan va zararli sanoat chiqindilaridan, patogen mikroorganizmlardan tozalaydi va uni namlantiradi, bu esa muhitni sog'lomlashtiruvchi ahamiyatga ega.

Loyihalanayotgan landshaftda ko'kalamzorlashtirish xarakteri maqsadga yo'naltirilganligi bilan aniqlanadi va qurilishda turlilikni taqozo etadi. Shuning uchun shahar parklari uchun o'simlik materiallari, kurort zonalariga nisbatan o'zgacha, va o'mron parklar, rekreatsiya zonalari yoki qo'riqlanadigan huduclardan butkul boshqacha bo'ladi. O'simliklarni tanlashda bir qancha asosiy prinsiplarga amal qilinishi lozim: ekologik, fitotsenotik, sistematik va fizionomik (garmonik).

**Ekologik prinsip.** Har bir o'simlikning tashqi ko'rinishi uning shakllangan geografik sharoitlarini o'zida aks etadi. Shuning uchun ma'lum bir relyef shakllarida tabiiylikni yuzaga keltirish uchun bu turdagи yashash sharoitiga o'zining tarixiy rivojlanishi jarayonida moslashgan o'simlik turlari ekilishi lozim.

**Fitotsenotik prinsip.** O'z vazifasiga ko'ra o'simliklarning tabiiy va madaniy landshaftlarda o'zaro ta'siri jihatlarini o'rtaga qo'yadi. Ma'lumki, aralash o'rmonlarda biror bir daraxt turlari ko'proq o'zaro moslashadi (masalan, qayin va shumtol, eman va qora qayin, qarag'ay va olxa), shuningdek, bir-biriga qaramaqarshi ta'sir ko'rsatadigan turlar (shumtol va qora qayin, eman va yong'oq).

**Sistematik prinsip.** Bu prinsip daraxt va butalarni har xil ko'rinishlardagi, lekin bir oilaga mansub turlarini birgalikda ekishda namoyon bo'ladi. Bunday tizim juda qiziqarlidir, negaki bunday o'simliklar shoxlarining shakli, shoxlash xarakteri, po'stlog'inинг rangi va fakturasiga ko'ra juda ko'p umumiyl tomonlari mavjud. Hududda katta miqdordagi bir oilaga mansub o'simliklarning konsentratsiyasi landshaftning ranginligini ancha oshiradi, shuningdek, katta kuch va jonlilik taassurotini beradi.


**Garmonik prinsip.** Har xil o'lcham va shakldagi daraxtlarni asosiy tiplarga ajratish lozim: soliter, guruh, xiyobon, shoxdevor, rohsa (kichkina o'rmon) va massiv.

O'simliklarning shakli va rangining turli-tumanligi ularni landshaft kompozitsiyasida asosiy tashkil etuvchiga aylantiradi. Har bir daraxt yoki butaning tashqi ko'rinishi o'zining xususiy ko'rinishiga, xarakteriga ega, shuning uchun aynan o'simliklar loyihalanayotgan manzaraning proporsiyasi va shaklini belgilaydi hamda u yerda kontrastlar hosil qilib, uning «kayfiyat»ni shakllantiradi. Daraxt va butalar asosan archali va yaproq bargli turliqra ajratiladi (41, 42-rasmlar jadvali va 102-rasm).

Landshaft arxitekturasida obyekt va o'simlik o'rtasidagi kompozitsion bog'liqlikni hosil qilish va uni badiiy g'oyaga bo'yusundirishda ko'pincha dalalardagi va ko'p marotaba ochildigan o'simliklardan foydalanadilar. O'simlik klassifikatsiyasiga qaraganda o'simliklar bir-biridan avvalo o'lchamlari, yaproqlari, pullari va ranglari bilan ajralib turadi.

### Daraxtlar shakli:


Birinchi kattalikdagi daraxtlar — (balandligi 20 m va undan ortiq). Igna bargli: tikanli archa 20–30 m, oddiy qarag'ay, qrim qurag'ayi 20–35 m, veymut sarvi 30–50 m. Bargli sekvoya 35–50 m, botqoq sarvi 30–50 m. Yaproq bargli daraxtlar: eman, oq tol, o'tkir bargli zarang, qandog'och (olxa ehernaya), oq tol, qora tol, sharq chinori, oddiy shumtol, amerika shumtoli, lola daraxti (102-rasm va 41,42-rasmlar jadvali).



102-rasm. Birinchi kattalik yaproq bargli daraxtlarning ko'rinishi.

## ARCHALI DARAXTLAR

41, 42-rasmlar jadvali



## YAPROQLI DARAXTLAR



T. ABDIPIER GLIFORTSEA



NABITAK ASQULUS



NABITAK ASQULUS



IRIA WILLOW



IRIDA YELIZ



ESTASHA CATALPA



SIECHI FRAXINUS

- Ikkinci kattalikdagi daraxtlar – (10–20 m) eldar qaraq'ayi, virjiniya qora archasi. Yaproq bargli: oddiy nok, dala zarangi, oq tut, sinuvchan tol, katalpa, O'sh kashtani, oq shumtol (gulli), zangori shumtol, pensilvaniya shumtol.

- Uchinchi kattalikdagi daraxtlar – (5–12 m) igna bargli kanada archasi, uzun bargli qora archa, Banke qarag'ayi, yaproq bargli: oddiy behi, tatar zarangi, oddiy chetan (ryabina), yapon safarasi, oddiy shumurt, mevali olma, turli xil do'lalar, albitsiya (lenkoran akatsiyasi), kanada do'lana.

#### **Butalar shakli:**

- Baland butalar (2,5 m). Doim ko'm-ko'k: oddiy qora archa, mikrobiota, sharq biotasi, yaproq bargli: sariq akatsiya, yevropa bereskleti, qora buzina, qizil buzina, oddiy kalina, Gir.nal zarangi, leshina, ingichka bargli lox, oddiy nastarin, qalin sumax (sirka daraxti).

- O'rtacha kattalikdagi butalar (1–2 m). Ign a bargli: tog' qarag'ayi, biota. Yaproq bargli: yapon behisi, oddiy zirk (barbaris), spireya, qorag'at (smorodina), farzitsiya, hidli sumax, kornus, deren.

- Past butalar (0,5–1 m). Ign a bargli: qozoq qora archasi, magoniya (doimo ko'm-ko'k o'simliklardan). Yaproq bargli: har xil deytsiya, drok, past bodom (adir bodomi), yapon spireyasi, yapon behisi.

Birinchi kattalikdagi daraxtlar odatda yuqori qismi keng bo'ladi (diametri 10 m dan katta), masalan, eman, zarang, shumtol. Ikkinci kattalikdagi daraxtlarda tepasi o'rtacha o'lchamda bo'ladi (diametri 5–10 m), uchinchi kattalikdagi daraxtlardan tepasi tor bo'ladi (diametri 2–5 m). Lekin bu qoidadan istisnolar ham bor. Birinchi kattalikdagi daraxtlar orasida tepe qismi ingichka piramidasimon yoki ustunsimon bo'lgan daraxtlar bor (ustunsimon eman, piramidasimon kiparis, ustunsimon terak, piramidasimon terak, ularning balandligi 20–30 m bo'lgan holda yuqori qismining diametri 2–3 m). Ayrim uncha baland bo'ligan turlarning tepe qismi keng shoxlangan bo'ladi (masalan, albitsiyada yetuk daraxtlarda balandligi 10 m bo'lsa, tepe qismining diametri 10–15 m ga yetadi).

Baland butalar uchun tepe qismining diametri 3–5 m va undan katta, o'rtacha balandlikdagi butada 1–3 m, past bo'yli butada – 0,5–1 m.

- gullar: bir yil, ikki yil va ko'p yil yashaydiganga;

- o'tlar: tabitli va madaniylashtirilganga bo'linadi.


Umumiy kompozitsiya yechimini hal etishda daraxt va butalar 4 guruhg'a ajratiladi: ninabargli doimiy yashil, ninabargli bargi to'kiladigan, yaproqbargli doimiy yashil, yaproqbargli bargi to'kiladigan. Doimiy yashil ninabarglilar va bargi to'kiladigan yaproq barglilar ko'proq ahamiyatga ega. Birgalikda qo'llan-ganda ikkala guruh, tasviriy kontrast prinsipida bir-birini alohida namoyon etadi.

### Daraxt va butalar ko'rinishi, tanlanishi va koppozitsiyasi

Soliter landshaft kompozitsiyasida quyidagicha qo'llanilishi mumkin (103-8, 104-1-rasmlar):

- bosh element, maydon dominantasi;
- aksent, bir turdag'i quyuq;
- ekinlar oldida;
- ekinlar orasida hududni ajratuvchi;
- kompozitsiyaning asosiy elementini kuchaytiruvchi (qoya, shurshara va bosh.).

Daraxtlarning shoxlash shakli tarvaqaylagan, piramidasimon, ustun shaklida, shar shaklida, oval, zont shaklida, pastga osilib turuvchi, yoyilib o'sadigan bo'lishi mumkin.



103-rasm. Park ekinlarini guruhlash:


A – muntazam: 1 – bosket, 2 – guruh, 3 – xiyobon, 4 – soliter; B – peyzajli:  
5 – massiv, 6 – guruh, 7 – xiyobon, 8 – soliter.



104-rasm. Ekinlar guruhlarda ko'rinishi:  
1 - soliter; 2 - xiyobon; 3 - massiv.

**Guruhi.** Loyihalashda ikki asosiy guruhi turlari qo'llaniladi: *bir turdag'i va har xil turdag'i*. Daraxtlarning kattaligi, turi va joylashishiga qarab ulardan juda ko'p turdag'i kompozitsiyalar yaratish mumkin.

Guruhlari bir yarusli, ko'p yarusli, yadrosiz simmetrik, yadroli asimmetrik, ixcham, noaniq shaklda va b. Bunda tashqi ko'rinishi, shakli, o'simlik rangi va teksturasi, ma'lum bir guruhgaga kirishini hisobga olish lozim (105-rasm).



105-rasm. Daraxt turiga qarab guruhlar tasnifi:  
1 - sof guruhlar: a, b - yaproqbargli, d, e - ninabargli; 2 - aralash guruhlar:  
f - yaproqbargli, g - ninabargli, h - aralash.

Bir turdag'i daraxtlar guruhi, ma'lum bir o'simlik dekorativ sifatini ajratib ko'rsatadigan siluetshik bilan ajralib turadi.

Har xil turdag'i daraxtlar guruhi ularning o'sishi, shoxlash xarakteri, barglarning fasllarda rangi o'zgarishiga qarab tanlash kerak. Ko'proq, plastiklik, siluetning manzaraviyligi, yorug'lik va soya o'yinini guruhgaga soliter yoki buta qo'shib yaratish mumkin.

Guruhi kompozitsiyasida ko'p turlar qo'llash tavsiya etil maydi. Ikki - uch turdag'i o'simliklardan tuzilsa, ular

dan biri dominant bo'lib boshqalari unga biologik va estetik munosabatda bo'ysunganda ko'proq samarali bo'ladi.

**Rosha** — bu 0,5—1,5 ga maydondagi joyi ko'p o'zgarmagan, bir yoshdagi daraxtlardan tuzilgan, nisbatan yopiq muhit. Roshalar bir turdag'i (qayin roshasi, eman, qora qayin roshasi), ikki biologik va dekorativ xarakteri jihatidan mos keluvchi turdan shakllanishi mumkin (masalan, zarang va juka, qora qayin va grab).

Rosha mustaqil strukturaviy birlik sifatida yoki o'simliklar massividan ochiq muhitga o'tish motivi bo'lishi mumkin.

**Massivlar** biologik chidamli va dekorativ tanlangan daraxt-butta va o'tloq o'simliklardan shakllanadi va 10 ga gacha bo'ladi. Turkibiga ko'ra ular sof va aralash bo'lishi, shakliga ko'ra oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Massivlar va daraxtzorlar, daruxtlar, butalar va daraxt-butta navlарidan tashkil etiladi.

Roshadan farqli ravishda massivning o'simlik materiali ixcham joylashadi. Bu mikromuhitning bir xillik xarakterini shakllantiradi va flora va fauna rivojlanishiga qulay sharoit yaratadi.

Butalar joylashishini loyihalashda ko'proq dekorativ samarali turlarini tanlash lozim. Ajoyib gulli effektlarni muntazam gullaydigan butalarning yirik guruhdari yordamida ularni nafaqat yuqinda, balki ko'rish joyidan ma'lum miqdorda uzoqlashtirgan holda yaratish mumkin (na'matak, bog' yasmini). Yorqin rangli gullaydigan, shuningdek, yoqimli hidli turlar yaqin masofada vuxshi ko'rindi (park atirgullari, nastarin va b.).


**Gullar va gulli kompozitsiyalar.** Gullar va gul kompozitsiyalarini tashkillashtirish muntazam, peyzaj, abstrakt va badiiy manzaralari formalarda tashkil etilishi mumkin. Gulli bezashning o'siy turlari — klumbalar, rabatkalar, bordyurlar, miksborderlar, yuruhli o'tqazishlar, gul massivlari, yakka o'tqaziladigan daraxtlar, parterlar, toshli tepaliklar (alpinariylar) hisoblanadi.

Regular kompozitsiyalarda gullar — gul parterlari, klumbalar, rabatkalar, bordyurlar, miksborderlar, gul hoshiyalar shakllarda tashkil etilsa bo'ladi.

**Parter** — park yoki bog' saxnidagi gulzor, gulzorlarni tashkil etishdagi eng yirik shakl bo'lib, u uch variantda yaratilishi mumkin (106-rasm):

- amlashtirilgan gul-gazon parteri, kompozitsiyaning bir qismi gullar tashkil etadi. Bu yerda gullar parterning o'rtasida

yoki perimetri bo'yicha joylashtirilgan bo'lishi mumkin (katak, nur, o'zaro kesishgan ikki chiziq bo'ylab va h.k.);



106-rasm. Parter turlari:

*A – tarixiy parklarda: 1 – koshatoyli parter, 2 – ornamental parter, 3 – inglichcha parter, 4 – qiymallangan parter; B – zamonaviy parterlar: 5 – gulzor parter, 6 – gazonli parter, 7 – asimmetrik gazonli va gulzor parter, 8 – modulli parter.*

- naqshlangan gulli parter, parterning umumiy yuzasini egallaganda va parterning butun yuzasi bo'ylab naqshinkor-rasm shaklida joylashtirilganda. Gullardan tashqari naqshinkor parterga sun'iy materiallar – har xil tusdagi shishalar, shag'al, maydalangan qizil g'isht, sariq qum va boshqalar ham kiritilishi mumkin.

- yxlit tekislik ko'rinishida bir xildagi gulli gilam. U kichik bo'yli bir yillik gulli o'simliklardan tashkil topishi mumkin yoki ko'pyillik, padozlash ishlari natijasida 5–12 sm li zich qoplam yuzaga keladigan padozlash ishlariga chiday oladigan dekorativ-bargli o'simliklardan tashkil topishi mumkin.

Gullar bilan bezatilishni uncha yirik bo'limgan shakllari parter elementlari va ixtiyoriy elementlar bo'lishi mumkin.

Parterlar to'g'ri geometrik shakldagi ko'kalamzorlashtirilgan uchastkalar bo'lib, ularni shakllantirishda asosan maysali o'simliklar ko'pchilikni tashkil etadi. Maysa ustida gulli o'simliklardan tashqari chiroyli gullovchi butalar, ayrim daraxtlar joylashtiriladi. Parter uchastka shaklida oddiy va yo'lakchalar bilan ajratilgan murakkab ko'rinishda bo'lishi mumkin. Parter kompozitsiyasiga dekorativ basseynlar, favoralar, haykallar, ayyonchalar kiritilishi mumkin. Parterlar asosan tekis uchastkalarda barpo etiladi. Ajratilgan relyefi keskin ifodalangan uchastkalarda ular bir-biridan qiyaliklar bilan, teriluvchi devorlar bilan ajratilgan terrasalar ko'rinishida barpo qilinadi.

**Klumbalar** — uncha katta bo'lmagan geometrik figuralar (aylasat, kvadrat, uchburchak, trapetsiya) ko'rinishidagi simliklarning (50–51-betdagi 8-rasm jadvali va 13, 14-rasm) klumbalar park yoki bog'ning markaziy qismida joylashishidan ham ko'proq arxitektura inshootlari oldida joylashishlari, ular parterda, suv havzalari oldidan ko'rimli joylarni tafsiqlari mumkin. Uning yaratilishida bir xildagi (lolalar, violalar), yoki bir necha xildagi o'simliklar ishlataladi, suv havzasi uchun lolalar o'rtada, violalar esa xoshiya shaklida yaratilish mumkin.

Klumbalar ko'ra ular katta va kichik bo'lishi mumkin. 2–3 m<sup>2</sup> dan 30 m<sup>2</sup> gacha, ko'pincha ular 10–15 m<sup>2</sup> bo'ladi. Klumbalar qarab ko'tarilgan qavariq shaklda qilinadi (klumba diametrining 0,1 qismidan ortiq emas). Klumbalar yoshish muddatiga ko'ra bir yillik va ko'p yillik bo'ladi.

O'simliklarning materialning turiga ko'ra ular gulli, dekorativ bangli va gilamli, aralash (gulli-gilamli) bo'ladi (107-rasm).



107-suz. Shahar parkazining piyoda yo'lida joylashgan aralash klumbalar.  
Vyethum Xoshe Min. 2006-y.

O'simliklarning karakteriga ko'ra klumbalar yaxlit (aynan bir xil o'simliklardan va nevdnlardan) va tarkibli (bir turdag'i, lekin har bir nechi o'simliklardan) bo'ladi. Tarkibli klumbalarda o'simliklar o'simliklarning munosabatda farq qilmasdan, balki balandligi, yotishmasligi va banglarning rangi bo'yicha ham farqlanadi. Klumbalar ostida obbi marta, bahorda va yozda-kuzda bezatiladi.

Shaharda, hozirda ekilgan ikki va ko'p yillik piyozlilaridan bezatiladi: yozgi kuzgi davr uchun — bir yillik, ko'p yillik, ushbu imronlari qishlovchi va qishlamaydigan, gilamsimon qishlovchi qishlovchi gilamsimon o'simliklar klumbani bahorgi

bezash uchun ham yaroqlidir. Klumbalar markazida yelpig‘ich-simon palmalar, agovalarni o‘tqazish mumkin, ular qishda oranjerezaga ko‘chiriladi. Gulli o‘simpliklarni ekishdan tashqari, klumbalarni bezashda atirgul, maysa o‘tlardan foydalaniladi. Klumbaning to‘sig‘i bersklet, shamshod, biryuchina va boshqalardan; g‘ishtdan, tabiiy toshdan, betondan bordyur ko‘rinishida (eni 10–15 sm) bo‘lishi mumkin.

**Rabatkalar** uzun gullar hoshiyasi, eni 0,5–3 m, ko‘pincha 1–1,5 m bo‘ladi. Uning uzunligi gullar kompozitsiyasining tabiatiga qarab va bezatilayotgan obyektning kattaligiga qarab aniqlanadi. Rabatkalar yo‘laklar bo‘ylab, hovuzlar, devorlar bo‘ylarida va h.k. joylashtiriladi. Ular murakkab parter kompozitsiyasi elementi bo‘lib xizmat qila oladi.

Rabatkaning saqlanish muddati, o‘tqaziladigan material turi, bezatilishi, to‘silishiga ko‘ra rabatkalar xiyobonning yonlari bo‘ylab, bino yoniga (bir tomonlama) yoki xiyobonning o‘rtasiga (ikki tomonlama rabatkalar) joylashtiriladi. Bir tomonlama rabatkaldandan baland o‘simpliklar orqaroqda, pastroqlari oldin-roqda joylashtiriladi, ikki tomonlama rabatkalarda esa baland o‘simpliklar rabatkaning o‘rtasini egallaydi. Rabatkalar uchun nargislar, lolalar, xosta, astilba, lyupin va boshqa o‘simpliklar balandliklari, ranglari, shakllarining xillariga qarab ishlatalishi mumkin.

**Bordyur** – klumbadagi yoki gazon ustidagi bir yoki bir necha qator gullardan tashkil topgan hoshiya (kengligi 10–30 sm). Bordyurlar yo‘laklarning, gulzorlarning, gazonlarning atrofini o‘rashi mumkin. Agar bordyur gulzor atrofiga loyihalashtirilayotgan bo‘lsa, unday holda u asosiy obyektga nisbatan ko‘rimsizroq bo‘lishi kerak. Bu yerda semizak, kamnelomka, floks bigizsimonlarni qo‘llash mumkin. Gazon yoki yo‘lak atrofini o‘rashda yanada jilodor bo‘lgan o‘simpliklar ishlataladi – karlik, karlik gulijavhar, viola va boshqalar.

**Miksborder** – «aralashgan bordyur» – bir-biriga ulanib ketuvchi gullar bilan bezatilishning eng qiziqarli ko‘rinishlaridan biri. **Miksborderlar** ixtiyoriy uzunlikdagi ifodali tasvir ko‘rinishida aks ettirilishi mumkin bo‘lgan hoshiya, kengligi 2–4 m yoki 20–30 kv. m fazoviy egri formada bo‘lishi mumkin. Ular asosan ko‘p yilliklardan tuzilgan, to‘g‘ri va noto‘g‘ri shaklda tuzilgan ko‘rinishdagi o‘tkazilgan turli guruhdagi o‘simpliklardan tashkil topgan keng chiziqlardir. Miksborder chiroyli gullaydigan

gollar bilan geometrik yoki erkin tasvir holatida to'ldirilishi mumkin. Manzarali hamda muntazam kompozitsiyalarda qo'l-boriladi, hisobida 30 xilgacha o'simliklar bo'ladi. Ularning qadr-qimmati o'ziga xos individualligidadir. Miksborderda gullash o'si bahordan kech kuzgacha bo'lishi kerak.

**Manzarali kompozitsiyalarda** gullar ko'pincha quyidagi dekorativ bezatilish elementlari sifatida ishlatiladi:

**soliter** — yakkalatib ekib chiqilgan yirik dekorativ effektiv bo'lgan gulchali (agava, pion, buzulnik, georgin va boshqalar) o'simliklar.

**goruh** — bir necha xil o'simliklardan tashkil topgan gul do'sti. Hindolarni, kichik arxitektura shakllarini, toshlarni, suv havolarni va h.k. larni bezatilishida ishlatiladi. Bunday bezatilishning asosiy qadr-qiymati — aslligidir. O'simliklarni kompozitsion qurashishish prinsiplari — bu holatda yog'och guruuhlarini shaklbundischi ishlublariga o'xhash.


**massiv** — gullaydigan o'simliklarni 2 dan 30 kv m gacha bo'lgan maydonchalarda erkin holatda ifodali tasvirlab ekish. U qurulishdan o'zining katta hajmi bilan ajralib turadi. Ularning bezatilishi uchun o'zining dekorativ holatini uzoq muddat saqlaydigan turli xildagi o'simliklar talab qilinadi. Massivlar turinchi dog'larga (lolalardan, nargislardan, flokslardan va boshqalar) ajratiladi, ular esa o'z o'rniда atrofidagi ekinzorning holatiga monand bog'lanishi kerak va gazondagi bepechi bo'p yillik gullar guruuhlari bilan, butalar fonida yoki ular bilan oyig' unlikda bo'lgan dog'larga ajratiladi.

Gazon holat bu boshoqli yoki yerni qoplab turuvchi o'simliklardan tashkil topgan chim qoplamasи. Ishlatilish xarakteriga qarab boshoqli gazonlarning quyidagi turlari tarqalgan:

**z-poter gazon (gilam)** — past quyuq, bo'lgan bir tekis yashil gazon. Bu tur muntazam kompozitsiyaning asosiy qismlarida, binan, haykallar guruuhlari, dekorativ hovuzlar atrofida yaratiladi.

z-dekorativ gazon uzoq yillik, soyaga chidamlilik, quruq-chidamlilik, mexanik zararlarga chidamlilik xususiyatlariga ega. Bu yerda o't bir tekis bo'lishi lozim, shuning uchun uni doim qidirlab turishi kerak (108-rasm).

z-o'tloq gazoni o'zida har xil balandlikdagi o'tlar yig'inishidagi muajizam etadi. Oddiy o't o'rilaqdan maydonlardan bu turli ranglin jihatlari bilan ajralib turishi lozim.



108-rasm. AQShning Florida parklaridagi kanadali gazonlar.

- mavritaniya gazoni bu turlarga ajratishda alohida ajralib turadi. Mavritaniya gazoni faqat urug'ning dastlabki o'sib chiqish davrida muntazam, keyinchalik talabga ko'ra sug'oriladi.
- sport gazoni muayyan maqsadga mo'ljallanadi (sport musobaqlari, qiyaliklarni mustahkamlash uchun). Bunday turga tepkilash, ezilishga, gorizontal siljishlar va boshqa ta'sirlarga chidamli mustahkam o't tanlanadi. Ular doimiy parvarish talab qiladi, chunki doimiy kesish va sug'orish ildizining mustahkamlanib, quyuq o'sishiga yordam beradi.

O'simliklar mavzusini yakunlashdan oldin quyidagilarga urg'u berib o'tish joyiz:

1. Loyihalashga o'tishdan oldin, boshlovchi yog'och navlari ajratilib olinadi, ularni o'z navbatida balandligi bo'yicha, teksturasi bo'yicha, ekologik talablari bo'yicha ajratilib olinadi.

2. Har bir tanlangan asosiy daraxt navlari guruhiga bog'liq bo'lgan daraxtlar, butalar, gulli yoki o'tli o'simliklarni shox-shabbalari, barglari rangi, teksturasi va o'sish shart-sharoitlariga ajratilib tanlanadi.

**Suv va suvli kompozitsiyalar.** Suv bu eng boy va xilma-xilligi bo'yicha samarador bog' va park kompozitsiyalarini taklif etadigan tabiiy material. Suvning mastunkorligini o'ziga xos dekorativ xususiyatlari bilan insoniyatga katta emotsiyonal ta'sir ko'rsata olishi bilan tushuntirib berish mumkin. Har qanday suv qurilmasini turli xil ranglarga ega bo'lgan tasvir palitrasи bilan solishtirib ko'rish mumkin. Bu xislatlar suvning tabiiy xususiyatlari, oquvchanligi va rangsizligi, har qanday shaklga kira olishi va rangini

o'mumim olishi bilan, atrofidagi jismlarning tasvirini aks ettira olishi hamda ovoz chiqarishi bilan bog'langan. Suvni landshaftning badiiy kompozitsiyasida element sifatida qo'llashda, barcha tabiiy xususiyatlarini to'laligicha va eng yuqori did bilan namoyon etishga harakat qilish lozim.

Suvning sovuqlik, oquvchanlik, o'zgaruvchanlik, aks qaytma qobiliyati, sochilishi va ovoz chiqarishi tabiiy xususiyatlardan, turli xildagi landshaft elementlarini barpo etish imkoniyatini beradi.

Bog' va parklarning landshaftini tashkillashtirishda suvning – buloq, jilg'a, kaskad, basseyn, fontan, sharshara, daryo, ko'l va suv shakllari ishlataladi.

Hu osnoda suv holatining 2 shakli hisobga olinadi – *dinamik* (*harakattanuychan*) (109-rasm) va *statik* (*tinch*) (110-rasm).

Hu sababli landshaftning tuzilishi buloq, jilg'a, sharshara, kaskad, fontan (110-rasm), bular qatorida daryo va dengiz tarkibida qo'llaniladi.

Insoniga emotsional ta'sir etish darajasi suvning hajmi va qoldigi, balandligi va tushish tezligiga, oqimning tasviriga va suv masofalaridagi suvning jildirab oqishiga bog'liq. Agar loyihalayotgan hududda kerakli hajmdagi va qudratdagli suv havzasi mavjud bo'lai, u holatda asosiy masala uni dekorativ xususiyatlari ko'li huytirish va kamchiliklarini berkitish bo'ladi.



**109 rasm.** Fontan va sharshara turlari: 1 – fontan turlari: a – penali; b – ostonalni; c – bir o'qli; d – ko'p o'qli; e – bir tovoqli; f – ko'ptovoqli va sharshara turlari: g – «serpantin»; h – bir o'q turqaladigan; 2 – sharshara turlari: a – bir o'q turqaladigan; b – ko'p o'q turqaladigan; d – «geyzer»; i – bo'yicha «tyo'pan»; j – «bilakuzuk»; k – «yarim sfera»; l – «kolokol»; l – «Tiffani».



110-rasm. Tinch suv orqali yaratilgan landscape kompozitsiyalar.

Statik shaklda ustun keladigan sabablardan biri ko'z bilan ilg'ashdir, shu sababli dekorativ basseynlar, hovuzlar, ko'lchalar ishlatalidi. Hovuzlar suv obyektlarini tashkil etishdagi taniqli va mashhur formalardan hisoblanadi.

Fontanlar landscape kompozitsiyalarining old elementlari ko'rinishida — eng ko'rimlilik va mas'uliyatli joylarda joylashtiladi. Fontanlar parkning, bog'ning, maydonning, skverning, xiyobonlar, piyoda ko'chalarining va boshq. muntazam jihozidir. U haykaltaroshlik asari ko'rinishda fazoviylar kompozitsiya yoki suv qurilmasi ko'rinishida ishlanishi mumkin. Fontanning g'oyalari kompozitsion-badiiy ishlanishi — ijodiy masala bo'lib, bunga turli xildagi shakllarga ega bo'lishi kerak.

### **2.7.2. Landscape arxitekturaning inert elementlarini loyihalash shartlarini hisobga olish**

**Toshdan ishlangan kompozitsiyalar.** Toshlar va tog' jinslari bunday holatdagi jinslar tabiiy bo'lmaydigan joylarda qo'llaniladi. Bunday holatlarda kerakli toshlarni tanlanishi loyihalana-yotgan joyning relyef shakllari bilan mutanosib bo'lishi hamda ushbu hududdagi shamol harakati jarayonlarining xususiyatlarini hisobga olishi kerak.

Toshlarning kompozitsiyalarini amaliyot va estetik qadr-qimmati shunday holatda bilinadiki, agar ular loyihalashning umumiy qonun-qoidalariga va agar tabiatda uchraydigan shakl-

bordek to'g'ri ishlatsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar toshdan ishlannayotgan kompozitsiya loyihalanayotgan hududda yaratilayotgan bo'lsa va loyihalanayotgan hududda asl holatdagi tog' jinslari mavjud bo'lsa, u holda bu qoyalarni holati loyiha oldidan yaxshilab o'rganib chiqilishi kerak va ularni o'xshatilishda qo'llanilishi kerak. Bu bilan, toshdan ishlanadigan kompozitsiyaning asosiy mezoni, atrofdagi tabiiy landshaft bilan hamohang bo'lishligidir.

Yanada aniqlik kiritish uchun, bir emas bir necha o'zaro munosabatdagi kompozitsiyalarni aniq bir «mavzuli chiziqni» barpo etilishida qo'llash mumkin. Misol uchun: toshlarni bir joyga monolit do'nglik ko'rinishida joylashtirish mumkin, boshqa variantda – ixcham guruh shaklida, uchinchida esa har jarafli sochib tashlangan tasviriy guruh shaklida joylashtirish mumkin. Agar loyihalanayotgan maydon o'ziga xos tabiatga ega bo'lsa, uning manzarasi atrof-muhiddagi landshaft tabiatiga qarama-qarshi bo'lsa, u holda uni (arxitekturaviy inshootlar, tayantirilgan devorga, daraxtzorlar va h.k.) chegaralash kerak. Toshli materiallarni qo'llanilishiga qo'yiladigan asosiy talablardan – uning mustahkamligi, uzoq muddatga chidamliligi, kimyoiyi tajovuzkorsizligidir.

**Alpinariy, rokariy** – toshli maydoncha, asosiy guruhdagi belgilanadi. Alpinariy va rokariylar – landshaftli, tog'li va boshqa tabiiy shakllanish ko'rinishida bo'ladi, badiiy, o'ylab topilgan yoki tog' hududining ideallashtirilgan obrazini yaratuvchi, kolleksion – o'simliklarni yetishtirish uchun. Rokariylar hudud manzarasining o'lchamlari va tuproq shart-sharoitlaridan qat'i nazar ixtiyoriy maydonchalarida vujudga keltiriladi. Ular – parklarda, bog'larda, skyerlarda, maydonchalarda, dala hovlilarda va boshqa notejis relyefli joylarda joylashtirilishi mumkin.

Undan rokariy tepaliklar relyefni ajratilib turishi mumkin yoki terrasalarda va zinapoyalar joylashib, toshlar va o'simliklar bilan birga qo'shib barpo qilinadi. Toshlar, past bo'yli daraxtlar va bintalar gullab turuvchi maysali va dekorativ – bargli o'simliklar uchun ko'rinish vazifasini o'taydi. Ko'pincha sedum, yukki, to'shama floks, paprotniklar, piyozi o'simliklar ekiladi. Maydonlarning yoritilishiga qarab ularni – quyoshni yoqtiradigan (emizak, floks, bigizsimon, armeriya va boshqalar) yoki chidamlili (kupena, suvjamlagich, vinka va h.k.) turdag'i o'simliklar bilan tashkillashtirish mumkin (111-rasm).



111-rasm. Alpinariy va rakariyalar.

**Bog‘-park yo‘llar va ularning ko‘plamalari.** Xiyobon va yo‘llar asosiy, ikkinchi darajali, qo‘sishimcha piyodalar yo‘llari, piyodalar xiyobonlari va yo‘llar tiplariga bo‘linadi.

Asosiy yo‘llarga (6–9 m) ajratuvchi yashil chiziqlar, kengligi 2 m atrofida, yotqiziladi, har 25–30 m o‘tish joylari bo‘ladi. Ular o‘zini asosiy kirish joylariga ega bo‘lgan funksional zona va maydonlarni bir-biriga bog‘laydi. Bu yerda parkning ichki transporti o‘tiladigan yo‘llari o‘tkaziladi. Agar xiyobon suv havzasi yonidan o‘tadigan bo‘lsa, uning ko‘ndalang profili turli pog‘onalarda, qiyalik, devorcha va zinapoyalar bilan bog‘langan holatda yechilishi mumkin.

Ikkinci darajali yo‘laklar (3–4,5 m) manzarali joylarda trassalashtirish mumkin va egri chiziqli qirralarga ega bo‘lishi mumkin. Ikkinci darajali yo‘laklarning kirish joylari va park obyektlari o‘zaro bog‘lanadi. Bu yerda ekspluatatsion transport vositalariga ruxsat beriladi.

Qo‘sishimcha piyoda yo‘laklari (1,5–2,5 m) parkning alohida joylashgan inshootlariga olib boradi. Bu yerda kichik intensiv piyoda harakatlari amalga oshiriladi va transport vositalarini o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Erkin trassirovkaga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan har bir burilish obyekt bilan, inshoot bilan, o‘simliklarni yagona va guruhli to‘plamlariga bog‘lantirilib oqlanadi. So‘qmoqlar (0,75–1,0 m) tabiiy xarakterga ega bo‘lgan landshaftda qo‘sishimcha sayr qilish tarmog‘ini aks ettiradi. Kesskin qiyaliklardan, changalzorlardan, jarliklardan, jilg‘a bo‘ylaridan trassirovka qilinishi mumkin. 21-rasmlar jadvalida zamonaviy piyoda yo‘laklar va ularning qoplamlarini bog‘ va park landshafti bilan bog‘lanishi ko‘rsatilgan.

**Xiyobon va yo‘llar qoplamlari.** Maydonchalar, yo‘llar esa yo‘laklarning qoplamlarini yumshoq va toshli qoplamlardan

yoki ularning qo'shilishidan qurish maqsadga muvofiqdir (43-rasmlar jadvali). Klinker, parferit, gadir-budir granit va marmarli qoplamalar uzoq muddatli, tejamkor va eng qulay tabiiy materiallardir. Ular qimmat bo'lismiga qaramay, ularni uzoq soydanishga va yuqori yuklanishga mo'ljallangan maydonlarda va piyodalar fazolarida ko'proq qo'llanishi lozim, ularni qisqa muddatli va ekologik bo'limgan beton plitalarga, bruschatka va asfalt qoplamalarga almashtirmaslik kerak.

### 2.7.3. Kichik arxitektura shaklli va dekorativ qurilmalari


Landshaft arxitekturasi obyektlaridagi kichik arxitekturaviy va dekorativ shakllar — bular badiiy bezatish elementlari bo'lib, turli xil funksiyalarni bajarishi mumkin. Ular umumiy stil bilan birlashtirilgan, bezatadigan, xilma-xillik yaratadigan, obyektlarni funksional vazifalariga, ramzlarining jilodorligini beradigan va yana, tashrif qilganlarni park maydonchalarining u yoki bu zonaliga yo'naltirish axborotini berishi mumkin (44-rasmlar jadvali). Me'moriy elementlar va inshootlar quyidagi guruqlarga bo'linadi:

- dekorativ me'moriy elementlar — favvoralar, haykallar, vazular, pergolalar va trelyajlar;
- g'oyaviy-siyosiy mazmundagi me'moriy elementlar — monumental yodgorliklar, byustlar;
- madaniy-maishiy va utilitar mazmundagi elementlar — ko'r-gazma pavilyonlari, yozgi teatrlar va kinozallar ochiq estradalar, qiroatxonalar, bufetlar, urnalar, yozuvli jadvallar, skameykalar;
- tinch dam olish uchun — ayvonchalar, tomosha maydonchalari, pavilyonlar;
- suol dam olish uchun — bolalar maydonchalari, badan tarbiya maydonchalari, raqs maydonlari, attraksionlar.

Kichik formalarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri, ushbu hududning yashil o'simliklari, relyef va landshaft kompozitsiyalarning formalari bilan uyg'unligiga erishishdir. Ular atrof-muhitga nomutanosiblikni olib kirishi kerak emas, arxitekturaviy landshaft kompozitsiyasi stilistikasiga to'la javob berishi kerak. Kichik arxitekturaviy shakllar ixtiyoriy arxitekturaviy shakllarni — kirish qismidan, pavilyon, ratonda, galereya, supalar (besedka), bolyustradalar, fontanlar yoki ko'prikhaldardan poy yaza, fonarlar, panjarali to'siqlar, o'rindiqlar va boshqa ko'rnishlarda aks ettirishi mumkin.

## YO'L VA YO'LAKLAR QOPLAMALARI

43-rasmlar jadvali



Yo'l va xiyobonlar qoplamlarining ko'rinishi va ularni o'simliklar bilan landscape tashkillash:

1 - beton plitalari; 2 - qum; 3 - mozaika; 4 - bruschatka; 5 - klinker; 6 - marmar;  
7 - tosh.

## KICHIK ARXITEKTURAVIY VA DEKORATIV QURILMALARI

44-rasmlar jadvali



**Kirish, galereya, shiyponchalar.** Ularni ochiq landshaft obyektlari joylarida joylashtirilishi quyidagilar bilan monand bo'lganda bajarilishi mumkin: atrofdagi qurilishning ansambl holatidan, ochiq joylar landshaft g'oyasidan kelib chiqib yoki joyning yashil maysalaridan ishlangan bo'lishi mumkin (112-ras.).

**Pavilyonlar, rotondalar, bolyustradalar va ko'prikchalar** – atrof-muhit ansambliga monand bo'lishi yoki parkning yoxud boshqa obyektlarning landshafti muhitidagi erkin element bo'lishi mumkin (113-rasm).



112-rasm. Chelsi landshaft ko'rgazmasi: bog' galereya va shiyponchalar. Angliya.



113-rasm. Rotondalar: a – Pavlovsk parkining «Xram Drujbi» rotondasi, Sankt-Peterburg; b – O'zbekiston milliy bog'idaqisi «Navoiy» rotondasi.

**Haykaltaroshlik asarlari** san'at asari bo'lib, xuddi fontandek, ko'kalamzorlashtirilgan joylarni bezatadi, xilma-xillik kiritadi, boyitadi. U yirik va kichik bo'lishi mumkin va kayfiyatga yaxshi ta'sir etishi, odamlarda qiziqish uyg'otib ularga chiroyli his-tuyg'ularni ato eta oladigan bo'lishi kerak. Haykaltaroshlik asarlari – antik, klassik, turli xil tematik sahna asarlarini aks ettirishi, hattoki abstrakt holatlarda bo'lishi ham

muhim. Oxirgisini dekorativ-amaliy san'at yoki erkin ijodiy yo'nalishiga bog'lash mumkin.

**Pog'onali sharshara va ayvonchalar** — bu relyefni o'nqir-bo'nqlr joylarini tushayotgan suv va o'simliklarni ishlatalishida relyefni o'ziga xos ishlov berish uslubidir. Ular yaruslar va pog'onaldan ishlaniishi mumkin, muntazam va erkin (manzarali yoki abstrakt) kompozitsiyalarga ega bo'lishi mumkin.

**Vaznular** ham haykaltaroshlik asarlaridir. Ular bolyustrada-jarda, ayvonchalarda, maydonchalarda yoki maysazorning qurkuziga joylashtirilishi mumkin. Parklarni bezatilishi uchun rupori badiiy namunalarni tanlanishi maqsadga muvofiq.

**Pergollar va barso** — bular daraxtlarga, metall va boshqa harkatlariga chirmashadigan o'simliklardan tashkil topgan yopiq obyektori. Pengollarning tavsiya etilishi — mo'tadil soyalarda hordiq shig'arish, bog' va parklarning turli xil maydonlarini bog'lashdir. Pergollar asosan muntazam parklarning jihozidir. Chirmashib o'ndigan o'simliklar sifatida — yovvoyi uzum, kulmok (xmel), turk boyiyasi, dukkanakli, ipomeya va boshqalar ishlataladi (114-rasm).



114-rasm. Pergollar. 1 — Ispaniyadagi Aathambra va Xeneralif bog'larining pergolasi;  
2 — Angliya, Chelsi landshaft ko'rgazmasi: landshaft-dekorativ kompozitsiyasi.  
2007-y. 3 — relyajning loyiha taklifi.

Zamonaviy bog'larda hamda parklarda yengil dekorativ pergollarini uchratish mumkin, yuk ko'taruvchi asosi temir-beton, metal yoki plastikdan ishlangan besedka va relyajlarni ham uchratish mumkin. Har bir holatda ular chiroyli bo'lishi kerak bo'lganligi qo'shamiga ega bo'lmasligi ham mumkin.

**Kurallar** — bog' park maydonining, skverlarning, xiyobonlarning, maydonlarning va boshqa obyektlarning zarur elementi. Ular shaxsiga, guruhlar bo'lib, aylana bo'ylab yoki daraxt atrofida

turishi mumkin. Kursilar odatiy geometrik formalardan to' erkin formalargacha bo'lgan kutilmagan ko'rinishlarga ega bo'ladi.

**Stendlar, yodgorlik toshlari, instolatsiyalar** — boshqa elementlar kabi yashil maysalarga monand bo'lib unga bo'ysunishi kerak (115-rasm).



115-rasm. Moskvadagi landshaft dizayni konkursda qatnashgan loyihalar.

**Kiosklar (do'konchalar)** — aholi ko'p yig'iladigan joylarda joylashtiriladi. Ularning dizayni landshaft sitiliga mos kelishi va landshaft kompozitsiyalarni ko'rinishiga xalaqit bermaydigan joylarda turishi va yashil maysalarga monand bo'lib, unga bo'ysunishi kerak. Ularning arxitekturaviy dizayni zamonaviy an'analarga yoki antiqa dizayn stiliga yarasha bo'lishi, landshaft sharoitiga munosib ranglardan va yengil konstruksiyalardan bajarilishi lozim.

**Panjara devor (ixtolar)** — perimetr bo'ylab haqiqatda zarur bo'lgan holatlarda qo'yiladi. U yuqori badiiy qadr-qimmatga ega bo'lishi kerak.

Qo'yiladigan asosiy talablar — landshaftni kichik arxitekturaviy va dekorativ shakllar bilan haddan tashqari bezatilishiga harakat qilish kerak emas, faqat katta ma'lumot yuklatilgan obektlar bundan mustasno bo'lishi mumkin, misol uchun — tematik bog' va parklar.

Kichik shakllarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri, ushbu hududning yashil o'simliklari, relyef va landshaft kompozitsiyalarining shakllari bilan uyg'unligiga erishishdir. Ular atrof-muhitga nomutanosiblikni olib kirishi kerak emas, arxitekturaviy-landshaft kompozitsiya stilistikasiga to'la javob berishi kerak.

Kichik arxitekturaviy shakllar ixtiyoriy arxitekturaviy shakllarni — kirish qismidan, pavilyon, ratonda, galereya, supalar (besedka), bolyustradalar, fontanlar yoki ko'prikhchalardan poyvaza, fonarlar, panjaralari to'siqlar, o'rindiqlar va boshqa ko'rinishlarda aks ettirishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adilova L.A. Landshaft arxitekturasi. I qism. O'quv qo'llanma. — T.: «Fikriston», 2009. — 108 bet.
2. Adilova L.A. Landshaft arxitekturasi. II qism, darslik. — T.: «Fikriston», 2009. — 156 bet.
3. Adilova L.A. Landshaft arxitekturasi. O'quv qo'llanma. — T.: «Fikriston», 2000. — 102 б.
4. Адилова Л.А. Ландшафтное планирование: учебное пособие. — Т.: ТАСИ, 2007. — 119 с.
5. Касмирова Х.Х., Сагарова К.Д. Проектирование многофункционального парка города: уч. пос. ТАСИ, 2007.
6. Йонкуланедова, Л.А. Adilova. Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi. I qism, darslik. — T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa imeni o'stovar, 2009. — 160 б.
7. Вергунов А.П. Ландшафтная композиция садов и парков. — М.: Стройиздат, 1980.
8. Вергунов А.П. Архитектурно-ландшафтная организация общественного города. — Л.: Стройиздат, 1982.
9. Вергунов А.П. и др. Ландшафтное проектирование. М.
10. Волк Н. Пешеходные пространства городских центров. — Днепропетровск: Болгарского. — М.: Стройиздат 1983.
11. Шаманников В.В. и др. Город и ландшафт (проблемы, концепции, задачи и решения). — М.: Мысль, 1986.
12. Григорий В.А. Городское зеленое строительство. Учеб. — М.: Стройиздат. 1991.
13. Григорий В.А., Лунц Л.В. Парки мира. — М.: 1985.
14. Григорий В.Ф., Юткевич Н.Н. Проектирование садов и парков. — М.: Стройиздат. 1991.
15. Фиркович А.Д. Искусство паркостроения. Львов, Высшая школа. — 1977.
16. Никольский Л.С., Микулина Е.М. Ландшафтная архитектура. — М.: Стройиздат, 1979.
17. Никольский Н.С. Японские сады. — М.: «Изобразительное искусство». — 1975.
18. Никольский Н.А. Садово-парковый ландшафт. — М.: «Изобразительное искусство». — 1969.
19. Проданенко Н.Н. Ландшафтная композиция малого сада. — М.: Издательство Академии архитектуры, 1976.
20. Родионов М. Сады через века. — М.: «Знание», 1981.

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>4</b>
<b>I QISM</b>	
<b>BOG'-PARK SAN'ATI VA LANDSHAFT ARXITEKTURASI TARIXI.....</b>	<b>7</b>
<b>1.1. Qadimiy va antik dunyo bog'lari.....</b>	<b>7</b>
<b>1.1.1. Misr bog'lari.....</b>	<b>10</b>
<b>1.1.2. Assuriya-Bobil bog'lari .....</b>	<b>12</b>
<b>1.1.3. Qadimgi Fors (Eron) bog'lari .....</b>	<b>12</b>
<b>1.1.4. Qadimgi Hindiston bog'lari.....</b>	<b>13</b>
<b>1.1.5. Qadimgi Xitoy bog'lari .....</b>	<b>14</b>
<b>1.1.6. Antik Yunon bog'lari.....</b>	<b>15</b>
<b>1.1.7. Rim imperiyasining bog'lari.....</b>	<b>18</b>
<b>1.2. Ilk o'rta asrlar bog'-park san'ati .....</b>	<b>22</b>
<b>1.2.1. Yevropa ilk feodalizm davrining bog'-park san'ati.....</b>	<b>22</b>
<b>1.2.2. Ispaniyaning arablar bog'lari .....</b>	<b>24</b>
<b>1.3. Yevropaning Uyg'onish, Barokko va Klassisizm davrlarining bog'-park san'ati .....</b>	<b>27</b>
<b>1.3.1. Italiyaning terrasali bog'lari.....</b>	<b>27</b>
<b>1.3.2. Fransiyaning muntazam parklari.....</b>	<b>31</b>
<b>1.3.3. Angliya va Germaniya muntazam parklari.....</b>	<b>35</b>
<b>1.3.4. Rossiyada barokko va klassisizm davridagi regular parklar...</b>	<b>37</b>
<b>1.4. Yaqin va O'rta Sharq bog'-park san'ati.....</b>	<b>41</b>
<b>1.4.1. Musulmon sharq bog'larining falsafasi.....</b>	<b>41</b>
<b>1.4.2. Eron bog'lari.....</b>	<b>43</b>
<b>1.4.3. O'rta Sharqning Temuriylar bog'lari.....</b>	<b>46</b>
<b>1.4.4. Chorbog'ni rejalashtirish prinsiplari.....</b>	<b>54</b>
<b>1.4.5. Hindiston bog' va parklari.....</b>	<b>56</b>
<b>1.5. Uzoq Sharq mamlakatlarining bog'-park san'ati.....</b>	<b>62</b>
<b>1.5.1. Xitoy bog'-parklari.....</b>	<b>62</b>
<b>1.5.2. Yaponiya bog'-parklari.....</b>	<b>67</b>
<b>1.6. Yevropaning XVIII—XIX lar peyzaj va romantik parklari...</b>	<b>70</b>
<b>1.6.1. Angliyani romantik peyzaj parklari.....</b>	<b>70</b>
<b>1.6.2. Germaniya peyzaj parklari.....</b>	<b>73</b>
<b>1.6.3. Rossianining peyzaj parklari.....</b>	<b>76</b>
<b>1.6.4. Shaharlarning XVIII—XIX asrlar landshaft kompozitsiyalari</b>	<b>81</b>
<b>II QISM</b>	
<b>LANDSHAFT ARXITEKTURASINING ZAMONAVIY RIVOJLANISHI.....</b>	<b>83</b>
<b>2.1. Landshaftlar va zamonaviy landshaft arxitekturasi to'g'risida tushunchalar.....</b>	<b>83</b>
<b>2.1.1. Landshaftlar to'g'risida tushunchalar.....</b>	<b>83</b>
<b>2.1.2. Landshaft arxitektura yo'nalishning paydo bo'lishi.....</b>	<b>86</b>
<b>2.1.3. Landshaft arxitektorlari maktabini tashkil etilishi.....</b>	<b>87</b>
<b>2.1.4. Landshaft arxitekturasing maqsadi va vazifalari.....</b>	<b>90</b>
<b>2.1.5. Hududlarni landshaftli tashkil etish darajalari.....</b>	<b>95</b>
<b>2.2. Landshaft arxitekturasing shaharsozlik asoslari.....</b>	<b>97</b>
<b>2.2.1. Shaharlar va aholi turar joylarining landshaft rejalashtirish..</b>	<b>97</b>
<b>2.2.2. Shahar ko'kalamzorlarini tashkil etish tamoyili.....</b>	<b>107</b>

1.1.1	<b>Uzbekiston nholi joylari ko'kalamzorlari tizimini ime'yurish.....</b>	108
1.1.2	<b>Hudud markazlari landshaft tashkil etish.....</b>	111
1.1.3	<b>Hudud markazlarning ochiq maydonlarini funksional- landshaft tashkil etish.....</b>	111
1.1.4	<b>Hudud markazning ochiq maydonlarida landshaft elementlari tashkil etish.....</b>	116
1.1.5	<b>Hudud markazlarning magistrallari yaqinidagi hududlarni landshaft tashkil etish.....</b>	123
1.2	<b>Tumur joy tumonlari, mikrorayonlar hududlarida Landshaft turli mi tashkil etish.....</b>	126
1.3	<b>Ommaviy tumur joy qurilmalari landshaftini tashkil etishga qo'yiladigan talablar.....</b>	126
1.4	<b>Tumur joy tuzilmasini landshaftli tashkil etish.....</b>	130
1.5	<b>Holabot bog'chalarining landshaftini tashkil etish.....</b>	139
1.6	<b>Maktab hududini landshaft tashkil etish.....</b>	141
1.7	<b>Hudud bog' va parklari.....</b>	143
1.7.1	<b>Hudud parklarning tasnifi.....</b>	143
1.7.2	<b>Hudud va tumon madaniyat va istirohat bog'lari.....</b>	143
1.7.3	<b>Ker plifikatsional parklarning hududlardagi fonksional qismilar.....</b>	145
1.7.4	<b>Moscow park va bog'lar.....</b>	149
1.7.5	<b>Fennatik parklar.....</b>	160
1.8	<b>Landshaft son'atining asosiy nazariyasi va loyihalashda uslub uslublari qo'llash.....</b>	164
1.8.1	<b>Bog' park kompozitsiyasini tashkil etishdagi asosiy uslublar Bog' park kompozitsiyasida estetik shartlarni hisobga olish tabiblari.....</b>	164
1.8.2	<b>Peyzaj qurishning asosiy qoidalari.....</b>	167
1.8.3	<b>Landshaft urxitekturasining asosiy elementlarini loyihalash Landshaft urxitekturasini tabiiy elementlarini loyihalash shartlari hisobga olish .....</b>	169
1.8.4	<b>Landshaft urxitekturaning inert elementlarini loyihalash shartlari hisobga olish.....</b>	173
1.8.5	<b>Bog'lik urxitekturu shaklli va dekorativ qurilmalari.....</b>	200
1.8.6	<b>Peyzadaligini ndabiyotlar.....</b>	203
1.8.7	<b>Loyihedanligini ndabiyotlar.....</b>	209

D.U.ISAMUXAMEDOVA, L.A.ADILOVA

## SHAHARSOZLIK ASOSLARI VA LANDSHAFT ARXITEKTURASI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2010

Muharrir:	M. Hayitova
Texnik muharrir:	A. Moydinov
Musahih:	F. Ismoilova
Kompyuterda sahifalovchi	N. Valixanova

Bosishga ruxsat etildi 28.09.2010. Bichimi 60x84 1/<sub>16</sub>.  
«Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usuloda bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 14,0. Nashriyot bosma tabog'i 13,25.  
Tiraji 500. Buyurtma 138.

«Fan va texnologiyalar Markazining  
bosmaxonasi» da chop etildi.  
100003, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-yu.

